

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI.

J. YO'LDOSHEV, S.XASANOV, M.SHIRINOV

MAGISTRLARNI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

(magistirlar uchun metodik qo'llnama)

TOSHKENT-2011

Ushbu metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2008 yil 4- fevral` 1765- sonli "Magistratura to'g'risidagi Nizomi haqida"gi buyrug'i va magistirlik mutaxassisilarning ilmiy-pedagogik ish dasturi, ilmiy-tadqiqot ish rejalarida ko'zda tutilgan mustaqil ta'lim olish va ularga qo'yilgan pedagogik va metodik talablar asosida yaratildi.

Ushbu metodik qo'llanma magistrantlar va ularning ilmiy rahbarlari uchun mo'jallangan.

Ma`sul muharrir: R.A.Mavlonova - pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

SH.Mardonov - pedagogika fanlari doktori professor .

SH.SHodmonova – pedagogika fanlari doktori.

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining ilmiy kengashida 2011 yil "23" iyun № 14 -sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Mundarija

Kirish.....	3-bet
I-bob. Magistrantning mustaqil ta'lim olish orqali pedagogik mahoratini oshirish.....	5-bet
1.Kasbiy mahoratni oshirish bo'yicha mustaqil ta'lim.	
2. Metodik ko'nikma, malakalarni oshirish.	
3.Pedagogik va psixologik bilimlarni takomillashtirish va rivojlantrish.	
4. Milliy g'oya, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat bo'yicha bilim, ko'nikmalarni oshirish.	
II- bob. Magistrantning ilmiy pedagogik faoliyati.....	12-bet
1.Darsni taxlil qilish va natijalash texnologiyasi...	
2.Ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borishda zamonaviy dars va uning tizimi.	
3. Maktabda metodik ishlarni maqsadlari, mazmuni, vazifalari bilan tanishish va o'rganish.	
4.Maktabda ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning metodlari.	
5.O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish ishlari..	
6. Bolaga do'stona munosabatdagi maktabning asosiy qoidalari.	
7. Ma'ruza tayyorlash mezonlari.	
8. Ma'ruza matni elektron variantda.	
9. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish.	
10. Interfaol ta'lim sifat kafolati...	
11. Trening, trening guruhlarida ishlarni tashkil etish.	
12. Pedagogik innovatsiya va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish.	
13. O'quvchi bilimni baholash.	
14. Pedagogik diagnostika.	
15. Pedagogik diagnostikaning test metodi.	
16.Pedagogik muvafaqiyatlarga erishishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun testlar.	
III-bob. Magistrantning ilmiy-tadqiqot ishlari. Magistrlik dissertatsiyasi strukturasi texnologiyasi.....	68-bet
IV-bob. Pedagog mutaxassisligi bo'yicha magistrning bilim, ko'nikma, va malakalarga ega bo'lish kasbiy talablari.....	92-bet
Adabiyotlar.....	94-bet

Kirish

Bilinga chanqoq iste'dodli yoshlarni topib,
ularni vatanga fidoiy insonlar qilib,
tarbiyalash muqaddas vazifamizdir.

I.A.Karimov

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash miliy dasturi”, “Maktab ta’limni rivojlantrish Davlat umummilliy dasturi”ga ko’ra oliy ta’lim, akademik litseylar, kasb-xunar kollejlari, maktablarni qurish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash, zamonaviy o’quv-texnika jihozlari bilan ta’minlash hukumatimiz tomonidan jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

Davlat ta’lim standartlari takomillashtirilib dasturlar modernizatsiya qilinib, jahon andozalari darajasidagi darsliklar, o’quv-uslubiy qo’llanmalar, o’quv qurollari bilan ta’minlanmoqda.

Bu o’z navbatida ta’lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabatda bo’lish, yuksak madaniyatli kasb egasi, metodik jihatdan mahoratli, zamonaviy o’qitish texnologiyalarni va innovatsiyalarni mukammal egallangan kadrlarni talab etmoqda.

SHu munosabat bilan Oliy o’quv yurtlarida pedagogik kadrlarni yangi avlodini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. YA’ni bakalavr va magistr pedogllarni etishtirib chiqarish tizimi ishlab chiqildi va yo’lga qo’yildi.

Bu masalaga davlatimiz mustaqiligining dastlabki yilaridan boshlab jiddiy e’tibor berib kelinmoqda.

Bu haqida Prezidentimizning quyidagi so’zlari ibratlidir “SHuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlariida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarmizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rish zarur.

Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarmizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish, ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo’lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak”¹.

YUqoridagi maqsad va vazifalardan ta’lim jarayoniga tadbiq etishda pedagoglarning yangi avlod vakillari bo’lmish magistrant talabalarning qanday bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

YAngi avlod pedagog-magistrnlarni tayyorlash bo’yicha bir qancha xuquqiy me’yoriy, uslubiy-metodik yo’riqnomalar, o’quv reja, standart talablari yaratilgan. SHu asosida Oliy ta’lim muassasalarida magistr-pedagoglar tayyorlanmoqda.

Jumladan magistratura to’g’risidagi nizom, unga qo’shimcha magistirlik dasturining namunaviy tuzilmasi, Magistirlik dissertatsiyasini tayyorlashning namunaviy tarkibi, magistirlarning ilmiy-pedagog ish mazmuni, magistratura-talabasining ilmiy-tadqiqot ishi, mazmuni va reyting nazorat tizimi “SHaxsiy ish reja” kabi me’yoriy xujjatlar ishlab chiqilib o’quv jarayoniga joriy etilgan.

¹ I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat- engilmas kuch” T. Ma’naviyat 2008 yil 61-bet.

Pedagogika Oliy o'quv yurtlarida magistrlar tayyorlash bo'yicha orttirilgan dastlabki tajribalar, magistrant, talabalar bilan o'tkazilgan savol-javoblar, suhbatlar, davra suhbatlari shuni ko'rsatadiki, iste'moldagi o'quv me'yoriy xujjatlar, o'quv rejalar dastur, yo'riqnomalar asosidagina mustaqil ta'lim olish va ishlash, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish, ular yuzasidan taxliliy tadqiqotlar o'tkazish ancha qiyin kechmoqda.

Magistrant-talabalar o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etish, shaxsiy rejalarda ko'zda tutilgan ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot izlanishlar, tajriba-sinovlarni va tashkil etishda, o'qitish metodlar va boshlashida metodik ishlar va pedagogik mahoratlarini oshirishda, tarbiyaviy ishlarni tayyorlash va tashkil qilishda maxsus uslubiy qo'llanmaga ehtiyoj sezilmoqdalar. SHu munosabat bilan ushbu "Magistrantlar uchun uslubiy qo'llanma" yaratildi. Unda magistrantlarni mustaqil o'qishni tashkil etish, ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish, magistrlik dissertatsiyasini yozish va tayyorlash texnologiyasi va magistrantlarga qo'yilgan kasbiy talablar va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Aziz ilmiy raxbar va magistrant-talabalar, qo'llanma sizning ish faoliyatingizda yaqindan yordam beradi degan umiddamiz.

Unda foydalanish jarayonida tug'ilgan fikr mulohazalar, takliflaringiz va tanqidiy fikrlaringizni kutamiz.

I-bob. Magistrantning mustaqil ta'lim olish orqali pedagogik mahoratni oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007 yil 29 dekabrda "Magistratura To'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i magistrnlarning shaxsiy ish rejalarida mustaqil ta'lim olish orqali pedagogik mahoratlarni oshirib borishlari alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. SHuning uchun ham magistrant mustaqil ta'lim olishni qanday yo'nalishlarda qanday tashkil etadi, yoki maqsadlarni ko'zda tutishi, shaxsiy rejalarini to'la bajarsa u nimalarni bilib oladi, qanday bilim, ko'nikma malaka va mahoratlarga ega bo'ladi?- degan savol tug'iladi. Mustaqil ta'lim olish – ta'lim yo'nalishlari orasida eng ma'qul va samardor usuldir. Tarixdan bizga ma'lumki, dunyoda mashhur daholar asosan mustaqil mutola qilishlari natijasida foydali, olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishlariga sabab bo'lgan. Mustaqil ta'lim esa o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash, o'qish o'rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlikdan boshlanadi. Bu jarayon umr bo'yi shaxsning yashash tarziga aylansa, u o'z-o'zini boshqara oladi. SHaxs o'zini-o'zi boshqaradmi, demak u o'z-o'zini tarbiyalaydi, takomillashtiradi, barkamol inson darajasiga erishadi. SHaxsning o'z-o'zini boshqarish, o'z shaxsining xo'jayini sifatida o'z hayotini o'ylaydi. Uning sarmazmun, unumli o'tmishni nazorat etib boradi. YAxshilik, yangilik ijodkorlik tomon intiladi, ichki dunyoqarashni boyitib borishni kundalik hayotiy mazmuniga aylanadi. SHuning uchun magistrant o'z-o'zini tarbiyalashi va rivojlantirishda o'zini mustaqil o'qishni tashkil eta olishi, o'z pedagogik mahoratini o'zi oshirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Doimiy tinimsiz mutola qilish insonni ulug'lashga boshlaydi.

O'z-o'zini mustaqil ta'lim olishi orqali o'z dunyoqarashini, umumpedagogik, siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, darajasini, intelktual ehtiyojini qondirilishi aqliy mehnat yuritish qobiliyatlariga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini mustaqil ta'lim olish orqali kasbiy, metodik, pedagogik mahorat, psixologik qobiliyat, yangi axboratlarni olish, saqlash qayta ishlash orqali shaxsiy ijodkorlikni shakllanishiga olib keladi. SHuning uchun xar qanday ko'rsatilgan tashabbus shaxsni ichki ta'lim-tarbiya topganligidan dalolatdir. Unda ichki kuch, o'zini tahlil qilish, o'zligini bilishi, o'ziga-o'zi baho berishi, o'z shaxsiy faoliyatiga tanqidiy qaray olishiga, to'g'ri xulosa chiqarishdan darakdir. SHaxsning ichki dunyosini o'sganligi kasbiy bilim, pedagogik mahorat, umum bilimdonlik, jismoniy, ma'naviy o'sish orqali namoyon bo'la boshlaydi. O'z-o'zini tarbiyalash, ta'lim olish va rivojlanishdan to'xtash bo'lishi mumkin emas, olg'a intilish ijodkorlikni namoy etish umr bo'yi yashash va mehnat qilishning tarkibiy qismiga aylonmog'i kerak. Agar magistrant ma'suliyatini o'z bo'yniga olmasa, ta'lim-tarbiyada, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy ishlarda hech vaqt ijobiy natijalarga erisha olmaydi.

Xulosa qilib aytganda magistrant mustaqil ta'lim olish jarayonida quyidagi maqsadlarni ko'zda tutishi kerak:

- Pedagogik muammolarni o'rganish, o'zlashtirish asosida ularni mustaqil echa olish ko'nikma, malakalarni shakllanishi;

- Tinimsiz izlanish, tajriba-sinov, tadqiqotlar olib borish asosida o'z bilimi ma'naviyati, madaniyatini oshirib borish;
- Turli muammoli vaziyatlarni mustaqil to'g'ri hal eta olishi, echa olishi, qaror qila olishi;
- Qanday bo'lmasin maqsadga erishishni optimal va to'g'ri echa olishi;
- Turli manbalardan axboratni olabilishi, to'plash, saqlash qayta ishlash va o'z pedagogik faoliyatida tatbiq etaolish;
- Olgan natijalarni to'plash, taxlil qilish, tanqidiy qarash, chora ko'rish va baholash;
- O'zini kundalik ish faoliyatini maqsadli, rejali, aniq to'g'ri tashkil eta olishi;
- O'quvchilar va ota-onalar bilan samimiyat, do'stona, ijodiy munosabatlarda bo'lish, hamkor va hamjixatlikda faoliyatni tashkil etish;
- Har qanday vaziyatda dars, darsdan tashqarida talaba-o'quvchilarni qiziqishlari, xohish-istaklari asosida, ularni mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritishlariga muhit yaratib berish;
- Talaba-o'quvchilarni olgan bilim, ko'nikma, malakalarini amaliyotga qo'llash, bozor iqtisodiyoti sharoitida yashash va ishlay olishga o'rgata olishdan iborat.

Magistirant mustaqil ta'lim olish uchun, o'z kasbiy, pedagogik, umummadaniy faoliyatini tanqidiy tahlil qiladi. O'zini faolitidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirish maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish kalendar rejasini tuzadi, kundalik daftariga qilayotgan ishlarni qayd qilib boradi.

Mustaqil ta'limni quyidagi yo'nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- Kasbiy mahoratini oshirib borish bo'yicha mustaqil ta'lim olish;
- Metodik ko'nikma, tajriba, malakalarini oshirish;
- Pedagogik va psixologik bilimlarini takomillashtirish, rivojlantrish;
- Milliy g'oya, ma'naviyat-ma'rifat madaniyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish.

1.Kasbiy mahoratni oshirish bo'yicha mustaqil ta'lim.

Magistrant o'z kasbi bo'yicha o'quv rejalar, dasturlar, standartlar va boshqa uslubiy-me'yoriy xujjatlar mazmun va mohiyatini o'rganadi. Iste'molda bo'lgan modernizatsiya qilingan dastur va takomillashtirilgan standartlarni ilgarilariga taqqoslaydi, undagi yangiliklarni mazmun-mohiyati, yangilangan o'zgarishlarni o'qiydi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Mutaxassislik har bir o'quv predmetlari asosida ulardagi matnlar mazmuni, maqsad va vazifalar mohiyatini o'rganadi. Yaratilgan yangi avlod darsliklari, metodik qo'llanma, adabiyotlarni o'qib o'rganadi, kamchiliklar haqida qiyosiy material, tezislar tuzib boradi.

Yangi dastur va standartlarni o'quv jarayonida ishlatiladigan jihozlar, labatatoriya va amaliy mashg'ulotlar asbob-uskunalarini, ularni ishlatish bo'yicha tavsiya va tartiblarni o'rganadi.

SHuningdek entsiklopediya va pedagogik lug'atlardan asosiy tushuncha va atamalarni o'qiydi, o'zlashtiradi.

2. Metodik ko'nikma, tajriba malakalarni oshirish.

Zamonaviy dars va unga qo'yilgan didaktik talablar metodik ko'nikma, tajriba malakalarni oshirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, integratsiya va tabaqlashgan ta'lim, ixtisoslashgan ta'lim, inklyuziv ta'lim, innovatsion ta'lim, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonini modullashtirish, algoritmizatsiya, konstruktivlash, muammoli ta'lim, kreativ ta'lim, evristik ta'lim, kom'puterli, axborot texnologiyalari asosida ta'lim metodlari interfaol ta'lim, loyxalashtirilgan ta'lim, masofaviy ta'lim internet forum, meda-ta'lim metodlari internet va boshqa manbalardan respublikadagi innovatsion tajriba va jahon mamlakatlaridagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga sistemali tatbiq etib borishdan iborat.

3. Pedagogik va psixologik bilimlarni takomillashtirish, rivojlantrish.

O'qitish jarayonida o'quvchida o'zlashtirish uchun motivatsiya hosil qilish, o'quvchi-talabani o'quv-bilimga nisbatan his-tuyg'ullarni uyg'otish, uning qiziqishi-hoxish istagi va yosh xususiyati, moyillik qobiliyatlarini o'rganib borish.

O'quvchi-talaba qobiliyati, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiyaga ijobiy ta'sir etuvchi faktorlarni yangi nashr etilgan adabiyotlarni o'qish o'rganish. O'quvchi-talaba shaxsiga qaratilgan individuallashtirish ta'lim-yo'nalishlarini o'zlashtirib borish;

Unda:

- Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv faolligni oshirib borishni;
- O'quvchi-talabani mustaqil fikirlashga o'rgatish;
- O'quvchi-talabani ijodiy fikirlashini tashkil etishga;
- Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqilligni, erkinligini ta'min etish;
- O'quvchi-talabani qiziqishlari asosida pedagogik faoliyat yuritish;
- O'quvchi-talabaning imkoniyatlarini ishga solish;
- O'quvchi-talabani qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga, shuningdek maktabdan tashqari ta'lim olishga yo'llash;
- O'z-o'zini tahlil qila olish orqali tarbiya topptirish.

O'quvchi-talabalarining yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, ularni mustaqil bilim olish ko'nikmalarini hosil qilish, o'z kuchiga ishonish, o'quvchi talaba xarakteridagi ijobiy tamoyillarini rivojlantrish, ularga yakka, juft bo'lib, guruxlarda ishlash bo'yicha mavjud ilg'or tajribalarni o'rganish, amaliyotda qo'llash. Ota-ona, mahalla, maktab akademik litsey, kasb-xunar kolleji hamkorligi kontseptsiyasi asosida dastur-tadbirlarni o'tkazishni o'rganish.

O'quvchi-talaba shaxsini rivojlantrishni, tarbiya topganligini aniqlovchi mezonlarni o'rganish orqali, ularning intellektini baholash mezonlari (testlar) orqali aniqlash, kamchilik, nuqsonlarini oldini olish choralarini ko'rib borish maqsadga muvofiqdir.

4. Milliy g'oya, ma'naviyat, ma'rifat. Madaniyat bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini oshirish.

Magistrant milliy urf-odatlarimiz, milliy qadrlarimiz, umummilliy qadriyatlarini, uni mezon va xususiyatlarini birinchi manbalardan, adabiyotlar, entsiklopedik

lug'atlardan, ayniqsa bu sohada prezident I.A.Karimovning asrlarini o'qish, o'rganish, mazmun mohiyatini o'zlashtirishga qaratmog'i zarur.

Magistrant ayniqsa, yurtboshmizning "YUksak ma'naviya-enilmas kuch" asarini mustaqil o'qish orqali o'qish, o'rganish o'zlashtirish egallangan bilimlar asosida uning mazmun mohiyatini, undan kelib chiqadigan maqsad, vazifalarni o'quvchining ongi shuriga etkazishni bilib olishi zarur.

Keyingi vaqtlarda mustaqil ta'lim olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. SHu sababli magistrantlarning dasturlari va shaxsiy rejalarida mustaqil ta'lim bilim, ko'nikma, malakalarining shakillanishida asosiy o'rin olishi ko'zda tutilgan. CHunki mustaqil ta'lim orqali magistrantni mustaqil fikirlash, faollikni shakillantiradi. Jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki magistrantlar o'rganish kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni 80% ni mustaqil ta'lim olish orqali o'rganar ekan.

Kasbiy metodik, psixologik-pedagogik yo'nalganlik-raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omilidir, talbalarining ilgarilab ketuvchi intellektual, ma'naviy rivojlanishsiz ta'lim va innovatsiya texnologiyasi sohasida muvafaqqiyatga erishib bo'lmaydi. Mustaqil ta'lim olishda pedagogik kognitiv komponent etakchilik qiladi. Zero kognitiv komponent kasbiy mahorat asosida yotuvchi bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimni o'zlashtirishni asosiy omillidir.

U ilmiy izlanishlar mazmuni, qonuniyatlar va e'tiqodga aylanib, boruvchi dunyoqarash xarakteridagi g'oyalar mohiyatini anglab etishga va ularni amalda qo'llashga imkon beradi. Hozirgi vaqtda ko'nikma va malakalar oliy ta'lim, kasb-xunar kolleji, maktab va akademik litsey ta'lim standartlariga kiritilgan. Ular xalqaro ta'lim standartlarga mos keladi. Bundan tashqari, axborat asri mutaxassislardan kasbiy savodxonlik va ijtimoiy safarbarlikni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida magistr pedagog mutaxassislarda qo'yidagi sifatlarni shakillantirishni taqazo etadi;

- Muloqatga kirisha bilish;
- Jamoa bilan hamkorlik, hamijodkorlikda ishlay olish;
- O'z-o'zini kamol toptirish;
- Innovatsiya, pedagogik texnologiyalarni bilish ;
- Kundalik muammolarni xal etaolish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila bilish;
- Tanqidiy munosabatda bo'lish;
- Mulohazali, o'z pozitsiyasida turish va himoya qila olish;
- Axloqiylik va tarbiyalanganlik stresslariga barqarorlik;
- O'z-o'zini boshqara bilish;
- Ish jarayonini rejalashtirish va tashkil eta bilish qobiliyati; maqsad sari intiluvchanlik;
- Tartib qoidalarga qa'tiy amal qila olish va boshqalar;

Magistrantlar faol bilim faoliyati motivatsiyaning asosi ularning kelgusida pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan malaka, mahoratlarini shakillantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. SHaxsni rivojlantrishda ijtimoiy va induvidual safarbarlik muhim omillardandir. Mustaqil ta'lim olganda talabalar o'z-o'zini boshqarishda ishtirok etadi, o'qituvchi bilan birgalikda mashg'ulotlarni, didaktik

qo'llanmalarni tarqatadi, jadvallarni tayyorlaydi, tashkil etadi. Ular tashkiliy pedagogik ishlarda, tadbirlarda bevosita faoliyat ko'rsatadi. Bunday holat ularda menejmentlik rolini o'taydi. Bu talablarda individuallikni, pedagogik mahoratini rivojlantiradi. Zero, ular hayotda muvaffaqiyatga erishish va barqaror turmush kechirish uchun juda zarur.

Ta'lim jarayonida quyidagilarga amal qilishlari maqsadga muvofiq:

- Tashkiliy ishlardan ko'ra, ko'proq aniq- maqsadli ishlarni bajarish;
- O'quvchi talabaning kasbiy tajribasini barcha mashg'ulotlar jarayonida e'tiborga olish;
- Xayratlanishga o'rgatish;
- Kuch-quvvat, safarbarlik;
- Ishni osonlashtirish, ammo soddalashtirmaslik;
- Doimo yangilikka, ijodkorlikka intilish;

Ma'lumki, o'quv adabiyotlaridan foydalanishda talabalar bir muncha qiyinchilikka duch keladilar. SHu bois o'qituvchi dastlab talabalarda o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakillanishga e'tiborni qaratishi zarur.

- o'quv mashg'ulotlarni qisqacha ma'ruza tarzda ifodalay olish;
- referat yoza bilish;
- tegishli o'quv axboratini tanlab, uni sxema, jadval, tayanch signal va rasm ko'rnishda ifodalash.

Magistrant mustaqil ta'lim olishda o'quv,uslubiy adabiyotlar bilan tanishishda quyidagilarga alohida e'tibor berishlari zarur;

- o'quv adabiyoti tuzilishi bo'yicha tanishish;
- matnlarni o'qib chiqish;
- alohida boblarni o'qib chiqish;
- o'quv adabiyotlardan savollarga javob qidirish;
- o'quv materiallarni o'rganish;
- referat yozish;
- qisqacha bayonnoma tuzish;
- misol va mashqlar echish;
- Test sinovlarini bajarish;
- O'quv materiallar mazmunini tushunish va xotirada saqlab qolish;
- O'qish jarayonida o'z bilimini tekshirish malakasini shakillantirib borish;
- O'qish jarayonidayoq reja asosida mantiqiy-tuzulmaviy sxemalar, jadvallar va rasmlar shaklida ifodalash, konspekt yozish va boshqa amaliy ishlarga o'rgatish.

Talabaning bilimlarni o'zlashtirgani to'g'risida kitobni necha marta o'qigani emas, balki o'quv materiallari mazmunini tushunishga ko'ra xulosa chiqarish va uni baholanishi kerak. Bunda talabaning ko'p o'qish emas, balki o'qiganlarini faol eslab qolish va tushuntira bilish muhim xisoblanadi. Talabalar o'quv adabiyotlardan mustaqil foydalanishlarida o'quv mashg'ulotlarining texnologik xartalardan foydalanishlari yaxshi natijalar beradi.

Albatta magistrant mustaqil bajarilgan ishlarni nazorat qilinishi, tahlil etilishi lozim. SHuningdek magistrant respublikamizda nashr etilgan “Xalq ta’lim” “Boshlang’ich ta’lim”, “ Uzluksiz ta’lim ”, “ Ta’lim taraqqiyoti ”, “ Tarbiya ”, “Ta’lim menejmenti”, “Ma’rifat” va boshqa ilmiy-metodik jurnal va gazetalarni sistemali ravishda mutola qilib o’z kasbiy, metodik mahoratlarini oshirib boradilar.

Magistrantning sistemali o’z mustaqil ta’lim olishini tashkil etish, ilg’or tajribalar, innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’rganib borishi pedagogik izlanish, tajriba sinovlar o’tkazish jarayonida pedagogik mahorati ortib boradi. Pedagogik mahorat uning faoliyatidagi eng birinchi va asosiy faktordir. Mahorat-bu doimiy va surunkali ravishda takomillashib, rivojlanib boruvchi ta’lim-tarbiyani mukammal egallash sa’natidir. Bunday sa’natni sistemali o’z ustida ishlab, izlanib, o’z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashgan, bolalarni sevuvchi, ular bilan do’stona va samimiy munosabat o’rnata olgan o’qituvchigina erishishi, mahorat egasi bo’lishi mumkin.

O’z ishini ustasi bo’lgan pedagog-yuqori madaniyatli mutaxassis, o’z o’quv predmetini chuqur-puxta egallagan, o’z kasbi bilan bog’liq bo’lgan fan sohalarini bilan oladigan, sa’natni tushunadigan, umumiy va bolalar psixologiyasiini o’zlashtirib olgan, ta’lim-tarbiya ishlar metodikasini puxta egallashiga xarakat qiladi.

Magistrantning kasbiy mahorati deganda uning pedagogik kompetentligi, tashkilotchilik, kognitivlashtirish, kommunikativ va informatsion (ya’ni o’quv materialini chuqur va erkin egallagan; zaruriy axborat manbalaridan unumli foydalan olgan, o’quv jarayonida o’quvchi bilan qayta aloqa o’rnata oladigan; o’quv materiallarini tanlay oladigan; zaruriy bilimlarni bera oladigan; rivojlantira oladigan; ta’lim-tarbiya natijalarini bashorat qila oladigan; o’qitish shakl va metodikalarini, o’quvchi-talaba shaxsiy xususiyatlariga moslashtira oladigan; xar bir darsda o’quvchi-talabani o’zlashtirishi joriy va oraliq nazoratini o’rnata oladigan; darslarda o’quvchi-talaba yakka tartibda, kichik guruxlarda, jamo bo’lib ishlashlarini tashkil etaoladigan, o’quvchi-talaba xohish va qiziqishlarini tashkil etaoladigan, o’quvchi-talaba orasida sog’lom ruhiy xolatni o’rnataolishi ko’zda tutiladi.) YUqorida barcha faoliyatlarni amalga oshirishda motivatsiya aspektini hisobga olish o’zining ijobiy natijalarni beradi. Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, magistrant quyidagi mahoratlrga ega bo’lishi kerak.

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’limni loyhalash, algoritimlash.konstruktivlash modullashtirish, innovatsion maxoratga;
2. O’quvchi-talaba bilish qobiliyatini boshqara olish mahoratiga;
3. O’qituvchining nutq madaniyatga;
4. O’qituvchining muloqat qila olish mahoratiga;
5. O’qituvchining ishonchga kirish, ishontira olish mahoratga;
6. O’qituvchining o’quv jarayonini tashkil etaolish mahoratiga;
7. O’qituvchining o’quvchi-talabalarni ergashtira olish, tarbiyalay olish madaniyatiga;

8. O'zlashtirish su'ratini o'quvchi-talabaning yoshi, ichki imkoniyatiga mos ravishda olib bora olish mahorati va hokozi.

Magistrant uzluksiz va mustaqil ta'lim olish jarayonida quyidagi ibratli so'zlarni rioya qilib borsa, kelgusida yuksak pedagogik mahorat egasi bo'lish mumkin.

- "O'zingni o'zing o'rgan".
- "Men shuni bilamanki, hali men xech narsani bilmayman"
- "To oxirgi nafasim qolgunicha dunyoni bilishga intilaman"
- "Beshikdan qabirgacha ilm izla"
- "CHinga borib bo'lsa ham ilm o'rgangin"
- "Agar inson o'zini o'zligini bilmasa, u bilmaganini bilishga intilmaydi"
- "Bilimning kaliti mustaqil mutaoladir"

II-BOB Magistrantning ilmiy pedagogik faoliyati.

Magistratura ta'lim bosqichida bajariladigan ilmiy-pedagogik ish mazmuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007 yil 29 dekabrda 296-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risida"gi nizom asosida ilmiy-pedagogik amaliyotni o'tkazish davomida magistrantlar turli shakildagi darslarni taxlil qilib o'rganishlari lozim bo'ladi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim jarayonini amalga oshirishning yanada mukammal metod va shakillarni o'zlashtirish orqali mashg'ulotlar mazmunini yanada takomillashtiridan iborat. SHuningdek ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tatbiq qilish orqali o'quv-tarbiyaviy jarayonlar sifati va samaradorligi oshirishdan iborat. Ilmiy-pedagogik ishnilarni bajarishda magistrantdan quyidagilarni bilish talab etiladi.

- mutaxassislik fanlari bo'yicha turli dars va mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tajriba orttirish;
- ma'ruza matnlari va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha rejalar tuzish;
- zamonaviy darslar tayyorlash va o'tkazish bo'yicha rejalar tuzish;
- zamonaviy pedagogik va axborat texnologiyalarini o'rganish va qo'llash;
- ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishni o'rganish;
- o'quvchi-talaba bilimlarini baholashning reyting tizimni o'rganish va qo'llash;
- o'quvchi-talabalarining mustaqil bilim olishlarni tashkiliy va uslubiy ishlarini o'rganish va pedagogik faoliyatida foydalanish;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha uslubiy ko'rsatma, metodlarni o'rganib, tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- milliy istiqlol g'oyasi, milliy ma'naviyat asoslari, tarbiyaviy ishlar metodlarini o'qib o'rganish va pedagogik faoliyatida keng foydalanish.

Darsni taxlil qilish va natijalash texnologiyasi.

Dars va olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari o'quv ishini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Magistrant dars kuzatish orqali ta'lim-tarbiyaviy ishlarni maqsad, mazmun, mohiyatini bilib oladi. Bu boradagi mavjud kamchiliklarni o'rganadi, o'ziga tegishli xulosalar chiqaradi. Ikkinchidan dars va mashg'ulotlarni kuzatish orqali o'qituvchining umum saviyasi, madaniyati, kasbiy va metodik mahorati, o'quvchilarning aqliy mehnatlari qay darajada tashkil etilishiga e'tibor beradi. O'quvchilarni darslarda u yoki bu fanlardan qay darajada bilim olayotganliklari, darslarda ta'limni ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bog'lab olib borish ishlari qay darajada va uslublarda olib borishlariga e'tibor berayotganliklarini bilib oladi. Agar magistrant o'qituvchining darsini kuzatishda o'z oldiga maqsad qo'yib olsa, uni ilmiy, metodik va pedagogik jihatlarini diqqat bilan o'rgansa, yaxshi natijalarga ega bo'ladi. Bu uning kelgusida ilmiy-pedagogik ishlariga yaqindan yordam bo'ladi.

Magistrant darslar, mashg'ulotlarga nima uchun qatshashishi kerak?

- Davlat dasturlarini amalda bajarilish;
- Davlat ta'lim standartlariga amal qilish;
- O'qitishning metodik darajasi;
- Materiallarni tushunarli bayon qilish va o'quvchilarni bu jarayonda faol qatshashishi;
- Dars jarayonida fan yutuqlari, zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyadan foydalanish;
- O'quv-biluv mehnatini tashkil etilishi;
- O'quvchilarni mustaqil ishlashlarini (yakka, juft, kichik guruxda) tashkil etilishi;
- Har bir tahlil qilingan dars va mashg'ulotidan o'z bilim va tajribalarini boyitib va ilmiy-pedagogik mahoratlarini oshirishlari, ularni yangilashga xarakat qilishlari ko'zda tutadi.

Darsni kuzatishga tayyorgarlik ko'rish.

- fan dasturi, mavzu, maqsad va rejalashtirish bilan tanishish;
- fan bo'yicha darslik va metodik adabiyotlarni o'rganish;
- o'qituvchi bilan dars maqsadi, asosiy standart talablar (bilim, ko'nikma, tushuncha, malakalar) haqida suhbatlashish;
- tahlil qilinayotgan sinf tarkibini tahlil qilish;
- darsga kirish va tahlil qilishdan tajriba o'rganish ekanligini bayon qilish;

Darsni taxlil qilish jarayonida;

- dars jarayonida barcha o'quvchilarning bilim egallashda faol ijodiy ishlashi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilimlarni orttirish faoliyatini rejalashtirish;
- o'qituvchi, o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikirlash faoliyatini qay darajada tashkil etganligi;

- dars jarayonida o'quvchilarni ko'pgina manbalardan foydalanish darajasi;
- darsda, o'quv faoliyatining mantiqiyliigi va didaktik printsiplariga bo'ysinishi;
- o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim, o'zlashtirish jarayoninini boshqarishga ;
- dars jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlarga (yakka, juft, guruxlarda) jalb qilinish;
- dars jarayonida mahalliy materiallardan, qo'shimcha adabiyotlar, axborot texnologiyalari va boshqa vositalardan foydalanish;
- o'quv daftari, darsliklar, didaktik tarqatma materiallardan foydalanish;
- o'quvchiga individual va differentsial yondoshuv.

Dars tahlili o'zi nima ?.

Dars tahlili maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida sifatli ta'lim berishning asosiy omillaridan biridir. Maktabda ichki boshqaruvni va ichki nazoratni bir tizimga solish va uni amalga oshirishni tartibga tushirishga xizmat qiladi. Dars tahlili yil davomida o'qituvchilar o'rtasidagi ichki nazorat rejasi asosida amalga oshiriladi. Uning o'quv yili mobaynida o'qituvchilar o'rtasidagi nazorat rejasi jadvali tuziladi. Rejalar (jadval) chorakalar bo'yicha va quyiga o'qituvchi ismi-sharifi bilan davom ettirilib, o'qituvchining ismi-sharifi qarshisidagi xaftalar katagiga nazorat o'tkazilganligi haqida belgi qo'yib boriladi. Dars tahliliga kirishni rejalash bilan birga xar bir o'qituvchining individual, psixologik, pedagogik hamda uslubiy xususiyatlari inobatga olinishi zarur, buning uchun har bir o'qituvchining pedagogik faoliyati ma'lumotnomasiini o'rganib chiqish, o'quv yilining maqsad va vazifalarining ochiq bilgan holda dars maqsadini belgilanishi lozim. Albatta magistrant asosan darsga tayyorgarlik ko'rish, tashxis etish va o'quvchiga bilim, ko'nikma va uni shaxsini rivojlantrish, tarbiya toptirish xolatlarini kuzatish va o'rganishni maqsad qilib oladi.

Umuman darsga qaysi maqsadlar bilan tashrif buyurish mumkin ?

1.Ta'limiy maqsad; ya'ni o'quvchilaring bilim, malaka va ko'nikmalarni egalashlari, har xil faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari va ayniqsa o'qib o'rganishlari uchun sharoit yaratilishi.

Maslan: o'quvchilar tomonidan qonunlarning o'zlashtirishi, mazmun mohiyatining tushunishlari.

2.Tarbiyaviy maqsad: Milliy g'oya asosida o'quvchilar ma'naviy qiyofasining shakllanishi. Axborot-kommunikativ akmelogik va xuquqiy madaniyatni shakllanishni dars mavzusi va mazmuni bilan uzviy bog'langanligi. Barkamol avlodni shakllanishi.

3.Individual rivojlanish: O'quvchilarda ruhiy holat va funktsiyalarni rivojlanishi fikirlash, tasavvur etish, xotirada saqlash, qabul qilish, emotsional-holat va shaxsning motivatsiyasi ehtiyoji muhitini vujudga keltirish, refleksion madaniyatini rivojlanishi, o'quvchida intelktual malaka hosil qilish.

4.Ta'limning korrektsion vazifalari: O'qib o'rganish faoliyatining korrektsion rivojlanish bilan bog'liqligi, o'quv faoliyatining normalashuvi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholashni tarbiyalash, lug'aviy zaxirani rivojlanishi, og'zaki monologik nutq madaniyatini, logopedik korrektsiya, o'quvchilarning ruhiy korrektsion xulqi, muloqat ko'nikmalarini shakllanishi, alohida iqtidorlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi (musiqqa, ta'sviriy sa'nat, sport va boshqalar).Ayniqsa alohida e'tiborga muxtoj o'quvchi-talabalarga yondoshuv, ya'ni fonetik-fonometik nuqson, muloqatda nuqsonni bo'lgan, o'qib o'rganish faoliyatida rivojlanish darajasini pasayishi, nevrologik reaksiyalar, og'zaki muloqotda rivojlanish darajasini, pasayishi maktab darajasida voyaga etmaganlikning pasayib ketish sabablaridir.

Dars tahlilini amalga oshirish tizimi.

Dars maqsadi. O'qituvchi darsda nimaga erishmoqchi edi, u qanchalik aniq edi. Dars maqsadi o'quvchi-talaba ongiga (u yoki boshqa darsda) qay usulda etkaziladi, maqsadini o'quvchi-talaba qaydarajda ko'z oldilariga keltira oladilar va ularining darsda faol ishtirokchilariga qanday ta'sir etadi.

Dars mazmuni. Undagi milliy ma'naviyat va qo'yilgan g'oyaning mustahkamligi, berilayotgan dars materialining o'quvchi-talaba yoshiga mosligi; o'quv mazmunining o'quv standartlari va dasturlariga mosligi; o'quv mashg'ulotining amaliyot bilan bog'liqligi; (agar bu xolat kuzatilgan bo'lsa, u nimalarda namoyon etiladi); ayni vaqtda bu ishni qo'llash zaruriyati; amaliyotga bog'lanishning o'quv va tarbiyaviy maqsadlariga erishish tamoyillariga mosligi; dars vaqtida nazariya va amaliyot bog'liqligining namoyon bo'lishi fanlararo integratsiyaning amalga oshirilishi.

Darsning metodik tomoni.

1. Dars metodlarining muvaffaqiyat bilan asoslanganligi, metodlarning o'zaro uzviyligi, dars bosqichi bo'yicha ularning taqsim etilishi va ketma-ketligi.

2.Quyidagi pedagogik jarayon elementlari dars davomida qanday o'rinni egallaydi.

- Takrorlash;
 - O'tgan mavzuga bog'lash;
 - YAngi faoliyatga rag'batlantirish;
 - YAngi mavzu haqida axborat berish va uni o'rganish;
 - Mashq bajarish;
 - Mustahkamlash va qayd etish;
 - Olingan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda qo'llash;
 - Olingan va bajarilgan ishlarni tekshirish;
 - Tashkiliy lahza (rejalashtirish, uyga vazifa berish);
 - Dars elementlarning o'zaro mosligi;
 - Muvafiqiyati;
 - O'quv jarayonida xar bir element uchun qulay va samarali usullarning qo'llanishi;
3. O'qituvchi tomonidan bayon etilgan material bilan o'quvchi-talaba bajargan mustaqil ishlarning o'zaro bog'liqligi;

4. YOzma topshiriqlarning sifati.
5. Darsda qo'llangan metodik shakl va usullarning o'quvchi-talaba yoshiga mosligi.

Darsda o'qituvchi va o'quvchi-talaba hamkorligi.

- 1.Darsning turli laxzalarida o'qituvchi boshqaruvni qanchalik to'g'ri amalga oshiradi.
- 2.O'quvchi-talaba uchun dars qanchalik qiziqarli bo'ladi.
- 3.Ular diqqatini ushlash va darsni tashkil etish qanday amalga oshirildi.
4. O'quvchi-talaba qay darajada faol va tashabbuskor bo'ladilar.
- 5.O'qituvchining o'quvchi-talabalarga differentsial yondoshuvi.
6. Darsda o'quvchi-talaba tomonidan intizomning saqlanishi. Bu xolatda o'qituvchining xatti-xarakati, vaziyatni baholash.
- 7.O'qituvchining ovoz ohangi; (osayishta, ravon, his-hayojonli, qa'tiy).
- 8.O'qituvchining tashqi xolati;(bee'tibor, bir joyda o'tirish, yoki turish, serharakat, ortiga imo-ishoralar qilishi, kiyinish madanyati).

Uyga vazifa.

Uyga vazifa o'quvchi-talabalarinig mustaqil ravishda o'z bilimlarini boyitib borishlari uchun hozirgi davrining asosiy shartlaridan biridir. Uyga vazifalarining bajarilishi va uni tashkil etish pedagogik jarayonining o'quvchi-talaba faoliyatiga yo'naltirilgan muhim elementlardan biridir. Uyga vazifa orqali o'quvchi-talaba ma'lum bir topshiriqni bajarish bilan birga mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlardan o'qib o'rganadilar, turli manbalar va xujjatlar bilan ishlaydilar. O'quvchi-talaba uyga vazifalarni bajarish uchun vaqtni unumli taqsimlash uning mustaqil ishlashini tashkil etishning asosiy muammolaridan biridir. Uy vazifasi o'quvchi-talaba o'zligini anglash, o'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirish, ishlariga ijodiy yondashishiga o'rgatadi. Uyga berilayotgan vazifalar hajmining sinf yoki guruhlarining boshqa o'qituvchilari bilan kelishish, ortiqcha yuklamalarni olib tashlash (ayniqsa bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilardan) muhimdir.Uyga vazifalarning xaftalik jadvalini tuzish va unga kerakli tuzatishlar kiritilgan holda berilayotgan material o'lchamlarini inobatga olish kerak. Bu esa uyga berilayotgan vazifalarni individullashtirishga yordam beradi.

O'qituvchilar o'z darslarida darsning mukammalik darajasi, hajmi va topshiriqlar miqdoriga har doim ham e'tibor qilmaydilar. Uyga berilayotgan vazifalarini shartli ravishda uch xil bo'lish mumkin.

- Axboratlar asosidagi topshiriqlar (qoidalar yozish, atamalarni aniqlash, darsliklardagi rasm va sxemalarni daftarga ko'chirish, darsliklardagi savollarga yozma javob qaytarish);
- O'quv axboratlarning aynan o'zidan foydalangan holda qisman qo'shimchalar bilan topshiriqlarni bajarish (rejalarga, sxema, konspektlarga o'zlashtirish va qo'shimchalar kiritish, jadvallarni to'ldirish va boshqalar...);
- YAngi o'quv axboratlar orqali beriladigan topshiriq (konspekt,referat, ma'ruza,teziz va boshqalar..),

Uyga vazifa berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- Uyga vaifa dars vaqtida beriladi.
- Uyga vazifa yuzasidan o'qituvchining yo'riqnomasi va sharxi.
- Darsda bajariladigan ish xajmi va uyga beriladigan ish xajmi o'rtasidagi mutunosiblik.
- Sinf ish hajmining $\frac{1}{4}$ qismi.

O'quvchi-talaba mustaqil ishlarni rivojlantirish, ularning o'z-o'zini to'g'ri nazorat qilishiga o'rgatadi. O'z-o'zining nazorat qilishining asosiy sharti bu o'quvchi-talabalarning bajargan ishlari bilan olgan natijalarini solishtirishda namoyon bo'ladi. Dars tahlili o'qituvchini yutuqlarini rag'batlantiradigan, kamchiliklarini oldini olish imkoniyatlarini beradi. Dars tahlili tizimini umumlashtirishgan holda jadvalda uni qanday bosqichlarda olib borilishini keltiramiz.

Bosqich	№	Dars bosqichlari
I	O'qitish maqsadlari	
	1	Ta'limiy
	2	Tarbiyaviy, milliy g'oya, ma'naviyat
	3	Rivojlantiruvchi
	Ta'limning umumdidaktik printsiplari	
II	1	Ilmiyligi
	2	Ongliyligi
	3	Ta'lim bilan hayotning bog'liqligi
	4	Faollik, mustaqillik
	5	Ko'rgazmaliylik
	6	Zamonaviy texnologiyalarning qo'llanishi
	7	O'quvchi-talaba ongi va psixologik xususiyatlari
	8	Ta'limga ijobiy munosabatlarni uyg'otish
III	O'qituvchilarning noan'anaviy usulardan foydalanishi	
	1	Darsning ijobiy tomoni ilg'or texnologiyalardan foydalanish
	2	O'qituvchining qo'shimcha va <i>internet ma'lumotlaridan foydalanishi</i>
	3	O'qituvchining nutqi, notiqlik sa'nati, muomlasi.
IV	Darsning tuzilishi (strukturasi)	
V	Nazariy dars tahlili	
	1	Tekshirish turlarining xilma-xilgi
	2	Mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajasi
	3	Baholashdagi ob'ektivlik
	4	O'qituvchining dars berish mahorati
VI	Darsdagi ruhiy (psixologik xolat, o'quvchi-talaba o'qituvchi orasidagi do'stona, samimiy munosabat)	

Ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borishda zamonaviy dars va uning tizimi.

Hozirgi davr pedagogika fanida zamonaviy dars iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy dars qanday dars? U qanday tashkil etiladi?

Zamonaviy dars - shunday darski, unda o'qituvchi mavjud imkoniyatlardan uddaburonlik bilan foydalanib, o'quvchini aqliy layoqatini ishga solib, rivojlanib borishini ta'min etadi. O'quvchi o'z navbatida bilimlarni chuqur tushungan holda o'zlashtiradi va u borgan sari barkamollik va ma'naviy etuklik sari qadam qo'yadi.

Ilmiy pedagogik nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, dars ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi yaxlit bir butunlikdan iborat.

Bunday hollarda nimalar ko'zda tutiladi;

- o'quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib eslab qolish, o'zlashtirib olish orqali shaxsning rivojlantirishini ta'minlash;
- bilimni olish va o'rganishda shaxsiy faollikni tashkil eta olish;
- o'quvchining mustaqil o'qishi, shaxsiy faolligini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiya toptirish motivlarini vujudga keltirish;
- o'quvchini ongli rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsata olish;
- o'quvchida o'zini har qanday vaziyatda tuta olish, qat'iyatlik motivlarini shakllantirish;
- o'quvchilarda shaxsiy axloqiy faoliyatni shakllantirish va uni umummadaniy madaniyat va qadriyatlar bilan uyg'unlashtira olish;
- umummadaniy rivojlanish, tarbiyalanganlikni kamol toptirish.

Dars yuqorida keltirilgan uch yagona maqsad oldindan rejalashtiriladi.

Ular quyidagilar:

- 1 - qiziqtirish
- 2 - tarbiyalash
- 3 - rivojlantirishdir.

1. Qiziqtirish.

- har bir o'quvchini mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- bilim olishning eng muhim talablarini egallash to'liqligini, puxta ongli tushungan xolda bilimlarni egallash;
- darsda aniq natijani bilib olishni shakllantirish;
- darsning ta'limiy maqsadlarini belgilashda bilim, ko'nikma, malakalarning qanday darajada o'zlashtirishini oldindan rejalashtirish zarur.

2. Rivojlantirish.

Darsning rivojlantiruvchi aspekti bir necha bloklardan tashkil topadi.

- nutqni o'stirish
- fikrni o'stirish
- sensorik o'sish
- harakatlantiruvchi sferasini rivojlantirish.

3. Darsning tarbiya toptiruvchi aspekti.

- Darsa o'rganiladigan materiallar o'qitish metodlari o'quvchilarning xohish-istak, ehtiyoj-qiziqishlarini e'tiborga olgan xolda o'quvchini axloqiy, estetik, ekologik jihatdan tarbiya toptirishga qaratiladi. Ularga Vatanga sadoqat va e'tiqod, o'z xalqiga muhabbat, mehnatni ulug'lash kabi umuminsoniy, madaniy va milliy qadriyatlar singdirib boriladi.

- Dars jarayonida uchraydigan turli hodisalar, atrof-muhit, hayotda uchraydigan voqealarga munosabat bildirib boriladi.

- Bolalar orasida hamkorlik, hamjihatlik, do'stona va samimiy munosabatlar shakllantirib boriladi.

Xulosa shuki, dars o'quv jarayonining bir etapi, bo'g'ini, elementi: Ma'no jihatdan tugallangan, tashkiliy hamda vaqt jihatdan cheklangan davr.

O'quv jarayoni - o'rganish, mashqlar bajarish orqali o'z faoliyatini bajara olish asosida yangi intilish, erishish.

Darsga qo'viladigan didaktik talablar.

- o'quv maqsadlarini aniq va ravon belgilash, dars bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ta'min etish;

- ta'lim mazmunini optimal aniqlash, uning o'quv dasturlari, standart me'yorlariga moslash, o'quvchilarni dars jarayoniga tayyorgarligi;

- bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, vositalarni tanlay olish, shu orqali o'quvchilarni xohish va qiziqishlarini singdirish, yakka-juft va jamoa tartibda ijodiy ishlash muhitini yaratish;

- dars jarayonida turli didaktik printsiplardan keng, o'rinli foydalanish;

- o'quvchining muvaffaqiyatli o'qishi uchun ijodiy muhit yaratish eng muhim omillardan biridir.

O'quvchi shaxsiga qaratilgan ayrim dars shakllari:

Sho'ng'ish (g'arq bo'lish) darsi—ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni o'quvchilar faolligida o'rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi — o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi — dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchilarning konsultatsiyalarini tashkil etish orqali dars mazmunini o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi — o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi — o'quvchilarning dars mavzu mazmunlarini o'zlashtirganliklarini (savol-javob, test, davra suhbat va b) turli shakllarda sinovlar tashkil etish.

SHubha bildirish darsi — yoki tanqidiy fikr dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar noto'g'ri deb hisoblasa, nimalar bo'lishi mumkin yoki qanday bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mazmunni tushuntirish darsi.

Ijodiy xisobotlar (taqdimot) darsi — o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil mutolaa orqali o'rgangan bilimlari va xulosalarini taqdimot etish.

Umumlashtirish darsi — ilgari o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlari (ayniqsa ayrim boblar, o'quv yili yakunida qaytarish davrida) ni o'tkazish darslari.

Haqiqatni izlash darslari — dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishini tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishlarini ta'minlash darslari.

Seminar darsi — yangi dars mavzusiga doir savollar bo'yicha o'quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to'g'risida ma'lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsni o'zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta'minlash darslari.

Ekskursiya darslari — o'quvchilar turli ob'ektlar: muzey, ziyoratgoh, kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari, ustaxona, tabiat, ilmiy muassasa, kasb-hunar kolleji, akademik litseylar va boshqalar bilan tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog'lash va kasbiy faoliyatga yo'naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi. Bunday tashkil etilgan darslarni ayrim pedagogik adabiyotlarda ochiq havo qo'ynidagi tashkil etilgan mashg'ulotlar deb nomlaydilar.

YUqoridagi bayon etilgan dars shakllaridan tashqari, didaktik o'yin texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan dars shakllari ham mavjud. Quyida shunday dars shakllariga to'xtalamiz:

Ishchanlik o'yin darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan mashqlar.

Rolli o'yin darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni o'zaro faollikda bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars — dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha emotsional, ta'sirchan, chuqur va aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi — tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'rganiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi — o'quv fani ayrim bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, tushuncha va malakalarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p o'zlashtirib, bilimini namoyish etish darsi.

YArmarka darsi — dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi — o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darslari.

O'yin darsi — dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi — o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini imitatsiya qilish orqali tashkil etilgan, yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi — dars mavzusini sahnalashtirilgan holdagi kontsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkonini berish darslari.

“Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi — dars mavzusini oldindan puxta o'zlashtirgan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlanib tushuntirish mashqlari bo'lib, o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Integral (integratsiyalashgan) dars — bir necha fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil etilgan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga ishtiyoq va qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi o'zaro faollikni orttiradi.

Bunday darslar o'quvchilarga fanlararo bog'liqligini o'rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to'liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo'jizalar maydoni” darsi — o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli ishchanlik o'yini bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

YUqorida biz zamonaviy dars shakllarini sanab o'tdik va ular qanday maqsadlarni ko'zda tutishiga to'xtaldik.

Endi yuqorida zikr etilgan darslar qanday tayyorlanadi va qanday tashkil etilishi haqida fikr yuritamiz.

Zamonaviy dars qanday tayyorlanadi va o'tkaziladi?

Dars o'quv jarayonining asosiy qismidir. O'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik faoliyati aksariyat darsda namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham o'qituvchi faoliyatining sifati darsga qay darajada tayyorgarlik ko'rganligiga bog'liq. Uning samarasi darsning mazmuni, o'tkazish metodlari va darsni qanday tashkil etish muhitiga bog'liq. Dars o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra puxta o'ylanib, o'quvchining ehtiyoji, xohish va qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quvchini jalb eta olish zarur.

Zamonaviy darsni tayyorlash va o'tkazish uchun nima ishlar qilinishi kerak?

Darsni shunday tayyorlash va o'tkazish kerakki u o'quvchiga faqat bilim, ko'nikmalar berib qolmay, uni erkin fikrlashi orqali uni ijodkorlikka, tanqidiy tahlil eta olishga undasin.

SHunday zamonaviy darslarni tahlil eta olishga undasin.

SHunday zamonaviy darslarni tayyorlash uchun o'qituvchilarga quyidagi metodik tavsiyalarni keltiramiz.

1. Darsga tayyorgarlik nimadan boshlanishi kerak?

- darsning mavzusini aniqlash va uni shakllantirish;

- o'quv jarayonida mavzuning o'rni va rolini belgilash;

- darsni olib borishdagi tayanch so'z, atamalarni aniqlab olish asosida darsning ketma-ket rivojini aniqlash.

2. Darsning ketma-ketligi nima uchun zarur?

Ketma-ketlik asosida darsdan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funktsiyalari izchillikda amalga oshiriladi.

3. O'quv materialini rejalashtirish.

Buning uchun:

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni to'plash, darslik, metodik qo'llanma, dastur, standart, entsiklopedik nashrlar, monografiya va boshqalar.

SHulardan eng qulay, sodda, yangi, aniq faktlarni olish orqali darsning mazmuni, matnini shakllantirish.

O'quv materiallarini tanlab olishda, uning maqsadi qilib;

- yangi material bilan tanishish;
- uni qaytarish;
- yangi materialni o'rganishda olingan bilimlardan foydalanish;
- olingan, o'rganilgan bilimlardan yangi vaziyatda foydalanish;
- mavzu materialini soddadan murakkabga printsipli asosida tartibga

keltirish;

- o'quvchining yodida qolishi zarur bo'lgan topshiriqlarni tanlash;
- o'quvchiga ongli ravishda o'zlashtirishi zarur bo'lgan topshiriqlar

berish;

- olingan bilimlarini mustahkamlovchi topshiriqlar tayyorlash;

4. Darsning "eng dolzarb" tomonlarini o'ylash:

YA'ni, har bir dars o'quvchini hayajon, hayratga solgan holda yodida qolsin. Bu o'rinda qiziqarli fakt, voqea, kutilmagan topilma, chiroyli tajriba nostandart yondoshuvlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

5. To'plangan o'quv materiallarini tartibga tushirish.

To'plangan materiallarning ketma-ketligi oldindan rejalashtirib olinadi. Bunda o'quvchining qiziqish, xohishini orttirish, o'quv materialini o'zlashtirishda befarqlik, sustkashlikka yo'l qo'ymaslikni nazarda tutiladi.

6. Darsda o'quvchi faoliyatini nazorat etishni rejalashtirish.

Buning uchun:

- nimani nazoratga olish kerak;
- nazoratni qanday tashkil etish kerak;
- nazorat natijalardan qanday foydalanish kerak.

Dars nazoratini olib borishda tartib, ketma-ketlik va tezkorlikka rioya qilish maqsadga muvofiq.

7. Darsni jihozlash.

Dars uchun zaruriy jihoz, o'quv ko'rgazmadi qurollar, texnika vositalari, asbob-uskunalar, didaktik va tarqatma materiallar, o'quvchining ko'rishi,. O'qishi va o'rganishiga qulay bo'lishi kerak.

8. Uyga vazifa o'ylab, o'quvchiga qulay xolda berilishi kerak. Uning vaqti, hajmi me'yorida bo'lmog'i lozim. Ayrim holda uy vazifalarini bajarishda nimalarga e'tibor berilishi kerakligini o'quvchilarga tushuntirish kerak.

9. Tayyorgangan dars konspekt ko'rinishida shakllantiriladi.

Konspekt nimalarni o'z ichiga olishi kerak?

Konspekt uch qismdan iborat bo'ladi;

- rasmiy qism;
- mazmuniy qism;
- didaktik qism;

Rasmiy qismda;

Dars №.

Mavzu:

Maqsad:

Vazifalari:

- ta'limiy;

- rivojlantiruvchi;
- tarbiyalovchi.

Darsning ketma-ketlik etaplari; darsning mazmuniy qismi — ikki qismdan iborat;

1. Topshiriqlar, matnlar, yangi o'quv material, masala, mashqlar echish, uy vazifasi bo'yicha topshiriqlar.
2. Darsning qaysi etapida o'qituvchi va o'quvchi nima ish bajaradi.

Dars va motivatsiya.

“Motiv” – grekcha so'z bo'lib “Movere”- siljitish, xarakatga keltirish, ehtiyojga yo'naltirish ma'nosini bildiradi. Motivatsiya inson faoliyatida jarayoniga, faoliyatga, mazmun qiziqish, xoxish, istak bilan qarashdan boshlanadi.

Motivatsiya shaxsning faollashuviga sabab bo'luvchi, motiv, ehtiyoj, intilish, xoxish, sitimul, vaziyatli faktorlar bo'lib, insonni bilish uchun olg'a xarakatlantiruvchi ichki kuchdir. Motivlar biror narsa, hodisaga qiziqtirib hohish orqali intilishdir. Maqsadga erishishda, duch kelgan to'siq, o'ta qiyinchilik, qattiq turib talab qilib olish, tashqi va ichki muhitlar unga teskari ta'sir ko'rsatish mumkin. SHunday vaziyatda motiv shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirishga intilish orqali harakatga keladi. Qiziqish, intilish istakni qondirish orqali amalga oshiriladi.

SHu sababli ham dars jarayonida va pedagogik ijodiy jarayonda motivatsiya xarakatlantiruvchi kuch sifatida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi va o'quvchi-talaba dars jarayonida o'zaro intilish, hamkorilik, hamijodkorlik, hamdard bo'lishiga undaydi, katta ishtiyoq bilan qiziqib o'qish va o'rganish sabab bo'ladi. Dars jarayonida o'qituvchining yaratayotgan his-tuyg'u, hoxish, istak, bilim olishiga intilish, ixtiyoriy ravishda ish yuritish natijasida o'quv-biluvga bo'lgan qiziqish tobora ortib boradi. O'quvchi-talaba bilim faoliyatini tashkil etish uchun eng optimal sharoit ayniqsa o'qituvchining emotsional holatida kechgan nutqi, qiziqarli o'yinlar orqali o'quv jarayonini tashkil etish, munozora, davra suhbatlari, refleksion mashg'ulotlar o'tkazish vaqtida vujudga keladi va yorqin namoyon bo'ladi.

O'quv jarayonida motivatsiya hosil qilish orqali yaxshi natijalarga erishish, mustaqil ravishda qiyinchiliklarni engib o'tish va bunday xolatarda o'quvchi-talaba qo'llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi. Ko'pgina bunday xolatlarda o'quvchining o'z-o'ziga ishonch, hissi, voqea va hodisalarni bilishiga intilishlari ortadi. Bu esa uni yanada ko'proq narsalarni bilib olishga yo'l ochadi. SHuning uchun motiv va motivatsiyalarning nazariy, amaliy tomonlarini o'rganish, tajriba-sinovlar, kuzatuvlar o'tkazish o'quvchi-talaba qiziqi orqali bilimiga intilishga sabab bo'ladi va shu asosida ta'lim jarayoni sifatli va samarali kechmishni ta'minlaydi.

O'quv jarayonini olib borishda motivlar birqator bosqichlarda kechadi:

1. Keng qamrovli motivlar-ya'ni bilimlarni bilib olish, faktlar, hodisa va qonunlarni bilishga yo'naltirganlik.
2. O'quv-biluv motivlari-bilimlarni o'rganib olish usullariga tayanish, bilimni mustaqil ravishda o'zlashtirib olishga yo'nalganlik.

3. Mustaqil o'z-o'zini o'qitish motivlar-qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashtirishga, tarbiya toptirishga qaratilganlik.

4. Keng qamrovli ijtimoiy motivlar-ma'suliyat va burchni xis qilishga yo'naltirilgan va olayotgan bilimlarning ijtimoiy muhimligini xis eta bilish.

5. Ijtimoiy xamkorlik motiv-bir biriga munosabatga asoslangan va bir-birini tushunish orqali hamijodkorlikka asoslangan motivlar.

O'quv jarayonidan tashqarida kechadigan motivlar.

Sotsial motivlar:

1. Jamiyat, guruh, sinfdoshlar, ta'lim beruvchilar, oila va boshqalar javobgarlik motivlari.
2. O'z o'rnini, mavqeini belgilab olish va o'z-o'zini kamolotga etkazish motivlari.

SHaxsiy motivlar:

1. Maqtov yaxshi bahoga intilish motivlari muvofaqiyatga intilish motivlari yoki chala-yarim motivlar.

2. Peshqadam bo'lish, atrofdagilar orasida maqtovga sazovor o'rinni egallashga intilish motivlari-obro' e'tiborli bo'lishga intilish motivlari (tashqi motivlar)

Salbiy motivlar (mohiyatan tashqi motivlar) atrofdagilar, hamkasblar, oila tomonidan ko'rsatiladigan ko'nglisizliklar o'zini olib qochishga, chetlashishga intilish motivlari ko'nglisizliklardan o'zini saqlash motivlari.

- Sinfdan yoki guruhda o'quvchi-talaba o'quv jarayonini hamkor, hamijodkorlikda kechishiga uni faol ishtirokini ta'minlaydi;
- O'qituvchi o'quvchi-talaba munosabatlari samimiy, do'stona shakilda kechadi va ularning o'zaro maslahatlashgan holda ish ko'rishga olib keladi;
- O'quv materiallari qiziqroq, ta'sirchan, muammoli vaziyatlar asosida kechish o'quvchi-talaba qiziqishni ta'min etadi.
- Dars jarayonida ularni shaxsiy ishtirokini ta'min etuvchi didaktik o'yinlar, munoraza, mushoyra davra suhbatlari o'tkazish;
- Hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlar hosil qilish, ularni echimni izlash, tahlil qilish;
- O'quvchi-talaba mustaqil fikirlash ichki imkoniyatni ishga solish, o'z-o'zini rivojlantirish, nazorat etish;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ehtiyojlarning qondirishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatiga undovchi va uning yo'nalishini belgilovchi sabablar motivlar deb ataladi.

Maktabda akademik litsey, kasb-xunar kollejlarda metodik ishlarni maqsadlari mazmun, vazifalari bilan tanishish va o'rganish.

Magistrant ilmiy-pedagogik dastur talabiga ko'ra maktabda, akademik litseyda kasb-xunar kollejlarda etilishi mazmun. Maqsad va vazifalarini o'rganadi, o'zlashtiradi, va kelgusi pedagogik faoliyatida foydalanadi.

- O'qituvchilarning ijodiy ishlarini qanday yo'lga quyganligini, kasbiy va metodik ishlarini tizimni o'rganadi;
- O'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyat olib borish uchun yaratilgan muhit bilan tanishish;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kolleji sharoitida mustqil dastur asosida malaka oshirish, ustoz-shogird doimiy xarakatdagi maqsadli seminarlar, treninglar, yosh o'qituvchilar maktabi, mualliflik ilg'or o'qituvchi, metodik o'quv mahorat ishlarini tashkil etilishi, reja, dastur, mazmunini o'rganib konspekt olib yozib boradilar;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollejlarida mavjud bo'lgan metodik me'yoriy xujjatlar, ishlanma, ilg'or tajribalar ishini yaqindan o'rganadilar;
- Ayniqsa, ta'lim muassasalarida tashkil etilgan metodik ishlar samaradorligiga alohida e'tibor qaratadilar;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollej o'qituvchilari orasida raqobatbardoshlik qanday qo'yilganligini katta ahamiyat beradilar;

Metodik ishlarning vazifalari.

- O'qituvchilarning pedagogik yangiliklarni tezkorlik bilan o'rganishga kirishish;
- Pedagogik nazariya va amaliyot innovatsiyalar bilan tanishib borish, yangi pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim jarayonida algoritim, loyhalash usullarini qo'llash bilan yaqindan tanishish;
- O'qituvchilarni pedagogik faoliyatlarini ularni roziligi bilan tanishish, tahlil etish kundalik muammo va kamchiliklar bilan tanishib borish;
- Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ilmiy yondshuv, izlanishlar, tadqiqot, tajriba-sinov ishlarini borishni kuzatish;
- Ilg'or innovatsion tajribalarni izlash, umumlashtirish, saqlash, tarqatish, pedagogik faoliyatda, qo'llash ishlarini o'rganish, o'zlashtirish;

Metodik ishlarning mazmunini o'rganish, tahlil etish.

- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollejlarida metodik xizmat qanday yo'lga qo'yilganligini bilan yaqindan tanishish;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollej o'qituvchilarining malaka oshirish tizmi qanday yo'lga qo'yilganligi, malaka oshirishga beriladigan buyurtmalarni shakillantirish mexanizmi bilan tanishish;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollejida axborotni olish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish, interniet veb sayitlari ishlari bilan yaqindan tanishish;
- O'quv ishlarini tashkil etilishi, ichki nazorat, o'quv sifatiini tahlil etish, tuzatish uchun qo'llanilgan tadbirlar, rejalar bilan tanishish;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kollejida tajriba-sinov ishlarini yo'lga tizimini o'rganish;

- O'qituvchilar uchun yaratilgan metodik qo'llanma, instruktiv material, tavsiyalar bilan tanishish;
- Maktabda, akademik litsey, kasb-xunar kolleji DTS talablari ijrosini ta'minlash, o'qitishni sifat samaradorligi tizimini o'rganishdan iborat.

Ma'naviy-tarbiyaviy ishlarining metodlari.

Tarbiyada maqsadlarga erishishning asosiy yo'nalishlari o'quvchi-talaba o'zaro munosabatlari va ta'sirlari, shaxsiy namunalari asosida kechadi.

1. O'quvchi-talabalar shaxsini ongli tushinishni ishlantirish orqali shakllantirish-hikoya, ertak, rivoyatlar, suhbatlar, ma'ruzalar, tarbiyaga oid turli vaziyatlarni keltirish orqali amalga oshirishi;
2. O'quvchi-talabalarning hayot-turmush tarzi, o'zlarini tutishlari bilan tashkil etiladigan metodlar. Bu ko'pincha o'quvchi-talabaga turli-tuman topshiriqlar berish, mashqlar bajarish, o'z-o'zini tarbiyalovchi turli vaziyatlarni engib o'tish topshiriqlarini bajarish orqali kechadi.
3. O'quvchi-talabalar faoliyatlarini tashkil etishda rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanish metodlari. Ularga turli talablar qo'yish, musobaqalar tashkil etish, shular asosida rag'batlantirish, ma'suliyatni yuklash natijasini olish orqali tarbiyalash.
4. O'z-o'zini tarbiya toptirishni anglash, o'z faoliyatini isloh qilish, o'zini-o'zi boshqarish, o'z-o'zini ishontrish, o'z shaxsiga buyruq beraolish, o'z ijodini taqdimot qilish, o'z-o'zini faoliyatini ma'qullash, o'zini tanqid ostiga olaolish, o'z ijobiy ishlarini boshqalar oldida namoiysh etish.
5. Ta'lim tarbiyaviy ishlarni olib borishda, o'quvchi-talaba yoshiga, shaxsiga individual yondoshuvni amalga oshirish.

Tarbiyaviy ishni tashkil etish.

-O'quvchi-talabaning individual o'ziga xos temperamentini, doimiy o'rganib borish va yaxshi bilish, uning xarakteri, dunyoqarashlari, didini, odatlarini tushunishi, shunga yarasha tarbiyani olib borishi.

- O'quvchi-talabaning shaxsiy rivojlanishni, real fikr yuritish doirasini, darajasini, qiziqishi, istak-xohishlarini, hayotga munosabatini, mehnat qobiliyati, hayotiy rejlarini diagnostik tahlillar asosida ish yuritishi zarur.

- Har bir tarbiyalanuvchining uning imkoniyati darajasida, murakkabligini hisobga olgan holda uni yanada olg'a boshlovchi ishlar bilan shug'ullanishini tashkil etish kerak.

- Iloji boricha o'quvchi-talaba olib borilayotgan tarbiyaviy ish, uning shaxsiy faoliyatiga hoxish-istagiga mos tushushishini ta'minlash talab etiladi.

- Tarbiyaviy ishlarni shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalashga suyaanish, maqsad, metod, shakllarni tanlab olishga yordam berish maqsadga muvofiq..

- Tarbiyalanuvchining mustaqilligini, erkinligini, tashabbusini qo'lab-quvvatlashi, faoliyatini ijobiy kechishiga yordam berish yaxshi natijalar beradi.

Umuman, tarbiyalanuvchilar bilan qilingan suhbatlar. SHaxsiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi-talaba ijobiy ko'nikma, malakalarni shakllanishi ancha oson kechadi. Ular mehnatga, intizomga, jamot joylarida o'zini tutishni tez o'zlashtiradilar va unga itoat qiladilar. Keyinchalik bu ishlarni yuqori sinflar yoki guruhlarda amlaga oshirish ancha qiyin kechadi. Chunki yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kurs guruhlarida har-bir masalani mustaqil o'ylash va echishga xarakat qiladilar. Chunki o'quvchi-talaba qabul qilish, fikr, xotirasida, nutqida, harakterida temperamentida, xulqida o'zgarishlar sodir bo'lish davri boshlanadi.

Tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning printsiplari.

1. Tarbiyada sotsial faollik printsipti.

Bu jarayon mustaqil fikr yuritish, mustaqil qaror qilaolish, tashqi zo'ravonlikka, turli bo'xton yoki aldovlarga qarshi turaolish o'z fikr va pozitsiyasini ximoya qilish va qa'tiy turaolishi kechadi.

2. Ijtimoiy ijodkorlik printsipti.

O'zining erkin ijodkorligiga ishonch bilan qarash; o'z erki va vijdoniga quloq solish; o'zidan tashqari kuch ta'siridan holi ish tutabilish; o'z faoliyatidan ijodkorlik, bunyodkorlik namunalarini ko'rsatolish, qobiliyatlari shakllanishi.

3. SHaxs va jamoaning munosabatlari printsipti.

O'quvchi-talaba jamosi boshqa o'quvchi-talabalarga o'z ta'sirini o'tkaza olishi o'qituvchi o'quvchi-talaba munosabatlarini shakllanishi, o'quvchi-talaba o'z jamosida o'zining va o'zgalar fikrni hurmat qilish shakllanadi.

4. Rivojlantiruvchi tarbiya printsipti.

Ta'lim olish jarayonida turli o'quv predmetlarini o'rganish orqali ham tarbiya topadi. Ota-ona, o'qituvchi. O'quvchi-talaba ko'rik tanlovlar, ko'rgazmalar, sport anjomlari, mehnat fahriylari, ilg'or fermer-tadbirkorlar, Davlat mukofoti sovrindorlarining uchirashuvlari, maslahatlari, tavsiyalar berishlari ta'sirida ham mustaqil fikr yuritish orqali tarbiya topishlari sodir bo'ladi.

5. Tarbiya ishlarini olib borida motivatsiya printsipti.

Xar qanday olib borilayotgan tarbiyaviy soatlar, ishlar o'quvchi-talaba larning qiziqishi, xohish, istaklariga mos ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, ularni kelgusi rejalariga, orzu-xavas niyatlariga mos tushishi kutilgan natijalarga olib keladi.

6. Tarbiyaviy ishlarni muammoli ravishda tashkil etish printsipti.

Biror muammoni o'rta tashlab uni echimini topish orqali tarbiyaviy ishni tashkil etish.

Masalan; -Men kim bo'lsam ekan ?

- Mening orzularim.
- Vatanim mustaqilligi uchun men nima qildim?
- Men vatan himoyachisi bo'lmoqchiman va boshqa mavzularni o'quvchi-talaba kelgusi hayotiy faoliyati bilan bog'lansa ayni muddao bo'ladi.

7. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda yagona printsipti.

Ta'lim-tarbiya jarayoni faqatgina ta'lim muassaslarida emas, u formal, nofarmol, tashkilotlarda mahalla, oila, jamoatchilik, joylarida olib borilishi unga tizimli yondoshuvni talab etadi. Agar ta'lim muassaslarida mahalla, maktab, oila kontseptsiyasi asosida tarbiyaviy ishlar olib borilsa uni ta'sirchanligi oshadi. Tarbiyada hamkorlik ham ijodkorlik qilib, ish yuritilsa maqsadga erishiladi. O'quvchi-talaba hayotida o'z o'rnini topadi. Tarbiyalash bu o'quvchi-talaba hayotini tashkil etish. Kelgusida o'z o'rnini, yashash, ishlashga o'rgatish demakdir. To'g'ri tashkil etilgan tarbiya yoshlarmizni yangicha yashash tarzini, oila oldidagi burchini, ma'suliyatini oshiradi. Endi o'z-o'zidan savol tug'iladi. O'quvchi-talabalarni tarbiya topganliklarni aniqlovchi mezon o'lchovlari mavjudmi?

Bular:

- Ular tarbiya topganliklarini;
- O'quvchini o'quv-biluv jarayoniga munosabatida;
- Mexnatga bo'lgan munosabatda;
- Atrof muhit, tabiat, ekologiyaga munosabatda;
- Jamiyatga (unda o'zini tutish) munosabatida;
- Odamlarga kundalik munosabatida;
- O'z-o'ziga munosabatda namoyon bo'ladi;

Xulosa shuki, tarbiyaning pirovard maqsadi-o'z mehnat natijasini ko'rishdir.

O'quvchilarni kasb-tanlashga yo'naltirish

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida" gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga tatbiq eta borib, 12-yillik umumiy majburiy ta'limga o'tish 9-sinf bitiruvchilarni kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarga to'la qamrab olish ishlari bosqichma-bosqich olib borilmoqda.

Bu esa o'quvchilarni, qo'yi siniflardan kasbga yo'naltirish, qiziqtirish ishlarni tizimli ravishda olib borishni taqozo etmoqda.

O'quvchilarni kasb tanlash ishlari xar bir o'quvchining individual sifatleri, qiziqishlari, uning qobiliyat va moyilliklari, mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, shuningdek san'ati. qishloq xo'jaligi agrofermer, fermerlar kichik korxonalari va boshqa xalq xo'jaligi sohalarining istiqboldagi rivojlanishlarish hisobga olgandagina samarali kechadi.

O'quvchi yoshlarni kasb egallash, jismoniy mehnat bilan shug'ullanish, ularga umr bo'yi bozor iqtisodi sharoitida yashash va ishlashga tayyor bo'lishlari uchun zamin bo'lishni uqtirib borish zarur. O'quvchilarning kasbga qiziqishini orttirish, mehnat-rohat keltirishini muntazam ravishda o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayonida tushuntirib borish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchining qobiliyati, qiziqishini, moylligini uning o'qituvchidan boshqa xech kim yaxshi bilmaydi. SHu munosabat bilan o'quvchilardagi qobiliyatlarni rivojlanishini, ro'yobga chiqarishda uning o'quvishga va jismoniy mehnatga mehr bilan qarashni barcha choralarini tizimli, qadamma-qadam oshirib borishga e'tibor berishi kerak.

SHuni yodda saqlash kerakki, kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlarning samarali bu sohadagi muvaffaqiyati olib boriladigan ishlarning ko'lami va metodlarining kompleks amalga oshirilishiga bog'likdir.

YA`ni sinfda olib boriladigan turli fanlarga oid dars, kasbga oid ma`lumotlar, kasbga oid konsultatsiyalar, kasblar xaqida axborotlarni sistemali olib borilishiga bog`lik.

Albatta bu sohada mahalla, ota-ona, maktab xamkorligi, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlarining ishtiroki beqiyosdir.

SHu sababli bolalarda boshlang`ich sinflardan oq kasb xaqida ma`lumotlar berish, ayrim ko`nikmalarni shakllantirish uchun e`tibor qaratilgai. Avvalo kasbga yo`naltirish boshlang`ich sinflardan boshlanadi. SHu munosabat bilan boshlang`ich sinflarda mehnat darslari dasturlari yaratilib, maktablarda tajriba-sinovlar olib borilmokda. Hozirgi kunda mehnat ta`limi bo`yicha modernizatsiya qilingan dasturlar, takomillashtirilgan standartlar asosida ta`lim-tarbiyaviy ishlar olib borilmoqda.

Boshlang`ich sinflarning 1-sinfidan kasb xaqida dastlabki ma`lumotlar berishga kirishilgan.

1- 4 sinflarda kasb alifbosi, mehnat alifbosi, mehnat darslarida rasm va eskiz asoslari. Mehnat ta`limida dizayn asoslari, mehnat darslarida naqqoshlik asoslari. Mehnat darslarida texnologiya asoslari umumiy texnika asoslari, mehnat va kasbga tayyorgarlik bo`yicha amaliy mashg`ulotlar kabi mavzularni kamrab olgan dastur, darsliklar yaratilib ta`lim-tarbiya ishlari olib borish yo`lga qo`yish.

Metalga, yog`ochga ishlov berish jarayonida ko`llanadigan asbob-uskunalar, stanok va moslamalar va boshqa texnika vositalaridan foydalanishda rioya egaladigan texnika xavfsizligi, sanitariya-gigiena, yong`iiga qarshi kurash, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini va boshqa rasmiy xujjatlarni o`rganish;

Pazandachilik, uy-ro`zg`or, gazlamaga ishlov berish, maishiy xizmat sohasida qo`llaniladigan asbob uskunalar, mashina va boshqa texnika vositalaridan foydalanish;

Qishloq xo`jaligi va fermer xo`jaliklarida, kichik korxonalar. firmalarda mehnat jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalar kichik texnika mexanizmalari va texnika xavfsizligi, sanitariya-gigiena mehnatni muhofaza qilishga oid qoidalarini, hamda shu yo`sindagi rasmiy xujjatlarni bilish;

O`quvchilar mehnatini, ularni "ota-kasb" va "usta-shogird" xalq xunarmandchiligi. "kasanachilik" tizimida faoliyat ko`rsatishga o`rgatishni;

Mehnat ta`limini tashkil etishda ilg`or texnologiya, innovatsiya. interfaol darslarini tashkil etishni ishning moddiy, ma`naviy madaniyatiga e`tibor berishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O`quvchilarni kasb-tanlashga yo`naltirish.

1. Darslarda kasb tanlashga yo`llash;
2. Darsdan tashqari vaqtlarda kasb tanlashga yo`llash;
3. Kasbga doir axborotlar to`plash ishlari;

Ta`lim jarayonida mehnat va o`quv predmetlarini o`rganish jarayonida turli xil kasblar bilan tanishtirish bo`yicha ish olib borish o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llashning muhim sharti xisoblanadi.

O`quvchilarni xar bir mahalla, tuman, shahar atrofida joylashgan kichik korxonalar, biznes markazlar, maishiy xizmat shaxobchalari, agorofirmalar. fermer xo`jaliklari bilan tanishtirib borishi ularni turli kasblar bilan tanishib borishi ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish imkonini beradi.

Undan tashqari mehnat ta'limining dasturi, mazmuni o'quvchilarda xar kanday kasbni egallash uchun bab-barovar bo'lgan umumiy mehnat bilim va ko'nikmalarini shakillanishga olib keladi.

SHuning uchun maktab ustaxonalarida mehnat ta'limining to'g'ri yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning kasb tanlashi ayniqsa to'quvchilik, pazandachilik, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash, ta'mirlash, asbobsozlik, payvandchilik, yog'och ustasi. naqqoshlik kabi kasblar xaqida tushuntirish ishlari olib borib. amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ularda kasb ko'nikmalarini tanlanishiga yaqindan yordam beradi.

Maktablarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarda kasbga bo'lgai qiziqishini aniqlash va o'stirish bo'lmog'i kerak.

O'quvchilarning kasbga qiziqishni aniqlash uchun anketalar olish, individual suhbatlar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari asosida to'garaklarga ishtiroki, qiziqish kartalarini yuritish ham yaxshi natijalarga olib keladi.

Olingan ma'lumotlar o'quvchi kasbni to'g'ri tanlay bilishi uning havasi va qobiliyatiga mos kelishi, nima sababdan mazkur kasbni tanlagaiini aniqlashga imkon beradi. Bu sohada ota-onalar, sinf rahbari, o'qituvchilarning fikri qanday ekanligini aniqlash muhim.

Ular bilan arap anketalar xar yili o'tkazilib, uning dinamikasi tahlil qilinib, u bilan kasbga oid suhbatlar olib borish orqali korrektivalar kiritib boriladi. Qishloq maktab o'quvchilarida kasbga kiziktirishni tarkib toptirish uchun mehnat ta'limining maktab oldi tajriba uchastkasida yosh naturalistlar, gulchilar, yosh tabiatshunoslar kabi to'taraklaridan foydalanish mumkin. O'quvchilarning turg'un bir kasbni egallashida mehnat darslarini yaxshi yo'lga qo'yilishi, innovatsion va ilg'or texnologiyalar asosida ishni tashkil etaolishga bog'lik, pirovard natijaga erishish o'quvchining shaxsan o'ziga, uning intizomlilikiga, tirishkoqliligiga, ishni o'ylab aniq maqsadni belgilab olishi va uning jiddiy yondoshishiga bog'likdir.

Maktabdan tashqari vaqtlarda kasbga yo'llash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarni hayotga, kasb-xunarga tayyorlash tizimli quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirishi kutilgan natija berishi mumkin.

1. Maktabdan tashqari ta'limning shakl va mazmuni respublikamiz iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishiga zarur bo'lgan kasb-xunarlariga bo'lgan extiyojiga moslashtirish.
2. Maktabdan tashqari ta'lim va tarbiyani o'quvchilarning kasbiy intilishi, xohishi, qiziqishi, xarakatchanligi, mehnat va kasb-xunar bozorida ijtimoiy ximoyalantirish muammolariga yo'naltirish.
3. O'quvchilarni shu kungacha maktabdan tashqari amaliyotiga kiritmagan, qo'llanilmagan yangi (innovatsion) texnologiyalariga o'rgatishni ta'minlash.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida 9-sinfni bitiruvchi o'quvchilarini mehnat va kasb-xunarga to'la kamrab olishga tayyorlash va iqtisodiy ta'limning uzviyligini taminlashning tashkiliy-pedagogik asoslarini bevosita mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirish. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining mashg'ulotlari jarayoniga xalq xunarmadchiligi yo'nalishlarini tashkil etish orqali xalqimizning milliy ma'naviyatini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini tajribasini o'rganish va ularni amaliy faoliyatda qo'llash.

YOshlarning ko'shimcha bilimlar va malakalar egallashga bo'lgan qiziqishlari va xohishlarini qondirish. O'quvchilar shaxsining rivojlanishida ularning mustaqil xunar sirlarini egallashlariga va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratib berish.

O'quvchilarning qiziqishlarini o'rganib, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli studiyalar, klublar, seksiyalar, laboratoriyalar va usta-shogirdlik ishlarini tashkil etish.

O'quvchilarning iqtidorlarini aniqlash va namoyon etish maqsadida ommaviy tadbirlar, musobaqalar va ko'rik tanlovlar o'tkazish orqali ularni boy merosimizga xurmat, ona Vatanga sadoqat va uning ramzlariga xurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

SHu maqsadda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida duradgorlik, yog'och uymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik, zargarlik, zardo'stlik. maxsi-etikdo'zlik, do'ppido'zlik. kashtachilik, pichoqchilik, savat bo'yrachilik, ganjkorlik, sartaroshlik, xaykaltaroshlik, mebelsozlik, gilamdo'zlik. gazmol to'qichi kabi amaliy san'at bo'yicha klub, to'garak. studiya va usta-shogird maktablari tashkil etish orqali kasbga yo'llash zarur. Undan tashqari "YAshil nazoratchilar" "YOsh vatan posbonlari". "Uy-ro'zg'or buyumlarini yasash", "YOsh tokor", "Kontsert dasturchisi", "Elektron avtomatika", "YOsh sayyoh", "YOsh o'lkashunos". "YOsh yurist", "YOsh biznesmen", "YOsh tarixshunos" va boshqa ko'plab to'garaklarni o'quvchilarning xohishlariga ko'ra tashkil etish kelgusida kim bo'lsam ekan, savoliga javob berishini ta'minlaydi.

Kasbga doir axborotlar to'plash

Kasbga doir axborotlar avvalo o'z mahallasi, tumanida, shaharida mavjud bo'lgan kasb-xunar kollejlari, akademik litseylarda tayyorlanadigan ishchi kasblarni turlari xaqida. shahar, viloyat, tuman bo'yicha istikbolda turli kasb egalariga ehtiyojlar axboroti to'planadi. Va ular kompyuter xotirasida, maktablarda tashkil etilgan kasbga yo'llash xonalarida maxsus kartochkalar tashkil etilib saqlanadi.

Maktabda kasbga doir konsultatsiyalar tashkil qilishda, xatosiz kasb tanlashda yoshlarga yordam berish, ular uchun zaruriy sharoitlar yaratishni talab etadi.

Birinchi boskichda (kasb to'g'risida tushuntirish jarayonida, kasbga tanlashga tayyorlash davrida) kasbga doir konsultatsiya ishtiyoq va qobiliyatning rivojlanishi bo'yicha yo'naltirilgan ishlarni tanlashda o'quvchilarga yordam berishga. shaxsiy xususiyatlarini o'rganish asosida kasbga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ikkinchi boskich. O'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishi, kasbga qiziqishi va qobiliyati, mazkur kasbga qanchalik tayyorligi sifati, darajasi, sog'ligi xaqidagi omillarni xisobga olgan holda professional tayyorgarlik ko'rish yo'li aniq kasb tanlash bilan bog'lik.

Uchiichi bosqichda. Kasb tanlashlarga aniqlik kiritish hamda o'quvchilarning kasb tanlashdagi xatolarini tuzatishdan iborat aniqllovchi konsultatsiya amalga oshiriladi.

SHuning uchun xam kasb tanlaganda shaxsiy moyl va qiziqishlardan tashqari, organizmning funktsional imkoniyati, xususan, sog'liqning ahvoli, jismoniy rivojlanganlik, asab sistemasi va yurak-qon sistemasi, kuch va qobiliyati, eshitish, ko'rish va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqish lozim bo'ladi. YUqoridagi tizim asosida o'quvchilarni kasb tanlash, ularni kasbni to'g'ri tanlashiga, kequsida uni samarali kechishini kafolatlaydi.

O'quvchi-talaba shaxsiga do'stona munosabatda ta'lim muassasasining asosiy qoidalari.

O'quvchi-talaba shaxsiga do'stona munosabatida ta'lim muassasasi o'quvchi-talabaning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq barcha imkoniyatlarini to'liq rivojlantirib borish uchun eng qulay sharoitlar yaratadi. Darsda do'stona muhitni tashkil etish o'quvchi-talabani o'quv mehnatiga harkatlantiruvchi kuch bo'lib, xizmat qiladi. O'quvchi-talabalar xuquqlarini kafolatlaydi va bola shaxsining sog'lom bo'lishi, uning har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolotiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talaba do'stona munosabatini ta'minlash o'ziga xos sohalarga, shakillarga, vositalarga, usullarga shartlarga ega bo'lib, ular quyidagilar:

- O'zaro muloqot, intizom, tashkiliy-pedagogik ishlar ta'lim-tarbiya jarayoni sohalari;
- O'quvchi-talabalarga xurmat, samimiylik, ularga zarur erkinliklar berish va nazorat o'rganish shakllari;
- Motivlar, maqsadlar aniqligi qiziqishlar, tashabbuslariga xayrixohlik, qulay sharoitlar yaratish vositalari;
- Ta'lim-tarbiya jarayonining ko'zda tutilgan maqsadlariga erishishda o'quvchi-talabalar bilan hamkorlik, hamfikirlik, hamijodkorilik va shu asoslardagi qa'tiy intizomni yo'lga qo'yish usullari;
- O'zaro ishonch, hurmat, talabchanlik, adolatlilik hamda qulay sharoitlarni saqlash, nazorat olib borish shartlari va shu kabilardan iborat bo'lib, quyida ularning ayrim sharxlarini keltiramiz;

O'quvchi-talaba shaxsiga do'stona munosabatdagi ta'lim muassaslarida dasturi dastlab 1997-yil Tailannda joriy qilingandan boshlab rivojlanib kelmoqda. U boshidan boshlab sinflar va maktab ma'muriyati darajasida "Bola xuquqlari to'g'risida"gi Konventsiyani amalga joriy qilish vositasi sifatida qabul qilingan edi. Hozirda o'quvchi-talaba munosabatidagi maktab belgilari qa'tiy o'rnatilgan va ular quyidagi 5 ta shartni o'z ichiga oladi;

1. Barcha, ayniqsa o'z millati, madaniyati, tili ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va qobiliyatlari bilan ajralib turadigan o'quvchi-talabalarga o'quv jaorayonida ishtirok etish imkoniyatlarini ko'rsatib beradigan xamda amalda shu imkoniyatlarni beradigan faol inklyuzivlikni ta'minlash.
2. O'quvchi-talabaning xayotiy extiyojlariga mos va akademik samarali bilim va ko'nikmalar berish.

3. O'quvchi-talaba emotsional, psixologik va jismoniy qulaylikni ta'minlaydigan sog'lom havfsiz va shaxsni ximoyalovchi muhit yaratish.
4. Muhitni yaratishda jinslar orasidagi farqni (gendr sezuvchanlikni) va o'quvchi-talabalar teng rivojlanishi uchun imkoniyatlarni hisobga olish.
5. Ta'lim muassasining siyosati boshqaruvi va o'quvchi-talabalarni qo'llab quvvatlashning hamma jihatlariga o'quvchi-talabalar, oila va jamotchilikni faol jalb etish va ularning ishtiroki etishlari uchun imkoniyatlar yaratish.

Ushbu shartlarning amaldagi tatbiqini quyidagi mezonlar bilan belgilash mumkin;

1. O'quvchi-talabalarni do'stona, rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash:

-Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarga nisbatan do'stona munosabat bo'lishga shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchi-talabalar guruxiga yangi kelganlariga mehmondo'st munosabatida bo'lish va yordam ko'rsatishga undaladi;

- ta'lim muassasalarida ishlovchilar uni yaxshi ishxona deb xisoblaydilar;

Ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalarni bir-biriga g'amxo'r bo'lishiga chaqiradilar;

-o'qituvchi qiyin ahvolda qolgan o'quvchi-talabalarni qo'llab-quvvatlaydilar;

-o'quvchi-talabalarining ta'lim muassasida o'z ishongan odamlari bor va ular muamolar tug'ilganda yoki yakka tartibdagi maslahatlar kerak bo'lganda, unga murojat qilishlari mumkinligini biladilar;

-ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarining yutuqlari ommaviy e'lon qilanadigan va qo'llab-quvvatlanadigan tadbirlar munazam o'tkazib boriladi;

-o'quvchi-talabaning ishlariga nisbatan ikki tomonlama aloqani ularning yutuqlari to'g'risida ijobiy sharxlar va yanada bo'yicha takliflar bilan olib boriladi;

-o'qituvchilar zarurat bo'lgan xollarda jamoning boshqa a'zolaridan yordam olishlariga, ularining qo'llab-quvvatlashlariga, ishonadilar;

-xodimlar ta'lim muassasalarining rivojlanishi jarayoniga daxldor ekanliklarni qat'iy his etadilar;

- ota-onalar ta'lim muassasaga va uning raxbariyatiga e'tiborli va qo'llab-quvvatlaydilar;

-o'quvchi-talabaga turli xolatlarda bir-birlariga tegishli yordam ko'rsatadilar.

2.Qo'llab-quvvatlovchi xamkorlik va faol ta'lim:

Ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalarining ta'lim-tarbiyaviy ishlarda ishtirokini rag'batlantiradigan ta'lim metodlaridan foydalanilgan xolda hamkorlikda o'qitish yo'liga qo'yilgan;

- o'quvchi-talabalar muammolarni xal etish bo'yicha ishlash uchun birgalikda vaqt o'tkazadilar;
- o'quvchi-talabalar darsda savollar berishga rag'batlantiriladilar;

- o'qituvchilar o'quvchi-talabalarning birgalikda ishlashlari uchun guruxlar faoliyatida ishtirok etishlarini tashkil qiladilar;
- o'quvchi-talabalar bir-birlari bilan xamkorlik qiladilar;
- o'quvchi-talabalar ishlarini namoish etish muntazam o'tkazib boriladi.

3.Jismoniy jazolash va zo'rovonlikni taqiqlash:

Ta'lim muassasalarida intizomiy chora sifatida jismoniy jazolashni taqiqlovchi qoida o'rnatilgan;

- ta'lim muassasasi intizomiy chora sifatida jismoniy zuxum bo'lmagan jazolashni targ'ib qiladi;
- o'qituvchilar o'quvchi-talabalarning intizomiga rioya qilishlari erishish uchun jismoniy jazoni qo'llamaydilar;
- o'qituvchilar intizomning tajovuzkor bo'lmagan metodlaridan foydalanishlarni qo'llab-quvvatlanadi.
- ta'lim muassasasida kun davomida ro'y bergan janjallar hisobga olib boriladi.
- O'quvchi-talabalar ta'lim muassasasida xavfsizlik va ishonarlilikni saqlashlariga yordam beruvchi yangi bilim va ko'nikmalar olish imkoniyatiga ega;
- Zo'rovonlik yoki stress hodisalarida bo'lgan o'quvchi-talabalarga yordam ko'rsatiladi;
- ta'lim muassasasida zo'rovonlik xodisalariga guvoh bo'lgan o'quvchilar va maktab xodimlari bilan muomala olib borish tartiblari mavjud;
- ta'lim muassasasida yaxshi intizom saqlanadi;
- ta'lim muassasasida o'quvchilar o'zlarni xavfsiz xis qiladilar;
- ta'lim muassasasida noto'g'ri yoki shafqatsiz axloqiy xodisa ro'y bersa, undan ota-onalar o'z xavotirliklarini ifodalashlariga imkon beruvchi tartib o'rnatilgan;
- ta'lim muassasasida o'quvchi-talabalarning to'g'ri xulqqa rioya qilishlari munosib qadrlanadi.

4. Mazax qilish, ta'magirlik va kamsitishlariga yo'l qo'ymasligi;

ta'lim muassasasida mazax qilishlariga yo'l qo'ymasligi bo'yicha e'lon qilingan qoida bor;

- ta'lim muassasasida mazax qilish xodisalari ro'y berganda xodimlar nima qilish kerakligi xaqida e'lon qilingan qoida bor;
- mazax qilishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'lim muassasasining qoidalarni amalga oshirish majburiy.
- O'quvchi-talaba ta'lim muassasasida undan tashqarida, unga yo'lda kelish va ketida mazax qilishga yo'l qo'ymasligini biladilar;
- ta'lim muassasasida mazax qilishga uchraganlarga nisbatan nima qilish kerakligi bo'yicha qoida bor;
- ta'lim muassasasida qiz o'quvchi-talabalarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi;

Magistratura mutaxassisliklarining ilmiy-pedagogik ish dasturida, ilmiy-pedagogik ish mazmuni yo'riqnomasi va ularning shaxsiy ish rejasida ma'ruza matnlarini tayyorlash, tuzish, ma'ruzalarni o'tkazish ko'zda tutilgan. SHu munosabat bilan ma'ruza tayyorlash mezonlari va uni o'tkazish haqida to'xtalamiz.

Ma'ruza tayyorlash mezonlari.

Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma'ruza o'ziga xos modul, uni tayyorlash va o'tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat.

Bu jarayon dastlab ma'ruza uchun materiallarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliyot vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish bosqichlaridan iborat bo'ladi.

YUqoridagi ishlar bajarilgach, ma'ruza matnini tayyorlashga kirishiladi.

Ma'ruza matnlari kursning o'quv-mavzu rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha tayyorlanadi. SHu mavzularni tegishli tinglovchilar guruh bilan o'rganishdan ko'zda tutilayotgan maqsadlar belgilanadi. Bunda mavzuning dolzarbligini aniq ko'rsatib berish, unga tegishli muammolarni hal qilish yo'nalishlarni belgilab berish va shunga muvofiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash. Ularni tatbiq etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi.

Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shartlardan hisoblanadi. Buning uchun ma'ruza materialini odatda, asosiy tarkibiy bloklarga ajratish yaxshi natija beradi. Natijada ma'ruza matnini tayyorlashda ham va ma'ruzani guruhlarda o'tkazishda ham zaruriy tartib hamda mantiqiy izchillikka erishiladi.

Ilmiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar materiallarining tarkibi quyidagi bloklardan tashkil topadi:

- nazariy blok — bunda tinglovchilarni mavzuni ilmiy-nazariy assolari, qonuniyatlari va qoidalar bilan tanishtiriladi, ya'ni nimani o'rganish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- metodik blok — mavzuning qonun-qoidalarini o'rganish, qo'llanish, foydalanish masalalarini o'zlashtirish, ya'ni qanday bajarish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- amaliy blok — ma'ruza davomida o'rganilgan ma'lumotlarni “qaerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali qanday me'yorlarda qo'llash” bilan tanishtirish, ya'ni “nima uchun kerak” degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- xulosalar bloki — nazariy, metodik, amaliy bloklar bo'yicha umumlashtiruvchi natijalarni ifodalashga xizmat qiladi va “nima qilish kerak?” degan savolga javob belgilanishi mumkin;

- nazorat bloki — tinglovchilarning o'zlashtirishlarini ma'ruza davomida tezkor nazorat qilishga xizmat qiluvchi har turli didaktik materiallardan iborat bo'lib, “tushunarlimi” degan savolga javob belgilanishi mumkin.

- tavsiyalar bloki — ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalarni har turli real sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulohaza va takliflarini hisobga olgan xolda hamkorlik va hamfikrlilikda belgilangan asosiy yo'l-

yo'riqlardan iborat bo'lib, navbatdagi hamda kelgusi vazifalarni belgilab beradi. Uni majoziy ma'noda "ma'qulmi" degan savolga javob deb belgilanishi mumkin.

YUqorida aytib o'tilgan tarkibiy bloklarni shartli ravishda quyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin.

Ma'ruzaning tarkibiy bloklari va shartli savollar

Nazariy	Metodik	Amaliy	Xulosa	Nazorat	Tavsiya
Nimani o'rganish kerak?	Qanday bajarish kerak?	Nima uchun kerak?	Nima qilish kerak?	Tushunarlimi?	Ma'qulmi

Ma'ruzaning ushbu bloklarini hosil qiluvchi materiallar o'ziga xos modullar va alqritmlarni hosil qiladi.

SHu bilan bir vaqtda ushbu bloklarning o'zi ham ularga nisbatan yirik modullar hisoblanadi. Har bir yirik blok o'z navbatida tarkibiy kichik bloklardan, ular esa kichik birlamchi bloklardan tashkil topadi.

Ma'ruzani shunday tarkibiy bloklar asosida tashkil qilish, albatta uning pishiq-puxta va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'ruzaning tarkibiy bloklari bo'yicha alohida ko'rgazmali qurol, tarqatma, didaktik materiallar tayyorlash va amalda ularni qo'llash mashg'ulotning ta'sirchanligini oshiradi.

Bunda aytib o'tilgan har bir blok hajm jihatdan bir xil bo'lmasligi mumkin. Ma'ruza hajmning asosiy qismini, odatda nazariy, metodik, amaliy bloklar tashkil qiladi. Xulosa qismi eng qisqa blok bo'ladi.

Nazorat bloki ko'pincha ma'ruza jarayonidagi og'zaki savol-javoblar shaklida bo'lib, bunda ma'ruzachi tomonidan ularning qanchalik tushunayotganligini aniqlovchi savollar berib, javoblar olishdan iborat bo'ladi.

SHu bilan birga tinglovchilar ma'ruzachiga savol berishlari ham mumkin. Bunday savollar odatda, ular tushunolmagan hollarda hamda mavzu bilan bog'liq ko'pincha ma'lumotlarga qiziqish paydo bo'lganda beriladi.

Buning natijasida esa shu savollar ham tinglovchining o'zlashtirishlarini hamda qiziqishlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Tavsiyalar bloki asosan pedagog-xodimlar va tadqiqot olib boruvchi magistrantlarga qo'llaniladi va u katta hajmni egallaydi.

SHuni eslatish joizki, har bir ma'ruzada shu bloklarning hammasi doimo uchramasligi mumkin. U zaruriyatga qarab belgilanadi.

Magistrantlar tizimidagi ma'ruzalar davlat standartlarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Ma'ruza matni talaba uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. U navbatdagi ma'ruzani eshitishdan oldin uning matni bilan tanishadi. Ma'ruza matnlari va ularning elektron variantlari universitet kutubxonasi va kafedrada talabalarning yakka tartibda foydalanishlari uchun qulay sharoitda qo'llaniladi. Buning natijasida ma'ruzani o'zlashtirish darajasi hamda talabalarning faolliklari oshiriladi.

Ma`ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma`ruza matnlari faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, echimlar asosida muammoli vaziyat keltirib chiqarishi matnni mustaqil mutolaa qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma`ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va vatanimiz taraqqiyotining yuksalishi jarayoni, jo'shqin, farovon, ozod, obod hayot tarzi, ilg'or fan va texnika, texnologiya yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilayotgan yangilik, bunyodkorliklar, jahonshumul muvaffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

Ma`ruza matnida talabalarning DTS asosida qanday tushuncha, ko'nikma, malaka, bilimlarni o'zlashtirishlari zarurligini nazarda tutish talab etiladi.

Tayanch so'zlar, signal, sxema, diagramma, tasviriy ko'rgazma, didaktik materiallarga alohida e'tiborni qaratish yaxshi natijalar beradi, ularni ta'sirchanlik, qiziqishini oshiradi.

Har bir mavzu bo'yicha o'quv rejada ma`ruzaga ajratilgan soatlarga mos ravishda uning hajmi, nazariy, amaliy, metodik yo'nalishlari yoritilishi kerak.

Ayniqsa, materiallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur, oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, ma'naviy, tarixiy, milliy qadriyatlarni talabalarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, fuqarolik ruhida va chin e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim.

Ma`ruza mazmunini yoritish rejasi uning mavzusi bilan bog'liq kichik mavzucha, savollar, mulohaza asosida ketma-ket bog'liq xolda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ma`ruzachi manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, mustaqillik yillarida chop etilgan darslik, ilmiy-uslubiy qo'llanma va xrestomatik adabiyotlarga, mavzuga oid, integrnet xabarlariga asslanishi kerak.

CHet el ilg'or tajribalari, adabiyotlari, zamonaviy texnologiya, innovatsiyalar, davriy matbuot materiallariga, suyanish maqsadga muvofiq.

Ma`ruza matni so'ngida "o'zingizni sinab ko'ring" testlari savollar berilsa yanada ma`qul bo'ladi.

Ma`ruza matni vaqti-vaqti bilan yangi axborotlar bilan boyitib boriladi.

Ma`ruza matnlari quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

Tayyorlanayotgan ma`ruza matnlari magistrantni ilmiy rahbari bilan hamkorlikda ko'rib chiqiladi. Ilmiy rahbar takliflari asosida tuzatishlar kiritadi. Magistrant o'z xisobotlarini tekshirishida uni ilova tariqasida kafedra mudiriga topshiradi.

Ma`ruzani o'tkazish texnologiyasi

Quyida ma`ruzaning o'zaro faol usuli, o'tkazish texnologiyasi to'g'risida fikr yuritamiz. Har qanday yuqori saviyada o'tkaziladigan, garchand u faktlarga boy bo'lsa ham, uzoq vaqt bir maromda davom etaversa, talabani eshitish qobiliyati susayadi, zerikadi va charchash alomatlari seziladi. Bu holat uni loqayd

eshituvchiga aylantiradi. Ma`ruza qancha uzoq davom etsa, uni samaradorligi shuncha kamayib boradi.

Ma`ruzani samarali, ta`sirchan o`tkazish uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun ma`ruzani o`ziga xos modul, algoritmlash, kichik pedagogik texnologiya darajasida tashkil etish talabalar uchun qulaylik keltiradi.

Bu degani ma`ruzachi o`z ma`ruza matnini bir necha bloklarga bo`ladi. Har bir blokni 15-20 minut davomida bayon qiladi va har bir blokdan keyin to`xtab, mavzu bilan bog`liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Talabalarni o`tirgan joylarida kichik guruhlariga bo`lib, muhokama, munozara tashkil etadi.

Ma`ruza davomida ayrim muammolarni munozara uchun o`rtacha tashlaydi. SHu vaqt oralig`ida bu muammoga talabalarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikr-mulohazalarini eshitadi. Har bir fikr bildiruvchi o`z fikrini bayon qilishga imkoniyat yaratadi. Ammo ularni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham diqqat bilan tinglaydi. Bu holat talabalarni ma`ruzaga bo`lgan munosabatini ijobiy tomonga o`zgartiradi, ma`ruzaga befarq bo`lmaslikka sabab bo`ladi, talabalar orasida o`zaro faollik paydo bo`ladi.

Muhokama etilayotgan mavzu bilan bog`liq muammolarga ehtiyoj va qiziqishi ortadi. SHu asosda talabalarni yakka tartibda suhbatga tortish 5 minutgacha davom etishi mumkin.

Ma`ruzachi talabalarning qiziqishi, intilishi, ehtiyoji, mas`uliyati oshib borishini kuzatib boradi.

Ma`ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar, erkin fikr yurituvchilar ma`ruzachining tayanchiga aylanadi va o`zaro faollik asosida qizg`in bahslar, munozaralarda faol ishtirokchilar rag`batlantirib boriladi.

Ma`ruza davomida mavzuni asta-sekin talabaning kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog`lab boriladi va qisqa vaqtli mulohazalar orqali tegishli echimlar topiladi va bundan esa o`z navbatida talaba ma`ruza mazmunining kundalik hayotda naqadar zarurligini his etadi.

SHu xolda kechgan ma`ruzalarda talabalar vaqt qanday o`tganini sezmay qoladilar. Ma`ruzadan qoniqish hosil qilib, uni yana davom etishini xohlab, befarqlik o`rnini xushyorlik, xohish-istak, ichki intilish echim qidirish egallaydi. O`zlari ham muammoning echimini topishda shaxsan ishtirok etib, hissalarini qo`shishga intiladilar va ular ma`ruzaning mazmunini o`zlari duch kelgan misollar orqali yoritishda ishtirokchilarga aylanadilar.

Bunday holatda kechgan ma`ruzalar har ikki tomonning o`zaro faolligini oshiradi, vaqt o`tganini sezmay qoladilar, navbatdagi munozaralarga oshiqadilar.

Natija shu bilan tugaydiki, talabada bu mavzu bo`yicha qiziqish paydo bo`lib, kutubxonaga kirib ilmiy-pedagogik, metodik adabiyotlar, uslubiy qo`llanma, davriy matbuot nashrlari bilan tanishish istagi, mustaqil mutolaa qilishga ehtiyoj paydo bo`lishi hamda talabani doimo o`z ustida ishlash ko`nikmasining shakllanishiga sabab bo`ladi.

Ma`ruzada tinglovchiga ma`lumotni faqat tayyor xolda beraverish maqsadga muvofiq emas, chunki, bunda uni mustaqil fikrlashga o`rgatish etarli e`tibor berilmay qoladi.

SHuning uchun turli muommolarni amaliyotga mos xolda hal eish, savollarga hayotiy javobni mustaqil ravishda tan olish bo`yicha ularni o`zaro faollikka, o`ylashga, fikr yuritishga yo`naltirish kerak. Har qanday ma`ruzaning samaradorligi ma`ruzachining mahoratiga, matnni tuzish san`atiga, ijodiy yondoshuviga, yuksak muloqot madaniyati, notiq kabi yoqimli ovoz sohibi sifatida o`zini namoyon qilishiga, talabalarni o`z mavzusiga qiziqтира olishiga bog`lanib qolaveradi.

Ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Endi magistrant dasturda ko`zda tutilgan ilg`or pedagogik texnologiyalar nima? Uning asosiy mohiyati nimada? Pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayoniga qanday tatbiq etish mumkin degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Magistrant pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga tatbiq etishda quyidagi ishlarni amalga oshirishi kerak;

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o`qib, o`zlashtirib olishi kerak;

- pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayonida o`rganish, kuzatish, nazorat etish printsiplari bo`yicha konspekt tuzish, algoritmlash, loyihalash, modullar, interfaol metodlar asosida aniq mavzular bo`yicha dars ishlanmalari ishlab chiqish;

- pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq etish bo`ycha maktab, tuman, viloyatlarda tashkil etilgan seminar, trening, amaliy konferentsiyalarda ishtirok etish;

- pedagogik texnologiyalar bo`yicha ilg`or tajribalarni to`plash, tanlash, qo`llash bo`yicha tegishli ma`lumotlar bankini yaratish, ularni tahlil etish orqali, o`ziga moslarini darslarda qo`llash bo`yicha ilmiy izohli ish, tajriba-sinovlar olib borish;

- tajriba-sinovda olgan pirovard natijalarni tahlil qilish, tanqidiy yondoshib navbatdagi vazifalarni aniqlash.

Keyingi vaqtlarda o`quv jarayonini tashkil etishning eng samarali usuli sifatida pedagogik texnologiya deb tan olinmoqda. Keyingi vaqtlarda professor-o`qituvchlar orasida "Ta`lim texnologiyasi", "Pedagogik texnologiya" tushunchalari tez-tez yodga olinmoqda. Pedagogikada shu narsa ma`lumki, o`quv rejalari, dasturlari, standartlar, darsliklar va boshqa vositalar ilm-fanning eng so`nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin, pirovard natijaga erishish, chuqur puxta bilim berish, ta`lim standarti talablarini amalga oshirish ta`lim olib boruvchi o`qituvchining mahorati va malakasiga, ijodkorligiga, faolligiga bog`liq bo`lib qolaveradi.

Didaktik talablarga muvofiq darsda o`quvchini mustaqil mutoala qilish, o`z-o`zini o`qitishi, o`zi o`zlashtirib ongli mushohada yuritishi, mustaqil fikrlay olishi va tafakkurining rivojlanishi muhim omil bo`lib qolaveradi.

SHuning uchun ta'lim texnologiyasi jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

O'quv materialini o'zlashtirish o'quvchi mas'uliyati va zimmasida kechadi. O'qituvchi o'quvchini o'quv-biluv jarayoniga zaruriy muhit yaratadi, yordam beradi. Xulosa shuki, o'qituvchi o'quvchini o'qitishdan ko'ra, o'zini o'qishiga o'rgatadi. Tayyor bilimlarni berishdan ko'ra ularni manbalar, darsliklardan olishga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni quyidagicha kechadi:

- tashkil etish;
- hamkorlik, hamijodkorlikda ish olib borish;
- takomillashtirish, rivojlantirish;
- tahlil qilish, tanqidiy qarash;
- qiyoslash;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish;
- jarayonni boshqarish;
- nazorat etish;
- baholashlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashni loyihalashda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

- talabning faolligini oshirish va uni hamkorlik, hamijodkorlikka chaqirish;
- o'quv rejada ko'zda tutilgan dastur, qo'llanma, ma'ruza matnlari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- ta'lim mazmunini, matnlarini mustaqil mutoala qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- talabning o'z fikrini bildira olish, himoya qilish, isbotlab olishga o'rgatish.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga qo'llashda motivlarni vujudga keltirishlik hal qiluvchi rolni o'ynaydi. YA'ni, ularning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqish-xohishlari bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar asosini modullar, algoritmlar, loyihalashtirishlar tashkil etadi.

SHunday qilib pedagogik texnologiya nima degan savolga qisqacha shunday ta'rif berish mumkin.

Pedagogik texnologiya deb – o'quv jarayoni bo'lmish darsni modullashtirish, algoritmlash, loyihalashtirish asosida, o'quvchi-talabalarning faol ishtirokida, ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishni kafolatlashga aytiladi.

Xulosalar:

1. Talaba o'qitilmaydi, uni manbalar, matnlar, adabiyot, darsliklar asosida mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirishga o'rgatiladi.

2. Talabaga bilimlar tayyor xolda berilmaydi, ularning bilimlarni manbalardan o'la bilishga o'rgatiladi.

3. Barcha talabalarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi.

4. Barcha magistrantlar pedagogik texnologiya mexanizmini deyarli bir xil ijobiy natijalar olishga erishadilar.

Pedagogik texnologiya samaradorligi monitoringini olib borish egallangan tushuncha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichlarini quyidagi jadvaldagi shaklda ko'rsatish mumkin.

**Pedagogik texnologiya monitoringi
jadvali**

I bosqich	O'rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushunib olish	O'zlashtirganini ayta bilish (isbot)
III bosqich	Tatbiq eta olish	Qoida, qonunni bilib olish, undan foydalanish
IV bosqich	Tahlil eta olish	Qiyoslash, taqqoslash, bir-biriga bog'lash
V bosqich	Sintez	Axborotni ijodiy qayta ishlata olish
VI bosqich	Baho olish	Keyingi bilimga qadam qo'yish

Xulosa shuki, o'quv jarayonining samaradorligini ta'min etuvchi asosiy omili talabaning faolligiga, mas'uliyatini his qilishiga bog'liq.

Pedagogik texnologiyalar amaliyotga magistrantlar tomonidan joriy etiladi. SHu boisdan u nchog'liq texnologiya mazmun-mohiyati, uning ilmiy asoslarini tasavvur etishi, ularni ta'lim-tarbiya sharoitlariga moslashtirish ko'nikma va malakasini egallashi yoki mutaxassislik o'quv predmetlari bo'yicha texnologiyalarni loyihalash, modullashtirish ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini kafolatlaydi. SHuning uchun zamonaviy texnologiyani tatbiq etish ta'limda sifat-samaradorlik kafolatidir.

Quyida pedagogik texnologiyalar jarayonida uchraydigan ayrim atamalar xaqida fikr yuritamiz.

Pedagogik texnologiya jarayonida ayrim atamalar qo'llaniladigan:

1. Texnologik xartia;

- mavzuni aniqlash;
- maqsadni aniqlash;
- o'zlashtirish zarur bo'lgan kalit so'zlar;
- vazifalar 1,2,3, va xakoza.
- pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mazmun, shakl, metod, vositalar;
- YAakk, juft, kichik guruxlarda ishlash;
- reglament;
- baholash;
- xulosalar.

2. Modulli ta'lim texnologiyasi.

- Modulli ta'lim al'ternativ ta'lim;
- modul so'ziga " funktsional uzal" ma'nosini bildiradi;
- Modul shunday uzalqi, unda ta'lim mazmuni berilib, uni o'zlashtirib olish ketma-ketligi texnologiyasi beriladi.

- Bunda talabani o'zi mustaqil o'qiydi, mustaqil o'zlashtiradi. O'zi boshqalarga tushuntiradi.

- mustaqil o'qish orqali bilim oladi, bunda talabani o'qitilmaydi, bilimlar tayyor xolda berilmaydi.Unda mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

3.Loyxali ta'lim.

- mavzuga doir material to'plash;
- ta'lim maqsadi va vazifalarini belgilash;
- ta'lim mazmunini ishlab chiqish;
- ta'lim shakli, metodi va vositalarini aniqlash;
- bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish reglamentini belgilash;
- Xar bir bosqich uchun mashq va misollar tayyorlash;
- nazorat uchun testlar ishlab chiqish4
- loyixalash mashg'ulotga tatbiq etish;
- mashg'ulotni olib borish;
- YAkunlash, baholash, xulosa;

4.Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish.

1-bosqich. Loyxani yaratish.

2-bosqich. Talaba-o'quvchilar faoliyatini taqqoslash.

3-bosqich. Pedagogik jarayonni tashkil etish.Mazmun, shakl,metod, vosita.

4-bosqich. Pedagogik jarayonni samarali ketishni ta'minlash.

5-bosqich. Talaba-o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish.

6- bosqich.talaba-o'quvchilar o'zlashtirishni baholash.

7-bosqich.Xulosa.

5.Pedagogik texnologiya jarayonining tartibi.

-Tushuntirish - axboratni mazmunini turli vosita va usullar asosida etkazish.

-Tushunish - axboratni ma'no-mazmunini ongli idrok qilish, mustaqil foydalana olish.

-O'rgatish - axboratdan foydalanish, mustaqil bajarish ko'nikmasin xosil qilish.

-O'rganish - axbortdan foydalanish mustaqil bajarish ko'nikmasini xosil qilish.

-O'zlashtirsh - tushunib olish, bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish.

6. Axborotni o'zlashtirish algoritimi.

1-bosqich - tayanch so'z va tushunchalarni aniqlash

2- bosqich – o'rganilayotgan xodisani belgilarni aniqlash uni boshqa xodisalar bilan o'zaro aloqodorligini solishtirish.

3- bosqich – YAxlitlikda aniq turdagilarni qisimlarni birlashtirish integratsiyalash vositasida sodir bo'ladiganiga bog'lash.

Interfaol ta`lim sifat kafolati.

Interfaol usullarini o`quv jarayoniga qo`llash ta`lim tizimida keng tarqalmoqda. Bu o`z navbatida o`quv jarayonini liberlizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik va hamjihatlikda, hamjihat va ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bir so`z bilan aytadigan bo`lsak o`quv jarayoni markazida o`quvchi bo`lmog`i lozim va o`quv jarayoni unga qaratilishini yo`naltirilgan bo`lishini talab etmoqda.

Didaktikani so`ngi yutuqlaridan biri sifatida shaxsga qaratilgan ta`lim o`quvchining o`quv bilim mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqishi ehtiyoji va xohish istaklarini ro`yobga chiqaruvchi kuch bo`lib qolmoqda.

Bu zaylda tashkil etilgan ta`lim o`qituvchi va o`quvchiga doimiy ilmiy ijodiy, uzluksiz o`z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bunda xolatning ta`lim jarayoniga, uning ijodiy muhitini yaratadi va sifat samaradorlik kafolatlanadi. Interfaol ta`lim zamonaviy darsdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda darslarni tashkil etishga mas`uliyat bilan yondashadigan yuqori kasbiy malakali va bilimdon metodik mahotarga ega, zamonaviy interfaol texnologiyalarni mukammal o`zlashtirib olgan innovatsion faoliyatda ta`limni tashkil etadigan o`quvchilarga talab oshib bormoqda. Interfaol ta`limda jarayon individuallashgan holda kechadi. Ta`lim jarayonida o`quv faol ishtirok etadi. O`quv bilim jarayoniga katta hissa qo`shadi. Jarayonni olib borishda o`quvchilarning shaxsiy xususiyat tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

- o`quvchining o`zaro faolligini oshadi;
- o`quvchida o`quv reja, dastur, darsliklar, standart me`yorlar asosida mavzu mazmunini o`zlashtirib olish malakalari shakllanadi;
- ta`lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o`zlashtirish ko`nikmalari o`qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas`uliyati oshadi;
- o`quvchi erkin fikr bildirishi, o`z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi;
- eng muhimi o`quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. O`z navbatida darsni qiziqarli bo`lishiga olib keladi. YA`ni bu jarayonda o`quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o`quv materialinito`la o`zlashtirish kafolatlanadi.
- o`qitish usullari ta`lim jarayonida turli xil ko`rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o`quvchi ta`lim mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki o`zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Nihoyat o`quvchi o`z kuch va imkoniyatlaria ishonch bilan qaraydi.

Bizga ma`lumki, ta`lim modeli o`z ichiga:

- passiv ta`lim
- faol ta`lim
- interfaol ta`limlarni oladi.

SHulardan interfaol ta`lim esa o`z navbatida:

- muammoli ta`lim
- loyiha asosidagi ta`lim
- kreativ ta`lim
- evristik ta`lim
- faol o'yin asosidagi ta`lim
- AKT ta`limlarini alohida, shu bilan birga keyingi vaqtlarda, masofali ta`lim, media ta`lim, onlayin ta`limdagi ta`limlar xam ta`lim jarayoniga kirib kelmoqda.

YUqorida nomlari keltirilgan ta`lim usullarida o'zaro faollik, harakat, ta'sirchaklik, o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi. Iterfaol ta`limning bosh asosiy maqsadi o'quv jarayonida o'quvchi uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratadi. U o'zini intellektual salohiyatini to'la namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich maktablarda interfaol pedagogik didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi;

Ishchanlik o'yinlari darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarni oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha guruhga aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o'quv predmeti bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari, multimediya, sirdan o'quv kursi va boshqalar vositasidagi o'tiladigan darslar.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo'shliqlari bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

YArmarka darsi – dars mavzusi bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirlar o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma'lumotlar berish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklida mashqlar o'tkazish darsi.

O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi – o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklda ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi.

“Tergovni bilimlardan olib boradi” darsi – dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar sudlashadi, qiziqarli savol-javoblar, texnologiyalar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo'lib, ularning eslab qolishlariga qulaylik tug'diradi.

Integral dars – bir nechta predmetlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarni turli predmetlarga qiziqishlari ortadi, faollik muhiti paydo bo'ladi.

Mo`jizalar maydoni darsi – o`quvchi-talaba bilan o`tkaziladigan qiziqarli o`yin bo`lib, turli savollarga belgilangan vaqt orasida to`g`ri javoblar topish va g`oliblarni rag`batlantirish orqali o`quvchi-talabalarga erkin fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarni atroflicha kengaytirish imkoniyatlariga ega bo`ladilar.

YUqori sinf o`quvchilari va akademik litsey va kasb-xunar kolleji talabalari bilan yangi texnologiyalarni o`rganishda o`zlashtirish va o`quv jarayoniga qo`llashda ko`pgina trening mashg`ulotlar tashkil etiladi. Biz quyida treninglarni tayyorlash va o`tkazish haqida fikr yuritamiz.

Trening Trening o`tkazish tuzilishi.

- trening mavzusini belgilash
- trening maqsadini belgilash
- trening dasturini, vazifalarini belgilash
- ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini diagnostik tahlil qilish
- programma mazmunini muhitga moslashtirish va uni metodikasi
- trening o`tkazish jarayoni
- trening natijasida olgan bilimlarni baholash va xulosalash;
- Trener kim ? U nima bilan shug`ullanadi?

Trening mazmunining yunalishlari :

- treninglarga extiyojlarni o`rganish bo`yicha guruxli ishni tashkil etish, bunda tashkilot uchun treningni roli va o`rmini belgilash.
- trening maqsadini belgilash va uni ximoyachi bilan kelishish. O`quv maksadlariga qarab trening turini tanlash.
- Trening mazmuniga, kutilayotgan natijalariga qarab, uning davomiyligini belgilash. Vaqt xisobini olish
- Treningning korporativ xususiyati, tayyorgarlik fazalari va o`tkazish jarayonini belgilash
- Treningga tayyorgarlik - "nimaga", "kim", "nimani", "qachon" va qaerdaligini xisobini olish. Trening qatnashuvchilaridan taxminiy anketalar olish.
- Trening dasturi va o`quv metodik me`yoriy tarqatma xujjatlarini tayyorlash,
- Korporativ treninglar paradokslarini olib borish, baholashni oldindan ko`ra bilish uni xujjatlarini tayyorlash.
- Trening olib borishda o`quv jarayoniga ketadigan taxminiy vaqt, ishtirokchilarni joylashtirish tartibi, o`tiladigan joyni tartibga keltirish.
- Treningning boshlanishi (ochilishi) va tugallanishi (yakunlanishi).
- Tabriknoma, tanishish. O`quv jarayoniga ishtirokchilarni jalb etish metodlarini ishlab chiqish (ularning o`zaro muloqotini tashkil etish).
- Treningdan kutilayotgan natijalarni aniklashtirish. Ishtirokchilar bilan treningning so`nggi dasturini kelishib olish, trening jarayonidagi o`zaro munosabatlar qonun-qoidalarini kelishish "o`yin koidalarin" eslatib o`tish.,
- Taqdimot va qayta aloqa o`rnatish. Trening yakunida trening ishtirokchilaridan anketa olish.

Trenerning funktsiyalari

Trener o'quv dasturi, trening mazmuni, trening faoliyatini olib borish, trening natijalarini baxolash bilan shug'ullanadi. Uning bosh maqsadi mavjud bo'lgan yangi metodlarni, interfaol usullarni o'qituvchilarga o'rgatish orqali ularda yangi sharoitda, extiyojga mo'ljallangan ta'lim jarayonini olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. SHu bilan birga o'qituvchilarni interfaol usullarga, metodlarga bo'lgan extiyojini o'rganib boradi. SHu asosda treninglarni extiyojlarga moslab, loyihalash ishlarini olib boradi.

SHu bilan birgalikda trener o'quv kursi dasturini, mazmunini shakllantiradi, u bir vaqtning o'zida trening qatnashchilari hisobini olib boradi. Trening jarayonini tashkil etish qonun qoidalarini qatnashchilarga tushuntiradi. Treningda talab etilgan barcha o'quv materiallari, tarqatma didaktik materiallar, zaruriy texnik jihozlarni hisobini qiladi.

Trener faoliyatidagi eng muhim davr trening jarayonini tashkil etish va olib borishdir. U o'quv kursini taqdimotini o'tkazadi. Amaliy sessiyalarda munozaralar olib borish, qatnashchilardan olingan javoblarni koordinatsiya qilish, qayta aloqalarni o'rnatish, har bir borayotgan jarayonni nazorat etish, vaqt-vaktida tanaffus berish, ishtirokchilarni ruhlantirish, xamkorlikda ximoya etib boradi.

Trener trening materiallarini to'plash, tanlash, takdim etishda kasbiy mahoratini namoyon etishi kerak. Trener juda oson muloqotga kirishuv madaniyatiga ega bo'lgan suxbatdosh va tashkilotchi, kamtar inson bo'lmog'i lozim.

Trening yakunida treningdan olingan natijani tahlil qila olish, baholay olishi kerak. Tahlillar tizimli, ketma-ketlikda mantiqan amalga oshirishi kerak. Trener treninglarning tashkiliy muammolarini hal qilaolishi, ishtirokchilar tajribalariga suyanishi, maslahatlar berib borishi zarur.

Trener yuksak kasb egasi, kommunikativ ko'nikma, yuqori malakali o'qituvchi, liderlik funksiyasini bajara oladigan, menejerlik darjasida rivojlangan shaxsdir.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarni yangi talablar asosida ishlay olishiga o'rgatishda trenerni roli va o'rni beqiyosdir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va ta'minlashda trenerlarning ish faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Sir emaski, interfaol metodlarni maktab ta'lim jarayoniga kiritib avval ishni o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash va malakasini oshirishdan boshlanadi. Uning uchun o'qituvchilarni tayyorlash interfaol seminarlar, trening maxsus maqsadli qisqa kurslarida, ayrim hollarda shaxsiy dastur asosidagi mustaqil malakasini oshirish jarayonida amalga oshirish yaxshi natijalar beradi.

Trening metodlari. Treningni tashkil etish va o'tkazishda shunday metodlar mavjudki ular universal xarakterga ega. Masalan: guruxiy munozaralar, o'yin asosidagi metodlar, vaziyatni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalar, media texnikalar shular jumlasidandir. Lekin shu bilan birga biror aniq maqsadni ko'zda tutadigan treninglarning o'ziga xos metodlari ham mavjuddir.

Guruxli munozara-bu metod muammoli vaziyatni savollarni hamkorlikda muhokama etishda qatnashchilarning nazariya va strategiyalari asosida kechadi. Bunday metodlar masalaning echimiga turli tomonlardan qarashga mo'ljallanadi, masalani echimiga xar bir ishtirokchi alohida fikr bildiradi va shular asosida

qandaydir echimga keladilar. Trener munozarani turli savollarni qo'yish asosida boshqaradi va ularni echim sari boshlaydi. Agar gurux a'zolari biror savolni o'rtaga tashlasalar, ular boshqaruvchisiz ham o'zlari echimini izlab topishlari mumkin.

Birorta ta'lim tashkilotida komandani tashkil etishni maqsad qilib olishlari ham mumkin.

Komandani tashkil etib, shakllantirib maqsadni ko'yib, munozara o'tkazish bilan boshlanadi. Bunday trening o'tkazilishi juda sarmahsul yo'llardandir. Guruxlarda ishlash jarayonida ishtirokchilarni o'zaro tanishtirish o'yinlar orasida zo'riqishlarini oldini olish, ruhiy himoyalash yaxshi natijalar beradi. Treninglarning samarali kechishi yangi ko'nikmalarni egallash, kasbiy mahoratlarini oshirish, ijodiy rivojlanishiga olib keladi. Tortinchoqliqdan, yanglishib qolishdan cho'chimaslik, ochiq oydin o'z fikrini ayta olishga o'rgatadi.

Vaziyatni modellashtirish.

Treninglar jarayonida ishtirokchilarni o'zini qanday tutishi, bir qolipdagi xulqi bilan ishtirok etayotganligini ko'rish, kuzatishga to'g'ri keladi. Vaziyatni modellashtirishda ishtirok etuvchilarning jarayonni borishida o'ziga foydali yoki ziyon keltirish xolatlarni ko'ra bilshni, kuzatish va tahlil qilish orqali uni qulay tomonlarini ajratishi orqali vaziyatdan chiqish tomonlariga e'tibor qaratadilar.

Sensorik sezgirlikni rivojlantirish texnikasi

Bunday sezgirlik orqali ishtirokchilar boshqa ishtirokchilarni qabul qila olish, tushunish, sezish, baholashga o'rganadi, o'z-o'zligini, guruxni tushuna boradi.

Mashqlarni bajarish orqali, veral va noverbal axborotlarni olish orqali, atrofdagilar uni qanday qabul qilayotganliklarini bilish orqali ishtirokchi o'z shaxsiy qarashlariga ega bo'ladi, tashqi qiyofasidanoq shaxsiy qarashlar shakllanishini tushunib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak trening komanda bo'lib ishlash, kichik guruxlarga bo'linib ishlash, rolli o'yinlar, mini ma'ruzalarga bo'linadi. Ular trening a'zolariga o'quv-metodik ko'llanma, tarqatma materiallar berish orqali amalga oshiriladi.

Treningni o'tkazish

Interfaol metodlarda ishlash va o'sha muhitda ish yuritish malaklarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar mavjud bo'lgan yangi metodlarni o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

O'rgangan yangi metodlarni o'z o'quv ish faoliyatlarida foydalanish malakalarini hosil qiladilar.

Treningda ta'limda mavjud bo'lgan yangi metodlar muhokama qilinadi, o'rganiladi. SHular asosida o'zlari yangicha ishlash faoliyatida ish yuritadilar.

Umuman treninglar ko'shimcha ta'lim olishning asosiy formalaridandir. Treningning o'zi hosligi shundaki, u pedagogni faoliyatini, qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi o'z o'kuv-biluv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanishni, mustaqil ish yuritishni, qarorlar qabul qilshshsh o'zlashtirib oladi.

Mutaxassislar treningni to'rt guruxga bo'lishni tavsiya etadilar.

1. O'z faoliyatini tashkil etuvchi mashg'ulotlar.
2. Komanda bo'lib ishlash tayyorlash mashg'ulotlar.
3. Boshqalarni o'kitish ko'nikmasini olish mashg'ulotlari.

4. Qo'shimcha ta'lim olish ehtiyojini qoldiruvchi mashg'ulotlar.

Trening guruxlarida ishlarni tashkil etish qoidalari:

Birinchi "SHu erda xozir" qoidasi, guruxni tashkil vaqtida qoida, fikr, mulohazalar jarayon kechishi davrida xisobga olinishi kerak. SHu tariqa xar bir ishtirokchining diqqat e'tiborini shaxsan o'ziga va atrofida kechayotgan voqealarga torta olish, ishtirokchining o'zini qanday tutaolishi, ko'rsata olishiga e'tibor qaratilishi kerak.

Ikkinchi . " Samimiyat va ochiqchasiga qoidasi" shunga erishaolish kerakki, gurux a'zolari ko'z bo'yamachilik va yolg'ondan xoli bo'lishlari shart. Guruxlardagi shaxslarni o'ziga ishonchni va sog'lom vaziyat mashg'ulotining maqsadli borishiga turtki bo'ladi. Ijodiy va do'stona muhitni yaratish shaxslar orasidagi muloqotning samimiy va samarali kechishini ta'minlaydi. Guruxlarda yangi ish boshlanganda bunday qulay vaziyatni xosil qilish juda muhimdir. Har doim ham guruxlar ishini tashkil qilishda bir birini qo'llash, xayri-xoxlik, ochiqchasiga samimiy fikr bildirish imkoniyatlari bo'lavermaydi. Bunday xolatlarda trener har bir ishtirokchining ximoyalanganligi, o'z fikrini ochiqchasiga bayon etaolishga zaruriy muhit yaratishi kerak. SHundagina gypyx ishtirokchisi muloqot jarayonida o'zi o'ylagan, aytishi mumkin bo'lgan fikr, mulohazalarni o'sha zahotiyoq, o'z vaqtida aytadi, bildiradi.

Uchinchi - "Men" qoidasi. Guruxlarda hammaning fikri undoq yoki bundoq deb tanqid kilish man etiladi. Fikrlar fakat ayrim shaxslar tomonidan, uning o'z nomidan fikr- mulohazalari alohida, ayriholda bildiriliish kerak. Bunda bildirilayotgan fikr yoki g'oya shaxs ma'suliyatiga yuklanadi. U qanday bo'lsa shunday qabul qilinadi. SHu zayilda guruxda xar bir shaxsning roli va o'rni bo'lishiga erishiladi.

To'rtinchi- "Faollik" qoidasi. Gurux ichida passiv kuzatuvchi bo'lmasligiga erishish kerak. Topshiriqlarni echimida hamma qatnashchilar shaxsan ishtirok etishi zarur. Agar gurux a'zolaridan birortasi faol qatnashishdan bosh tortsa uni kelgusida mashg'ulotlarda katnashishi yoki qatnashmasligini ko'rib chikishga to'g'ri keladi.

Beshinchi- Guruxda nimaiki sodir bo'lsa o'z joyida qoldirish qoidasi. Guruxda entik talablarni, ruhiy xolatlarni vujudga keltirish uchun ish jarayonida sodir bo'ladigan noo'rin, noto'g'ri fikrlar tanqid ostiga olinmaslikligi, muhokama qilinmasligi juda muhim omil hisoblanadi. Mashg'ulot davrida aytilsa, fikr bildirilsa, mulohazalar yuritilsa, gapirilsa, shu narsalar guruxda qolib ketishi kerak.

Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish.

Ta'limning samarali natijalar berishi eng avalo o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabat va muloqotlariga, qo'llaniladigan ta'lim usullariga, yangiliklar asosida zamonaviy darslar tashkil etishlari o'quvchiga zavq bag'ishdaydi. SHuning uchun ham ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning hamkorlikda, hamjihatlikda, hamijodkorlikda, hamfikrlikda faoliyat ko'rsatishi, o'zaro bir birini tushunish va ijodiy muhitni vujudga keltirish natijasida ta'lim sifati va samaradorligi ta'minlanadi.

Hozir Respublikamizda ta'limda ulkan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda bu o'z navbatida ta'lim mazmuniga, o'quv biluv jarayoniga ham o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilishi talab etmokda. YAngicha ilmiy pedagogik qarashlar, ilg'or tajribalar,

innovatsiya va yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish zarurati tug'ilmokda.

Keyingi vaqtlarda pedagogikamizga innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar kirib kelmokda.

I.SHumpater va M.Kondratevlar "Innovatsiya" tushunchasini ilk va ulkan nazariyotchilari hisoblanadilar. K.Anelovskiy, V.Slastenin va V.Slobodchikovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar va bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar deb tan olindilar.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq. SHu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya inglizcha innovation - yangilik kiritish, tizim ichki tuzilishini o'zgartirish deb ta'riflanadi.

Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning xarakat tizimidir.

Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va darajalar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan masalaga yangicha yondashuvdir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflash ma'qullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- Kiritilgan o'zgartirishlarning ta'rifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalashgan, kombinatsiyalashgan)
- O'zgarishlar qo'llashga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- Kelib chiqish manbasiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangilaklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qiluvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. SHu sababli "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni bilib olish zarur. Buning uchun islohat faoliyatining aniq shakllari, mazmuni va ko'lam asos bo'lib xizmat qiladi. Faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqatgina ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz innovatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz.

Agar faoliyat ma'lum kontsensual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsiplial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olish mumkin.

Novatsiya amaldagi nazariya doirasida, qo'llash va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va uning natijasi avvalgi mavjud bo'lgan tizimni takomillashtiradi.

Innovatsiya esa, tizimli yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi, bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatda yangi sifat natijalarga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsiyani amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion jarayon deb – innovatsion jarayon o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aylanadi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyatni ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos-xosligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorning mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ilmiy pedagogik izlanish bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog, metodistlar, fasilitatorlar fikrlariga tayangan holda quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblashimiz mumkin.

- ijodiy (kreatik) falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini puxta o'rganish, o'zlashtirish va egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratishga ega bo'lish;
- innovatsiya bo'yicha ilg'or o'qituvchi tajribalari, tuman, viloyatlar yangiliklarini internet orqali izlab topish, ularni to'plash, bankini yaratish;
- maktabda metod birlashmalar tartibidan ekspert guruhlarini tuzish, ular bilan hamkorlikda, maktabga xos va moslarini yaratilgan bankdan tanlab olish;
- ularni mazmun mohiyatini seminar-treninglar, o'quvchilarni tuzish, ular yordamida tashkil etish;
- tajriba-sinov ishlari nazariyasi, amaliyotini va texnologiyasini o'zlashtirib, ularni rejda asosida amalga oshirish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar ilg'or tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlikda, hamjihatlikda, hamijodkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish;
- vaqti-vaqti bilan hamkorlikda bir-biriga metodik yordam ko'rsatish.

YUqoridagi qadamma – qadam tizim asosida innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi.

Xulosa shuki, innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni taxlillar asosida aniqlash.

2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash, algoritmash, texnologiyalash.

3. O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish.

4. O'zgarishlarni ta'lim amaliyotiga kiritish.

Bu erda innovatsion faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad-o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

YUqorida keltirilgan ishlarni yo'lga qo'yish orqali har bir ta'lim muassasasida innovatsion pedagogik muzey yaratish mumkin. Bu holatni vujudga keltirish har bir pedagogni ijodiy ishlashga, yangiliklarni izlab topishga, o'z pedagogik faoliyatiga kiritish muhiti shakllanadi. Bir so'z bilan aytganda maktabda ijodiy, innovatsion tizim yaratiladi. Uning natijasida ilg'or o'qituvchilardan – ilg'or pedagogik jamoa shakllanadi, ta'limni sifatli va samaradorligi kafolatlanadi.

O'quvchi bilimni baholash.

Hamma zamonlarda ham o'quv-biluv jarayoni provard maqsadi o'quvchini o'qish, o'rganish, bilish va olgan bilimlarini kundalik hayotida foydalana bilishlari bilan natijalangan. Mamlakatimizda uch ming yillar avval ham bilim olish va o'rganish oilada va jamoa muhitida ustoz-shogirdlik asosida olib borilgan. Buyuk allomalarimiz Mirzo Ulug'bek, Ibn-Sino, Abu Rayxon Beruniy, Farg'oniylar davrlarida ilohiy va dunyoviy bilimlarni o'rganish maxsus madrasalarda va Akademiyalarda amalga oshirilgan. Bilimlar asosan yakka tartibda va kichik jamoalarda mustaqil mutaola, mushoira tariqisada amalga oshirilgan. O'sha davr talabalarini baholovchi mezonlar bo'lgan. Jumladan, talaba barcha vazifalarni bajarib, o'z fikrini ongli ravishda emin erkin bayon qila olsa, ustoz talabalar oldida unga "tashakkur" yoki "tasannolar" bildirish orqali baholagan. Agar talaba berilgan vazifalarni to'la o'zlashtirib, talabalar orasida ochiq ravon bayon qilib aytgan olsa, ustoz uni "borakallo" deb rag'batlantirgan. Agar shogird berilgan vazifa va topshiriqlarni a'lo darajada, amaliyotda uni bimalol qo'llay olsa, unga eng yuqori baho berib "ofarin, otangga rahmat" deb rag'batlantirilgan. Buning zamirida nozik ruhiy qo'llash, o'ziga ishonch hissini uyg'otish, ichki motivatsiyani oshirish orqali yangi bilimlarni egallash sari etaklagan. Agar talaba vazifani yomon o'zlashtirgan bo'lsa, uni qayta mutaola qilish zarurligi haqida tanbeh bergan. YUqoridagi baholash tizimida rag'batlantirishning har bir turi o'quvchini qay darajada o'zlashtirilganligini bildirgan. Bunday rag'batlantirish talabani mutaola qilishga bo'lgan zavqini oshirib, yangi bilimlarni egallay olishga chorlagan.

Sobiq Ittifoq totalitar tuzimi davrida baholash mezonlari o'zgarib ular o'rnini so'rov, turli tekshiruv, imtixonlar egallab olgan. Baholash tizimida o'quvchining olgan bilimiga nisbatan "o'zlashtirgan" yoki "o'zlashtirmagan" kabi mezonlar qo'llana boshlagan. 1938 yildan boshlab, o'zlashtirishni baholash besh balli tizimga o'tkazildi. Unda "juda yomon", "yomon", "o'rta", "yaxshi", "a'lo" deb baholash tus oldi. 1944 yildan boshlab besh balli baholar raqamlarda ya'ni, "1", "2", "3", "4", "5" raqamlarda ifoda etish joriy qilindi.

Bizga sir emaski, ijobiy baho o'quvchining ruhiyatida o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kayfiyatini oshirib, ruhlantiradi. Bilim olishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. O'ziga bo'lgan ishonchini mustaxkamlaydi. Bu holat etnopedagogikamiz va xalq pedagogikamizda ham qayd etilgan. YUqorida bayon etilgan besh balli baho tizimida o'quvchi yomon baho olganda, unga tanbeh berilishi uning kayfiyatini tushiradi, bilim olishga qiziqishi so'nadi, o'ziga ishonchi so'nib boradi.

Uzoq yillik kuzatuv va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining o'z faoliyatini o'zi baholashi, o'zga-o'zi baho qo'yishi eng adolatli, to'g'ri va istiqbolidir.

Bunday o'lchov mezoni o'quvchi bilimi va sifatini pedagogik diagnostiki asosida baholashdir. Buni biz keniyyi bo'limlarimizda bayon etamiz.

Baholash nima?

O'quv-biluv jarayonining pirovard maqsadi baholanish va baholashdir. O'quvchilar nimani bilishini va nimani bilmasligini aniqlashtirish, ularning kamchiligini va nuqsonlarini ochish va keyingi yutuq tomonlariga suyanib, zaif tomonlarini kamaytirish va rivojlantirish.

Baholash jarayonining asosi-o'quv-biluv jarayonida o'quvchini kuzatib borishdir. Agar o'quv jarayonida o'quvchining faoliyati, qobiliyati rivojlansa, ularning jarayonidagi faoliyati rivojlanish, taraqqiyoti va olg'a siljishi namoyon bo'ladi. Demak o'quv jarayonida o'quvchining individual xususiyatlarini ochish, muvaffaqiyatli darajalarga erishishiga yordam beradigan usullarni izlash, tanlash kerak bo'ladi. Ruhshunoslarning fikricha besh balli baho qo'yish tizimining asosiy kamchiligi, bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir etishidir. O'quvchilarga baholar e'lon qilinayotganda sinfda paydo bo'ladigan sukunat, ichki noroziliklar bizga juda tanish. O'qituvchilar bahoga bo'lgan munosabatini ko'zdan kechirishgan;

Oshkora xursandchilik va ko'z yoshlargacha ko'ringan. Nima uchun baho bolaning hayotida muhim o'rin olgan.

Hozirgi kunda baho qo'yishdan oldin nazorat ishlari olinadi. Ular:

- og'zaki so'rov (umumiy guruhda va yakka tartibda)
- yozma ravishdagi so'rov (diktant, bayon, insho, misol va masalalar echish).

- lo'baratoriya ishlar.

- amaliy ishlar.

- mustaqil, yozma ishlar

- imtihonlar

YUqoridagi nazorat darslari tashkil etilgandan so'ng faoliyatida uchraydigan tipik xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarimizga, oliy ta'lim, akademik litsey, kasb-xunar kollejlarida o'quvchi-talabani o'zini-o'zi baholash, muvaffaqiyatli motivlash, xavotirlik, ruhiy tinchlik, atrofdagilar bilan o'zaro samimiy va do'stona munosabat, ijodkorlik, hamkorlik tushunchalari kirib kelmoqda.

Baholash shunday olib borilmog'i kerakki, u o'quvchitalabani o'qishga bo'lgan qiziqishini, xohish-istaklarini, ichki his-tuyg'ularini oshirishga xizmat qilmog'i kerak. Didaktika mezonlari bilan aytganda ularni doimiy motivatsiya

asosida anglab borish kerak. Pirovardda o'quvchining o'zga ishonch kuchi o'quvchi-talaba shaxsini doimiy rivojlanishini kafolatlamog'i kerak.

Pedagogikadan ma'lumki, o'z-o'zini anglash ta'lim-tarbiyada pirovard natijaga erishish yo'lidir. Zero dars an'anaviy yoki interfaolda kechadimim undan qo'yilgan bosh maqsadi- bolada mavjud bo'lgan ijodkorlikka turtki berishdan iborat. YA'ni, o'quvchida bilim olishga ishtiyoq va chanqoqligini tarbiyalash bosh masaladir. SHuning uchun ta'lim sohasi hodimlariga amaliyotida o'quvchilarni baholashda pedagogik diagnostika nima?, test nima? U qanday qilib o'quv jarayoniga olib kirilishi kerak? Kabi savollarga javob berishga va alohida to'xtalishini lozim topdik.

Pedagogik diagnostika

Biz quyida pedagogik diagnostikani predmeti, maqsadlari, vazifalari, ahamiyati xarakteristikasi va uning metodlari haqida fikr yuritamiz. Har qanday faoliyat zahirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari kutilgan natijalari bo'ladi.

Pirovard ish natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar chiqarish, yoki yo'l qo'yilgan bo'shliqlarni to'ldirish, kelgusi rejalarda uni hisobga olish pedagogik diagnostikani predmeti hisoblanadi.

O'quvchi bilimiga baho qo'yish, uni sinov va imtihonlardan o'tkazish, pirovard ish natijalar o'quvchini, kamchiliklarni aniqlash orqali galdagi vazifalarni belgalash jarayonida pedagogik diagnostikaning usullaridan foydalanib kelingan.

Ayrim mutaxassislar pedagogik diagnostikasi ta'lim mazmunida ko'zda tutilgan bilimlarni o'zlashtirishni asosiy deb tushunadilar. Boshqa bir mutaxassislar diagnostikani o'quv - biluv jarayonini jadallashtiruvchi axborot deb targ'ib qiladilar.

Ayrim mutaxassislar diagnostikani egallash bilim, ko'nikma, tushuncha, malakalarning sifatini nazorat etish degan fikrni ilgari suradilar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirish imkoniyati bilan o'quv materiallari mutanosibligini tahlil etish, tanqidiy baholash, takliflar ishlab chiqish, rejalar tuzib tadbiq etish asosida maqsadni to'g'ri tanlash mezonidir.

Umuman olganda pedagogik diagnostika o'quv materiallarini o'rganish, o'zlashtirish, bilib olish jarayonini tashkil etish orqali eng mavhum pedagogik asosni yaratishga zamin yaratadi.

O'qituvchining ilmiy pedagogik izlanish mahoratiga, o'quvchining bilim sifati darajasiga pirovard natija sifatida qarashga imkon beradi.

Pedagogik diagnostika;

- O'quvchiga individual, tabaqalashgan ta'lim berishni jadallashtiradi, rivojlantiradi;

- Davlat ta'lim standartlarining ta'limga qo'ygan talablardan kelib chiqib, o'quvchi bilimini to'g'ri va adolatli baholashni ta'minlaydi;

- Ishlab chiqilgan ta'limiy mezon, kriteriya o'lchovlar orqali o'quvchining sinfdan sinfga ko'chirilishida, biror biror yo'nalishga o'qishda minimal talablarga javob berishni ta'minlaydi.

Pedagogik diagnostika o'quv jarayoniga qo'llanishi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni adolatli va to'g'ri tashkil etiladi. Pedagogik diagnostika to'g'ri xulosalar chiqarishga va sifat samaradorligini ta'min etishga olib keladi.

Pedagogik diagnostika faoliyatida:

- Taqqoslash;
- Pedagogik tahlil;
- Avvaldan bashorat etish;
- Integratsiya;
- Diagnostika natijalarini o'quvchi ota – onalariga etkazish;
- Pedagogik diagnostika metodlaridan o'qituvchi, o'quvchilarni xabardor etishni ta'minlaydi.

Pedagogik diagnostikaning kriteriyalari:

- Xaqqoniylik (adolatlilik);
- Ishonchlilik;
- O'z tasdig'ini puxta topishi;

Pedagogik diagnostika sinovlarida bir xil talab, sinov, bir xil munosabat, kayfiyat psixologik mezonlarga rioya qilinsa, uning pirovard natijalari ishonchli, adolatli, xaqqoniy bo'ladi.

Pedagogik diagnostika natijalari qachon uzil kesil taqqoslanadi?

Tajribalar tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar adolatli va haqqoniy bo'ladi. SHuning uchun biz quyida pedagogik diagnostikaning test metodiga batafsilroq to'xtalamiz.

Pedagogik diagnostikaning test metodi.

Ko'pincha tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan nazariy shakl va usullari ham test usuliga kiradi. Nazoratning test uslubi ilmiy asoslangan, ma'lum texnologik talablar, qonun qoidalarga asoslangan, rioya qilingan holda olib boriladi.

Test usuli diagnostika metodlari orasida eng qulayi hisoblanadi. U orqali ishonchli va sifatli ma'lumotlar to'plash mumkin.

Test sinovlari doimiy ravishda takomillashib boradi. Unga har davrlarda turlicha ta'riflar berib kelingan.

Nemis olimi Linner "Test shaxsning turli holatlarini shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metod" – deb ta'riflaydi.

Test usuli o'quv jarayonining pirovard natijasini haqqoniy holatini aniqlab berishga asoslangan mezondir.

U asosan tahlil asosida olib boriladi. SHu asosda pedagogik jarayon natijalarini olish orqali uning takomillashib borishiga yordam beradi. Testlar ta'limiy xulosalar bilan birga texnologik vaziyatni istiqbolli, istiqboldagi harakat yo'nalishini belgilab beradi.

Testlar quyidagi yo'nalishda olib boriladi:

1. Ta'limiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test;
2. SHaxs taraqqiyoti va uning ichki imkoniyatlarini belgilaydigan test;

3. SHaxs intellektini aniqlaydigan test;
4. Umumnatijani belgilaydigan test;
5. Muayyan ta`lim muassasasi hududida u yoki bu fanni o`qitish samaradorligini ko`rsatuvchi test;
6. Davlar ta`lim standartlarida ko`zda tutilgan bilim, ko`nikma va malakalarni qay darajada o`zlashtirganligini aniqlovchi test;
7. Professional kasb, metodik mahorat, ma`naviy-ma`rifiy tarbiya topganlikni aniqlovchi test;
8. SHaxs psixologiyasini aniqlab beruvchi test;
9. SHaxs psixologiyasini o`rganish asosini ochib beruvchi test;
10. Insonning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test;
11. Umum natijalarni belgilaydigan test;

Demak, testlar ko`pincha o`quvchilarning davlat dastur standartlarini o`zlashtirishiga baho berar ekan, o`zlashtirish nima? U qanday, qachon namoyon bo`ladi?

- O`zlashtirish bu – o`quvchini fanlar kesimida davlat standartlarini o`qib, egallash, bilim, ko`nikma, malakalari bo`yicha erishgan natijalari.

- O`zlashtirish o`quvchiga davlat va jamiyat, maktab tomonidan qo`yilgan talablarga erishish.

- O`zlashtirish o`quvchilarning mavzu mazmuni, boblar, tushuncha, bilim, malaka, ko`nikmalarini muayyan davrda o`rganish uchun qilgan o`quv mehnati natijasidir.

O`quvchining dars sifati va samaradorligiga baho quyidagi ko`rsatkichlar asosida o`rganiladi:

- O`qituvchining darsi ta`lim jarayonida aniq maqsadga yo`naltirilganligi;

- O`quvchilar bilan uning o`zaro samimiy, do`stona munosabat va muloqotlarni o`rnatilganligi;

- Darsning o`quvchi shaxsiga individual yondashganligi;

- O`quv jarayoniga tabaqali yondashuvi;

- Ta`lim mazmunini, o`qitish metodlarini, o`quvchilarni bilish qobiliyatlariga moslashtira olganligi;

- O`qituvchining o`quvchilarda umum o`quv malaka va ko`nikmalarini shakllantirish, o`quvchilarni ta`lim mazmuniga qiziqtirish, motivlarini hosil qilganligi;

- O`quvchini tushunish, diqqat bilan tinglash uchun barcha imkon va kuchini sarf etishi;

- O`quvchilarni umum malaka va qobiliyatlarini rivojlantirish;

- O`quvchini adolatli holisona, haqqoniy, baholash va uni olgan baholarini amaliyotda qo`llay olishi;

- Milliy g`oya, ma`naviy – ma`rifiy va madaniy jihatdan tarbiyalanganligiga erishish;

- Tarbiyalanganlikni aniqlovchi quyidagi mozonlarga ya`ni:

- O'quvchining mehnatga munosabati, o'qishga bo'lgan munosabati, tarbiyaga munosabati, jamiyatga munosabati, odamlarga munosabati, o'z vataniga, o'z-o'ziga munosabatini namoyon qilishni shakllantirish.

YUqorida bayon etilgan mezonlarga o'qituvchi qay darajada tayyorgarligini, uning nazariy, uslubiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, qobiliyati, malakaviy darajasi, shaxs sifatida uning faoliyatidagi nuqson kamchiliklarni tuzatishi uchun ularni diagnostikadan o'tkazib borish yaxshi natijalar beradi.

Hozirda amaliyotda quyidagi diagnostik usullar qo'llanmoqda:

- o'qitish kasbiy mutaxisisligi nazariy va o'qitish metodikasi bo'yicha so'roqlardan iborat didaktik – metodik va pedagogik – psixologik testlar.

- diagnostik testlar.

- diagnostik karta.

- so'rovnomalalar (anketalar)

- reyting.

Diagnostika natijalariga ko'ra ta'limdan ilmiy – uslubiy xulosalar chiqariladi va o'qituvchining kasbiy, nazariy – uslubiy muammolari, pedagogik mahorati va shaxs sifatlarini korreksiyalash tadbirlari belgilanadi. Bu tavsiya va tadbirlar o'z navbatida o'qituvchiga uslubiy shakl va mazmuni belgilanadi, uni malaka oshirishga, seminar – treninglarda ishtirok etish, o'z-o'ziga mustaqil ta'lim olishi tavsiya etib boriladi.

Ma'lum muddatdan keyin qayta o'tkazilgan diagnostika pedagogik faoliyatdagi sifat o'zgarishlarni aniqlash bilan bir qatorda unga ko'rsatilgan uslubiy yordam, malaka oshirilganligi, mustaqil ta'lim olganligini aniqlash imkonini beradi.

O'qituvchi faoliyatini diagnostikalash tartibi va mazmunini yaxlitligiga idrok etish uchun yuqorida bayon etilgan fikrlarimizni quyidagi jadvalda keltiramiz.

Ёзма сўровномалар орқали ўқитувчининг фаолиятига бўлган муносабати. Мақсад ва эҳтиёжларини тадқиқ қилиш, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммоларига бўлган муносабатини аниқлаш

Бевосита педагогик фаолият жараёнини кузатиш. Ўқитувчининг у ёки бу воситаларни қўллай олиш маҳоратларини ўрганиш

Таълим-тарбия жараёнида билиши муҳим бўлган педагогик вазиятларни ҳал этиш орқали ўқитувчи педагогик маҳоратининг қай даражада намоён бўлишини ўрганиш



O'qituvchi pedagogik faoliyatini har tomonlama diagnostikalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- diagnostika ob`ektini tanlash;
- diagnostika uslubini belgilash (ishlab chiqish);
- diagnostika o'tkazish;
- diagnostika natijalarini tahlil qilish;
- diagnostik tahlil asosida (interpretatsiya) tavsiya, tadbirlar ishlab chiqish;
- uslubiy, malaka oshirish, mustaqil mutolaa mazmunini belgilash va amalga oshirish (korreksion va profilaktik ishlar);
- qayta diagnostikalash, oraliq muddatidagi sifat o'zgarishlarini aniqlash.

Xulosa shuki – diagnostika o'qituvchining muammo va kasb metodi qiyinchiliklarini, tipik xato va kamchiliklarini aniqlash zamonaviy texnologiya, innovatsiyalarni ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, almashtirish, amaliyotga tatbiq etishni ko'zlab amalga oshiriladi.

Endi ayrim testlar orqali o'qituvchi faoliyatini pedagogik yutuqlarga bo'lgan ehtiyojlari, uni rivojini ayrim testlar yordamida aniqlashga qaratamiz.

Muvaffaqiyatlarga erishishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ko'pincha shaxsning yutuqqa erishishga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq bo'ladi. Bu ehtiyojning namoyonligi erishilgan natijadan qoniqmaslik, muvaffaqiyatni tanqidiy his qilish, keyingi faoliyatini amalga boshlash, uning samaradorligini yanada oshirishga intilishda o'z aksini topadi va maqsadga erishish uchun to'siqlarni engib o'tishga bo'lgan qat'iylik, tirishqoqlikni ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, yutuqqa erishishga

bo'lgan ehtiyoji umuman faoliyatning samaradorligini oshirishga bo'lgan intilishni izohlaydi. Bu xususiyat esa, shaxslarda har xil shakllangan bo'ladi.

Pedagogik faoliyatda yutuqqa erishishga bo'lgan intilish uni doimo o'z malakasini oshirish, kasbiy metodik mahorati ustida tinmay mustaqil mutaola qilish, faoliyatni to'g'ri tashkil etish, yangicha fikr yuritish, ilg'or tajribalarni o'rganish, o'z faoliyatiga yangi texnologiya va innovatsiyalarni qo'llashga, izlanuvchan, ijodkorlikka undaydi. Uzluksiz o'z ustida ishlash uning kundalik ishiga aylanish ko'nikmasini hosil qiladi.

Quyidagi savollarga berilgan javoblarni tahlil qilish bilan shaxsda yutuqqa bo'lgan ehtiyoji qay darajada namoyonligini izohlash mumkin. Ushbu taklif etilayotgan usul o'qituvchining o'z-o'zini diagnostikalashda qo'l keladi.

Ko'rsatma. Savollarga aniq, vijdonan javob berishga harakat qiling. Agar fikr mulohazalar sizning xatti-harakat va hayotingizga mos bo'lsa, - "ha" deb esda tuting, shaxs o'zini baholashda ijtimoiy xohish ("men" idan) ustunlik qilishi kerak.

So'rovnoma.

1. O'ylaymanki, hayotda muvaffaqiyatga erishish hisob-kitobga emas, ko'proq shart va sharoitga bog'liq.

2. Agar sevimli ishdan ajralsam hayot men uchun o'z ma'nosini yo'qotgan bo'ladi.

3. Bir ish boshlaganda uning natijasidan ko'ra tezroq bajarilishini o'ylayman.

4. Odamlar o'zaro munosabatlarining yomonligidan emas, ko'pincha ishlardagi muvaffaqiyatsizliklaridan qiynaladilar.

5. Menimcha, ko'p odamlar erishish qiyin va uzoq vaqtni talab qiladigan masalalar bilan yashaydilar.

6. Hayotimda muvaffaqiyatsizlikdan ko'ra yutuqlarim ko'proq.

7. Faol odamlardan ko'ra, ko'proq ruhiy ko'tarinki, emotsional kishilarni yoqtiraman.

8. Oddiy ishga ham uning ayrim elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.

9. Muvaffaqiyatsizlikdan ta'sirlanib ketib, gohida ehtiyotsizlikni unutib qo'yaman.

10. YOshligimda ota-onam meni erkinroq, ishyoqmas hisoblashardi.

11. Muvaffaqiyatsizligim, omadsizligimga o'zim emas ko'pincha sharoit sabab bo'ladi.

12. YOshligimda ota-onam meni juda qattiq nazorat qilishgan.

13. Menda qobiliyatdan ko'ra chidash, sabr toqat ko'proq

14. Muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan ishonchsizlik emas, erinchoqlik, ishyoqmasligim niyat maqsadlardan voz kechishimga sabab bo'ladi.

15. O'zimga ishongan kishiman deb o'ylayman.

16. YUtuqqa erishish uchun imkon men tomonida bo'lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.

17. Men tirishqoq emasman.

18. Ish bir tekis ketsa, mening faolligim oshadi.

19. Men jurnalist bo'lganimda bo'lib o'tgan voqealardan ko'ra ko'proq odamlarning yangi kashfiyotlari haqida yozardim.

20. YAqin kishilarim ko'pincha hayotdagi rejalarimni ma'qullamaydi.

21. Hayotdan, taqdirdan talab – xohishim do'stlarimnikidan ko'ra kamroq.

22. Menimcha, menda qobiliyatdan ko'ra matonat, sabr taqatim kuchliroq.

So'rovnoma echimi.

Ha: 2,6,7,8,14,16,18,19,21,22

Yo'q: 1,3,4,5,9,10,11,12,13,15,17,20

Agar jamg'armadagi ballar 13 va undan yuqori bo'lsa, yutuqqa ehtiyoj kuchli, 9 balldan kam bo'lsa, ehtiyoj kuchsiz.

YUtuqqa bo'lgan ehtiyoji kuchli bo'lgan kishilar boshlagan ishlarini oxiriga etkazish uchun chindan va tirishqoqlik bilan harakat qiladilar.

Erishagan natija bilan qoniqmay, uni yanada takomillashtirishga harakat qiladilar.

Buning uchun harakatnign yangi shakl va usullarini izlaydilar, ularni sinab ko'radilar. Bu shaxslar optimist, juda faol, ishga jon dilidan berilishadi. Ular xato qilishdan qo'rqishmaydilar. Xatoga yo'l qo'yganda ham, uni bartaraf etishga kirishishadi. Bunda ba'zan ehtiyotsizlik qilib qo'yishlari mumkin. YUtuqqa ehtiyoji kuchli kishilarni yaxshi ishlarga yo'llarga yo'llash kerak. Ayni holda jamiyat qonun-qoidalariga zid ishlarda ham bu ehtiyoj "Qondirilishi" mumkin.

YUtuqqa bo'lgan ehtiyoji kuchsiz kishilar passiv, bir xillikka odatlangan, faoliyatning natijasidan ko'ra, uni amalga oshirish haqida o'ylaydilar yoki muvaffaqiyatga erishish uchun zo'r bermaydilar. Ayrim hollarda boshlagan ishlaridan voz kechishlari mumkin. Qiyinchilik va to'sqinliklarni engib o'tishda ikkilanadalar, ruhlari tushadi.

Ushbu metodika yordamida olingan faoliyatning samaradorligiga salbiy ta'sir etadigan xususiyatlar maxsus psixologik, pedagogik va avutotreninglar orqali bartaraf etilishi yoki yoki korrektsiyalanashi mumkin. Treniglarni o'tkazishda mutaxasis psixologlar xizmatidan foydalanish, ularning ta'sir samaradorligini oshiradi.

Umuman, pedagogik faoliyatda yutuq va muvaffaqiyatlarga bo'lgan intilish o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi va faoliyatning pirovard natijasiga ta'sir etadi.

Quyida biz "Teylor ishlanmasi" bo'yicha xavotir, tashvish va qo'rqinch umumiy darajalarini baholash testini keltiramiz.

Tekshiruvchi uchun ko'rsatma:

Quyida keltirilgan tadqiqotlarni yaxshilab o'qib chiqing va bu tasdiqlarga rozi bo'lasiz, "Ha" javobni, agar rozi bo'lmasangiz "Yo'q" javobni qo'ying. Agar savollarga javob berishga qiynalsangiz "Bilmayman" degan javob berishingiz mumkin.

Javob varaqasi sifatida faqat javoblar tartib qatori bir varoq qog'ozda olinishi mumkin.

1. Odatda men og'ir va vazminman, meni munosabatdan chiqarish oson emas.

2. Mening asablarim boshqa odamlarnikiga nisbatan kamroq buzilgan.

3. Menda qazbiyat (ich ketish) kam bo'ladi.
4. Mening boshim kam og'riydi.
5. Men kam charchayman.
6. Men o'zimni umuman baxtli sezaman.
7. Men o'zinga ishonaman.
8. Men hech qachon umuman qizarmayman.
9. Do'stlarimga qiyoslaganda men o'zimni qo'rqmas odam deb
htsoblayman.
10. Boshqalarga nisbatan tezroq qizarib ketaman.
11. Menda yurak urishi va nafas qisishi kam bo'ladi.
12. Odatda mening oyoq va qo'llarim issiq bo'ladi.
13. Boshqalarga nisbatan tortinchoqligim kamroq.
14. Menda o'zinga ishonch etishmaydi.
15. Ba'zida o'zimni hech narsaga yaramagandek his qilaman.
16. Menda shunday havotirli davrlar bo'ladiki, men joyida o'tirolmay
qolaman.
17. Oshqozonim bezovta qiladigan holatlar kam bo'ladi.
18. Menda mavjud qiyinchiliklardan olib chiqib ketadigan ruh etishmaydi.
19. Men boshqalar singari baxtli bo'lishni istayman.
20. Mening oldimda ba'zi holatda huddi men bartaraf qilolmaydigan
qiyinchiliklar turgandek tuyuladi.
21. Men tez-tez nohush tushlar ko'raman.
22. Men qandaydir ishni boshlashga harakat qilganimda qo'llarim
qaltirashini sezaman.
23. Meni uyqum beholovat va uzuq-yuluq.
24. Meni muvaffaqiyatsizlik juda bezovta qiladi.
25. Menga hech narsa havf tug'dirmasligini bilganim holda qo'rqinchli
vaziyatlarda o'zimni sinab ko'rishga to'g'ri keladi.
26. Menda ishda yoki qandaydir yig'ilishda diqqatimni bir narsaga jalb
etish qiyin bo'ladi.
27. Men kuchli zo'riqish bilan ishlayman.
28. Men bo'sh o'rinni egallab olaman.
29. Umuman har doim nimalarnidir yoki kimnidir deb tashvishlarini his
qilaman (tashvishlanaman).
30. Men hamma narsani jiddiy qabul qilishga moyilman.
31. Mening ko'zlarim nam tez-tez yig'lab turaman.
32. Menga ko'proq qayt qilish va ko'ngil aynish huruji azob beradi.
33. Mening ish o'rindagistulim har oyda bir bor marta buzuladi (yoki tez-
tez).
34. MEN ko'pincha qizarib ketishdan qo'rqaman.
35. Bir narsaga diqqatimni jalb qilish juda qiyin.
36. Mening moddiy axvolim (vaziyatim) o'zimni juda bezovta kiladi.
37. Ko'pincha men hech kim bilan gaplashishni xohlamagan narsalar
haqida o'ylayman.
38. Menda tashvishlanish, uxlashga xalaqt bergan davrlar bo'lgan.

39. Qachon men bo'sh lavozimni egallaganimda bu meni haddan tashqari hayajonga soladi va menda kuchli terlash hosil bo'ladi.

40. Xatto sovuq kunlari ham men engil terlayman.

41. Vaqti-vaqti bilan shunday kuzatuvchan bo'lib qolamanki, maenda uyquga ketish juda qiyin bo'ladi.

42. Men tez qo'zg'atuvchan odamman.

43. Men ba'zi vaqtda o'zimni butunlay haqsiz odam hisoblayman.

44. Ba'zi vaqtda mening asabim zaiflashib, men o'zimdan chiqib ketgandek tutaman.

45. Men ko'pincha o'zimni kimdir, nimadir tashvishlantirayotgan fikrlarga (hayollarga) tutib qolaman.

46. Boshqa odamlarga nisbatan, men o'ta oziganman.

47. Men umuman hamma vaqt ochlikni his qilaman.

48. Ba'zida men bema'ni ishlar uchun bezovtalanaman.

49. Mening hayotim har doim favqulotda zo'riqish bilan bog'liq bo'ladi.

50. Kutish meni har doim asabiylashtiradi.

Natijalarni qayta ishlash.

Kalit bilan mos kelgan har bir javob 1 ball bilan baholanadi. Noaniq javob uchun 0,5 ball qo'yiladi.

Ko'rsatkichlar doirasiga qarab quyidagicha bo'ladi.

0 dan 6 gacha past daraja.

6 dan 20 gacha o'rta daraja.

20 dan oshiq bo'lsa, yuqori daraja.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishda o'qituvchida iroda bo'lishi muhimdir. Uning kuchli irodasi bo'lishi o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim – tarbiyaviy ishlarga chidam, matonat talab etiladi. Ayniqsa, hamkasblari bilan ishlashda hamkorlik, hamjihatlik talab etiladi. Ota-onalarga mahalla bilan tinimsiz o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda kuchli iroda kerak bo'ladi. SHuning uchun biz quyida yana bir testga to'xtalamiz.

Irodangiz kuchlimi?

1. Deylik bir ishni boshlab qo'ydingiz. Ammo bir urinishingizdan negadir u sizga yoqmay qoldi, ikkinchidan sharoitingiz og'irlashdi. Lekin shularga qaramasdan o'sha ishni oxirigacha etkazasizmi?

2. Masalan, charchasangiz rosa dam olgingiz kelayapti. Lekin idoradan tezkor topshiriq olgansiz. Bor iroda kuchingizni to'plab, ichki qarshilikni engib, ana shu topshiriqni bajarasizmi?

3. Idoradami, uydanmi birov bilan janjallashib qolsangiz, o'zingizni qo'lga olib, o'sha holatni tahlil qilib, xulosa chiqarib, o'zingizni aybdor deb topsangiz, kechirim so'raysizmi?

4. Doktor sizga uch oy davomida parxez tutishga maslaxat bersa, shu maslahatga to'liq amal qilsizmi?

5. Nahorda oshga borish kerak, ammo ishdan rosa kech, horib qaytgansiz. Tongda turishga qiynalsangizda oshga borasizmi?

6. Ko'chada to'satdan avtoxalokatga guvoh bo'lib qolsangiz, o'sha erda to mashinalar etib kelishicha guvoh berib turasizmi?

7. Xatolarga vaqtida javob qaytarasizmi?
 8. Havo bulut, chaqmoq chaqib turibdi, samolyotga chiptangiz bor. Ammo siznim bunday havoda samolyotda uchish havfli deb qo'rqitishsa uchishni boshqa kunga ko'chirasizmi?
 9. Doktor buyurgan dori zahardan-zahar bo'lsada ichaverasizmi?
 10. So'zingizni doimo bazarasizmi?
 11. Notanish shaharga yuborishsa, hech indamay borasizmi?
 12. Kundalik ish rejangiz (doimiy) bormi?
 13. Agar qat'iy ahd qilsangiz, chekishni bir umrga tashlab yuborishga ko'zingiz etadimi?
 14. Televizordan ko'p serialli film ko'rayapsiz. Nogahon uning galdagisi, eng qizig'i boshlanganda zarur ishingiz chiqib qolsa, o'sha ish deb filmdan voz kechasizmi?
 15. Kimdir asabingizga tegib, janjallashmoq payida bo'lsa, o'zingizni bosib, ana shu janjalni oldni olasizmi?
- “Ha” uchun “2”; “Yo'q” uchun “0”, “Ba`zan, bilmadim” uchun “1” ball beriladi.
- Natija:
- 0-12 – ball bo'lsa, irodangiz u qadar kuchli emas, siz eng oson oromingizni buzmaydigan ishlarga moyil odamsiz. O'z vazifangizga nojiddiy munosabatda bo'lasiz. Sizning irodangiz “E menga nima”.
- 13-21 – ball bo'lsa, iroda kuchingiz o'rta miyona. Bordiyu qiyinchilikka kelib qolsangiz uni echish, yo'llarini qidira boshlaysiz. Agar shu qiyinchilikni osongina aylanib o'tish yo'li topilib qolguday bo'lsa, huddi ana shu yo'lni tanlaysiz. Vaysab-vaysab bo'lsada, sizga yoqmagan topshiriqni baribir uddalaysiz. Ammo joningizni qiynab, zimmangizga yumushni yuklashni aslo yoqtirmaysiz. Maslaxatimiz irodangizni tejang.
- 22-30 – ball bo'lsa, irodangiz joyida. Sizga ishonsa bo'ladi. Juda to'g'ri so'zsiz.

Navbatda biz boshlang'ich sinf o'quvchisi tafakkuri va axloqini o'rganish, kommunikativ, e'tiborlarini va moyilliklarini o'rganish metodikalarini test yordamida o'rganishni keltiramiz.

Maktab yoshidagi bolalar tafakkurini o'rganish metodikasi.

Mazkur metodika kichik maktab yoshidagi bolalarda tushunchalar, turli ob'ektlar orasidagi bog'lanish sabalari, o'xshashlik tasavvurlarning shakllanganligini o'rganish uchun xizmat qiladi. U 20 ta savolni o'z ichiga oladi. Psixolog bolaga har bir savolni o'qib beradi va bolaning javobini qayd etadi. Har bir savoddan so'ng qavs ichiga to'g'ri javob keltirilgan.

Savollar.

1. Ot kattami yoki itmi? (Ot).
2. Ertalab nonushta qilamiz, peshindachi? (tushlik).
3. Kunduzi yorug' kechasi-chi? (qorong'u).
4. Osmon havo rangda, o'tlarchi? (yashil).
5. Gilos, nok, olma, olxo'ri bular nimalar? (meva).

6. Nima uchun hali piyoda o'tmasdan shlakbum tushiradi (mashinalarni to'xtatib turish uchun).

7. Toshkent, Samarqand, Buxoro – bular nima? (shahar).

8. Soat necha bo'ldi, (bolaga soat ko'rsatiladi).

9. Sigirning bolasi buzoq, itning bolasi kuchukcha, qo'yning bolasi nima? (qo'zichoq).

10. It ko'proq tovuqqa o'xshaydmi yoki mushukka? (mushukka).

11. Nima uchun avtomabilda tormoz bor? (mashinisi sekinlashtirishdagi har qanday javob to'g'ri bo'ladi).

12. Bola bilan bolta nimasi bilan bir biriga o'xshaydi? (o'xshash vazifalarni bajaruvchi asboblarning mazmunidagi har qanday javob to'g'ri).

13. Olmaxon bilan mushuk nimasiga ko'ra o'xshaydi? (kamida ikkita belgi sanab o'tilishi kerak).

14. Mix bilan vintning nima farqi bor? (mixning usti tekis, vint g'adir-budir, mix bolg'a bilan qoqiladi, vinit burab kiritiladi).

15. Futbol, tennis, suzish bular nima? (sport fizkulturalari).

16. Qanday transport turlarini bilasiz? (kamida ikkita har xil transport sanab o'tish kerak).

17. Qari odam yoshdan nima bilan farqlanadi? (kamida ikkita turli xil belgilarni sanab o'tish kerak).

18. Odamlar nima uchun sport bilan shug'ullanadi? (sog'lom bo'lish uchun, kuchli bo'lish uchun, baquvvat bo'lish uchun, g'alaba qozonish uchun, shinam bo'lish uchun).

19. Odamlar ishlamasa nima bo'lishi mumkin? (narsalar yaratilmaydilar, narsalar sotib olinmaydilar, qiynalib yashaydilar kabi javoblar).

20. Odamni nima uchun qamaydilar? (yomon ish qilgani uchun, qonunni buzgani uchun, boshqalarga zarar etkazganlari uchun).

Natijalarni qayta ishlash.

Agar bolaning javobi to'g'ri javobga mos kelsa, unga 0,5 ball, qisman to'g'ri kelsa, 1,25 ball qo'yiladi. Bolani baholashdan avval bolaga savolni to'g'ri tushuntirilganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Natijalarni baholash.

10 ball – juda yuqori darajada

8-9 ball – yuqori darajada

4-7 ball – o'rta darajada

2-3 – ball past darajada

0-1 ball – juda past darajada

Siz tinglashni bilasizmi?

Quyidagi savollarga tegishli variant bilan javob qaytaring

Doim doim – 2 ball

Ko'pincha – 4 ball

Ba'zan – 6 ball

Kamdan kam – 8 ball

Deyarli hech qachon -10 ball

Savollar.

1. Suhbat mavzusi sizga sira qiziq bo'lmasa, uni tugatishga harakat qilasizmi?
 2. Suhbatdoshingizning bachkana qiliqlari g'ashingizni keltiradimi?
 3. Suhbatdoshingizning qandaydir gapi yoki harakati sizni qo'pollikka majbur qilishi mumkinmi?
 4. Notanish yoki yaxshi tanish bo'lmagan odam bilan suhbatlashishdan qochasizmi?
 5. Suhbatdoshingizning gapini bo'lish odatingiz bormi?
 6. Suhbat davomida boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'lsangiz ham o'zingizni tinglayotganday ko'rsatishga harakat qalasizmi?
 7. Suhbatdoshingiz muomalasiga qarab yuz ifodangizni, ovozingiz ohangini o'zgartirasizsi?
 8. Suhbat siz uchun yoqimsiz mavzu haqida bo'lsa, mavzuni almashirishga harakat qilasizmi?
 9. Suhbatdoshingiz birorta so'zni noto'g'ri xato talaffuz etsa, uni tuzutishga harakat qilasizmi?
 10. Suhbatdoshingizga nisbatan pastroq nazar bilan qarash holatlarigiz bo'lib turadimi?
- Natijalarni qayta ishlash.
- Ballar yig'indisi 62 dan oshsa, tinglash ko'nikmalarining rivojlanish darajasi o'rtachadan yuqoriroq bo'ladi. O'rtacha daraja 55 ball.

III-bob. Magistrantning ilmiy-tadqiqot ishlari. Magistrlik dissertatsiyasi strukturasi texnologiyasi.

Magistrlik dissertatsiyasi – dissertatsion ilmiy ishlarning alohida turi hisoblanadi. Boshqa dissertatsion ilmiy ishlardan farqi u o'ziga xos ilmiy yo'nalishdir.

Bu ishni alohidaligi shundaki, u bitirganlik haqidagi, bitirish kvalifikatsiyasi uchun «Mustaqil bajariladigan ilmiy izlanish hisoblanib, ilmiy rahbar bilan olib boriladi. Agar u ikki mutaxassislik kesishuvida bajarilsa ikki konsultantlar rahbarligida olib borilishi mumkin».

Magistrlar tayyorlash, ilmiy izlanishlar, ilmiy-pedagogik tayyorlashning birinchi pog'onasidir. Undan so'ng aspiranturaga kirish imkoni tug'iladi. Magistrlik dissertatsiyalari o'quv yurtlarida ikkinchi bosqichda magistraturada amalga oshiriladi.

Magistrlik darajasi ilmiy daraja huquqini bermaydi, balki akademik darajada birinchi navbatda oliy o'quv yurtining ikkinchi bosqichini tugatgan oliy ma'lumotli yuqori malakali mutaxassis bo'lib, ilmiy ish va ilmiy pedagogik faoliyatni olib borishda bilim va malakaga ega bo'lgan shaxsdir.

Magistrlik dissertatsiyasi shunday ko'rinishda taqdim etiladiki, unda ilmiy izlanishning mazmuni, uning to'laqlonligi ko'zda tutilgan. Uning maqsad,

vazifalari, xulosa va tavsiyalari to'la tavsiflashga va ular to'g'risida xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Ayniqsa, uning yangiligi, natijalari bo'yicha ilmiy izlanish qobiliyati borligini namoyish etib beradi.

Magistrlik dissertatsiyasi nomzodlik dissertatsiyasi ham, jiddiy ilmiy muammolarni hal etib, biror yangilikni eksperimental sinovdan o'tkazishga va isbotlashga bag'ishlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mustaqil bajarilgan ilmiy izlanish bo'lib, unda o'quv jarayoniga ilmiy yondashuvlar bo'lsada, ilgaritdan masalani echish bo'yicha modellashtirilgan ma'lumotlarga tayanadi.

Magistrlar ilmiy izlanishlari o'quv kafedraning ilmiy tadqiqot rejalari doirasida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy izlanish ilmiy muammolarni echishga qaratilishi kerak. Magistrant ilmiy izlanishlarni mustaqil olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. O'quv jarayonidagi ilmiy muammolarni ko'ra bilish va uning echimini topa olishi ko'zda tutiladi.

Nomzodlik dissertatsiyasini, magistrlik dissertatsiyasidan ilmiy ishni olib borish jarayoni, tayyorlash va himoya qilishda ham farqlari mavjud.

Nomzodlik dissertatsiyasining olingan natijalari ilmiy jurnallarda, ilmiy to'plamlarda, ilmiy maqola sifatida e'lon qilinsa, bu talab magistrlik dissertatsiyasi uchun shart emas.

Undan tashqari nomzodlik dissertatsiyalar va avtoreferatlar (qo'lyozma huquqi) asosida nashr qilinishi shart bo'lsa, magistrlik dissertatsiyasida bu shart emas. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishda avtoreferat talab etilmaydi.

Ular magistrlik dissertatsiyalarini davlat attestatsiya komissiyasiga topshirish bilan cheklanadilar.

Ammo dissertatsiya ilmiy rahbarning taqrizi bilan taqdim etiladi.

SHu bilan magistrant shaxsiy rejasini maxsus tayyorlov dasturini o'tib bo'lgach, uning bajarilganligi haqida axborot ilova qiladi.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan holda olib boriladi.

Ularga maxsus opponentlar biriktirilmaydi. Ammo magistrlik dissertatsiyasi taqriz qilinib, u ham ilova tariqasida beriladi.

Dissertatsiya 3 bo'limdan 60-80 bet atrofida bo'lishi maqsadga muvofiq.

- tadqiqot natijalarining ishopchliligi;
- himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati;
- tadqiqotni olib borishda tajriba-sinov olib borish va uni yakunlash, natijalash;

- dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Xulosalar ilmiy tadqiqotning kirish, 3 bob (nazariya, mazmun, metod vositalari, tadqiqotni tajriba-sinovdan o'tish natijalar, boblar bo'yicha xulosalar) tavsiya, foydalangan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, rezyumesidan iboratdir.

I. Ilmiy tadqiqot ishining nomi va mavzusini shakllantirish

Magistrlik dissertatsiya mavzusini tanlashda «nazariyasi», «pedagogik asoslari» soʻzlarini iloji boricha kamroq ishlatish yoki ularni qoʻllashdan uzoqroq boʻlgan maʼqul.

CHunki bu kabi soʻzlar maʼnolarini har kim har xil tushunadi yoki tushuntiradi.

Masalan, asoslari tushunchasi:

Birinchidan. Qonuniyatlar, printsiplari, kategoriyalari, pedagogikaning metodologiyalariga tegishli, degan fikrni bildiradi. Yoki pedagogika fanining tashkil etuvchi komponentlariga, uni pedagogik bilimlarini anglatadi degan maʼno ham beradi.

Ikkinchidan. Pedagogika-pedagogik faoliyatini tizimlashtiradigan, umumlashtirilgan nazariy fikrlarni yigʻindisi deb yuritadi.

«Asoslari» ilmiy boshlangʻich bosqichi yoki uning poydevori deb ham qoraladi. Yaʼni u pedagogika fanidagi tushuncha qonunlari, metodologiyalari degan fikrni ham berishi mumkin.

Asoslari goho pedagogik kontsepsiya majmuasi fanidagi gʻoyalar deb ham qoraladi.

Koʻpchilik, metodologiya ilmiy ishning mavzusini shakllanishi deb taʼkidlaydi. Har holda mavzuni shakllantirish ilmiy ish mazmuni mohiyatidan kelib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuni mutaxassislar maslahati asosida shakllantirilsa yana ham maqsadga muvofiq boʻladi.

Mavzuni tanlashda quyidagilarga eʼtibor berilishi kerak:

- Mavzuni tanlashda biriktirib qoʻyilgan ilmiy rahbar bilan kengashish va bir toʻxtamga kelish.

- Kafedradagi himoya mavzulari bilan tanishish, himoyalangan dissertatsiya katalogini oʻrganish, tahlil qilish.

- Himoya qilingan dissertatsiyalardagi soʻnggi yangiliklar, siz moʻljallayotgan mavzuga yaqin ishlar bilan tanishish.

- Zamon talablari asosidagi yangi yoʻnalish, muammolar, mavzular yangicha qarashlarni oʻrganish.

- Oʻz ilmiy mutaxassisligi boʻyicha adabiyotlar bilan tanishib chiqish, maxsus ilmiy toʻplam, mavsumiy davriy nashrlar, internet saytlar bilan tanishib chiqish.

- Amaliyotchi mutaxassislar bilan suhbatlar oʻtkazish va maslahatlarini olish.

- Dolzarbligi

- Aniqliyiligi

- yangiligi, jamiyat va hayot bilan bogʻliqligi, ayrim mavjud qarama-qarshiliklar echimiga qaratilishi.

- qisqa, aniq muammoni olib, uni atroflicha gorizontol, vertikal, tizimli echimini izlash.

- Aniq bir muammoning echimiga qaratilganligi - Mavzuni qisqa lo'nda shakllantirish	- Bo'lg'usi o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. - Mavzudagi umum so'zlarning 10 tadan oshib ketmasligiga e'tibor berish.
--	--

Ilmiy tadqiqot mavzusining turlari: (amaliyot, nazariya, aralash yo'nalishlar)

- Amaliyotga bag'ishlangan mavzular ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil etish, o'rganish va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

- Faqat nazariy masalalar ilmiy tadqiqotlar, asosan ilmiy-metodik adabiyotlar manbaidan foydalanib amalga oshiriladi.

- Aralash mavzudagi ilmiy izlanishlar amaliy va nazariy aspektlarini o'z ichiga qamrab oladi.

YUqorida keltirilgan fikrlarning tasdig'i uchun ayrim dissertatsiya mavzularini shakllantirish bo'yicha misollar keltiramiz.

Masalan, «Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish» (boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida).

Bu ishda tadqiqotning *ob'ekti* boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish jarayoni, *predmeti* etib: boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish yo'llari, shakllari, mazmuni, metodlari va vositalari olingan.

Umuman olganda ilmiy tadqiqot mavzusi ma'lum mezonlarga mos kelishi kerak va ta'lim oldida turgan dolzarb muammolarning echimiga qaratilmog'i maqsadga muvofiqdir.

Misol uchun, boshlang'ich ta'lim bo'yicha magistrlik dissertatsiyalari uchun ayrim dolzarb mavzularni keltirib o'tamiz.

- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning shart-sharoitlari.

- O'quv predmetlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish (boshlang'ich sinflar misolida).

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnlar ustida ishlash orqali erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

- Badiiy kitoblar o'qish ko'nikmasini hosil qilish asosida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish.

- Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarni umumsavodxonligini oshirish (boshlang'ich sinflar misolida).

- Interfaol ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish asosida o'quvchilarning ta'lim standartlarini o'zlashtirish omillari (boshlang'ich sinflar misolida).

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda darsdan tashqari ishlarni amalga oshirish omillari.

- O'quvchilarni ertaklar dunyosiga olib kirish orqali xotirada saqlash qobiliyatlarini o'stirish.

- O'quvchilarning so'z va matnlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilish orqali xotirada saqlash qobiliyatlarini o'stirish.
- O'quvchilarning so'z va matnlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilish orqali erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.
- O'quvchilarni erkin mavzuda mustaqil bayon yozish ko'nikmalarini shakllantirish orqali yozma va og'zaki nutqini o'stirish.
- Badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.
- O'quvchilarni darslarga qiziqtirish va motivatsiya orqali o'quv-biluv mas'uliyatini oshirish.
- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida ijodiy muhitni rivojlantirishning shart-sharoitlari.
- Mustaqillik yillarida boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish omillari.
- Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini liberallashtirish.
- Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini hosil qilish shart-sharoitlari.

Umuman kafedrada boshlang'ich ta'lim oldida turgan dolzarb mavzular bo'yicha magistrlik dissertatsiyalari bankini yaratish, magistrnlarni ilmiy-tadqiqot ishini istiqbolli yo'nalishiga va kelgusida fan nomzodlik tadqiqotlarini muvafaqqiyatli olib borishlariga zamin yaratiladi.

2. Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligani asoslash

Bu masalani asoslash va yoritish uchun magistrant ilmiy-metodik adabiyotlar yoki boshqa manbalar bilan tanishadi. Olgan mavzu bo'yicha ilmiy ishning tarixini o'rganadi, ilgari magistrantlar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarni tahlil etadi. Olingan ilmiy ishga aloqadorlik, o'xshashlik, yaqinlik tomonlarini tahlil etadi. SHu davrgacha olingan mavzuga yaqin muammolar echimlarni va boshqa yondashuvlarni birma-bir sanab o'tadi. Ilgari himoya qilingan ilmiy ishlardagi yangilik, yondashuvlar nimalardan iborat ekanligini sinchiklab tahlil etadi va qisqa, tushunarli qilib ilmiy tilda qayd etadi.

Ularda qo'llanilgan ilmiy apparatni va avval olingan natijalarni o'rganadi. Bundan maqsad shuki, ilmiy izlanishning dolzarbligi, ilgari bunday mavzuda yaxlit tadqiqotlar olib borilmaganligi, ishonchli qilib, aniq manbalarga suyagan holda isbotlashdan iborat.

Umuman mavzuni dolzarbligi ilmiy bilish jarayonida ma'lum bo'lsada, yaxlit tadqiqot olib borilmaganligini isbotlab berish talab etiladi.

Mavzuni dolzarbligi dissertatsion ishning sifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi funktsional xususiyatlar:

- pedagogika fanidagi biror bir hal etilmagan masalaning echimini to'ldirish.
- hozirgi zamon talabi asosida biror muammoni yangicha echimiga ta'sir etish.
- ayrim masalalarda ikki xil qarashlar bo'lgan muammolar haqida muhokama yuritish.
- to'plangan yangi ilg'or tajribalarni umumlashtirish.

- asosiy masalalar bo'yicha bilimlarni umumlashtirish, ilgari surish.
- yangi muammolarni qo'yish orqali olimlar va amaliyotchilarni e'tiborini qaratish.

Ilmiy tadqiqot ishni amalga oshirishda mavzuning dolzarbligi eng muhim ma'suliyat hisoblanadi.

Tanlangan mavzu bo'yicha ilgarigi ilmiy tadqiqot ishlarning qisqacha ma'lumotlari keltiriladi. Kimlar O'zbekistonda va boshqa horijiy mamlakatlarda ilmiy ishlar olib borgan, ayniqsa ular tomonidan qanday yangilik va ilmiy xulosalar olganliklarini ta'kidlab o'tish muhim hisoblanadi.

Ilmiy ish yuzasidan beriladigan adabiyotlar ro'yxatiga aniq muallifning familiyasi, ismi, sharifi, ilmiy ishning nomi, e'lon qilingan yili, nashriyoti o'rnatilgan tartibda kiritiladi.

Magistrant o'z ilmiy rahbarini, ilmiy ishlarini ham ro'yxatga kiritishi maqsadga muvofiqdir.

SHuni unutmaslik kerakki, siz olib borayotgan tadqiqot bo'yicha, ilmiy ishlar mavjud bo'lsa, kafedra professor o'qituvchilarning ishlarini qam adabiyotlar ro'yxatiga kiritish foydadan holi bo'lmaydi. Agar siz adabiyotlar ilmiy ma'lumotlarni yoritishda ayrim qarama-qarshiliklarga, noaniqliklarga duch kelsangiz u muammolarni ham aytib o'tish o'rinlidir.

SHunday qilib siz olgan muammolarning echimini topish maqsadida, ilmiy ishingizning ob'ektni aniqlash va uning dolzarbligini aytish orqali shu mavzuga qo'l urganingizni aytib, dissertatsiyani to'la nomini keltirib bayon etasiz.

3. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti

Tadqiqot ob'ekti - ma'lum bir jarayon yoki hodisa bo'lib, u muammoli vaziyatlarni, izlanish orqali echish uchun tanlab olinadi. Ob'ektda muammoli vaziyatlar echishga tadqiqot ishi olib boriladi.

Tadqiqot predmeti - tadqiq etilayotgan ob'ekt chegarasida, ichida bo'lib, u tadqiqot echimiga qaratilgan metod, mazmun, shakllar vositalarini o'z ichiga oladi.

Siz ilmiy izlanishni qaysi sohani o'rganishga bag'ishlasangiz, o'rganish predmeti sifatida qabul qilasiz. SHu olib boriladigan soha dissertatsiyaning ob'ekti sifatida qabul qilinadi.

Ilmiy ish predmeti shaxsga, uni rivojlanishiga yoki unga ta'sir etuvchi ta'lim yoki tarbiyani o'z ichiga oladi. Umuman magistrlik dissertatsiyalarini olib borishda uni ob'ekti va predmetini alohida ajratish odatiy tusga aylangan.

Tadqiqot ob'ekti - dissertatsiyaning diqqat e'tibori, ijtimoiy soha amaliyotini qamrab oladi, predmet soqasiga, faktlar, fenomenlariga qaratiladi.

Tadqiqot predmetida - dissertant e'tibori jarayonni, metod, shakl, echimi va vositalar ob'ektning ichida olib borishga qaratiladi.

Masalan, tadqiqotning ob'ekti sifatida boshlang'ich ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish jarayoni deb olinsa, u holda izlanuvchining predmeti boshlang'ich ta'lim maktablari o'quvchilarining, iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, samarali shakl, metod va vositalari deb olinadi.

Umuman o'quvchilarning ob'ektiv bilimlari ob'ektda olingan bilimlar bilan taqqoslab, solishtirib natijalar chiqariladi.

4. Atamalar

Umuman magistrlik dissertatsiyasini shakllantirishda, tadqiqot mazmunini bayon qilishda atamalar alohida o'rin tutadi. Atamalar (kalitli so'zlar) orqali dissertatsiya mazmun moqiyatini va uning mazmunini yoritishda juda muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, ilmiy ishga taqriz va ilmiy xulosalar berishda opponent va retsezentlar uchun qulaylik tug'diradi. Atamalarni to'g'ri tanlash va ularni o'z o'rnida ishlatilganda ortiqcha savollarga o'rin qolmaydi. Ko'pincha dissertatsiyada ishlatilgan so'zlarni keltirish va ularni ilmiy ishga ilova qilish dissertatsiyaning mazmun, salohiyatini oshiradi.

Atamalar biror ilmiy manbalardan olinishi mumkin. Bunday hollarda dissertant u atamani qaysi manbalardan olganini aniq ko'rsatishi va unga ishora qilishi kerak.

Undan tashqari ilmiy ishda transformatsiya qilish orqali atamalar kiritilgan bo'lsa, dissertant kiritilgan atamaga qanday o'zgartirish kiritib qabul qilinganini va uni tadqiqot uchun zaruratini izohlab berishi bilan hal etiladi.

Dissertant shaxsan o'zi kiritgan tushunchalar, atamalar ham bo'lishi mumkin. Unda yangi tushuncha va atamani ilmiy ishning mazmunini ochishga zarurligini asoslash, isbotlash kerak. Kiritilgan yangi tushuncha va atama to'liq izohlanadi.

Atamalar dissertatsiyaning eng muhim elementidir. Uni dissertatsiyaga ilova qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Biz magistrlik dissertatsiyasida ishlatilishi mumkin bo'lgan atamalarni keltirishni lozim topdik. Ularni quyida keltirib o'tamiz.

Magistratura - magistrnlarni tayyorlash shakli, ularni ilmiy tekshiruv va ilmiy pedagogik faoliyatga tayyorlaydi, bakalavrdan keyingi bosqich.

Magistr - fundamental bazaviy bilimga ega, ilmiy ijodkorlik metodologiyasini o'zlashtirib olgan, zamonaviy axborot texnologiyasini egallash va axborotni olish, qayta ishlash va saqlash ko'nikmasiga ega shaxs.

Magistrlik dissertatsiyasi - ilmiy ishlarning alohida turi yoki kichik ilmiy asardir. U ilmiy izlanish bo'lib ilmiy rahbar yordamida olib boriladi. Bu mustaqil bajarilgan ilmiy ish davlat attestatsiyasi komissiyasida himoya qilinadi va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

SHaxsiy reja - ilmiy ishni olib borish, o'z vaqtida algoritmlar asosida olib boriladigan shaxsiy reja. Magistrantni ish olib borishdagi rahbarlik hujjatidir. Unda ishning yo'nalishi mazmuni, hajmi, o'qish va ijro muddatini belgilaydi. Ish rejasi 2 yilga mo'ljallanadi, uni yillik, 6 oylik va choraklarga bo'lish mumkin

Maqsad - juda muhim bosh masalaga asoslangan, ilmiy, amaliy, real, qo'yilgan, topshiriqdir.

Vazifa - birinchi navbatdagi yaqin oradagi, so'nggi, topshirilgan, mo'ljalga olingan, asoslangan, alohida, aniq, ma'lum yo'nalishdagi ishdur.

Yo'nalish - bosh yo'nalish, hal qiluvchi asosiy, global, nihoyatda muhim, to'g'ri, xato, tanlangan, mo'ljalda ko'rsatilgan, navbatdagi vazifa.

O'rganish ~ asoslangan tajriba-sinov, nazariy, amaliy, qiyosiy, tajribaga suyanilgan, bevosita, maxsus, uzoq muddatli, doimiy, tizimli, navbatdagi, chuqur, jadallashgan atroflicha, detallashtirilgan.

Ilmiy izlanish - ilmiy, ob`ektiv, nazariy, tajriba-sinovli, tajribali, umumiy, aniq, fundamental, chuqurlashtirilgan, atroflicha, har tomonlama to'liq, faol, jiddiy, murakkab, qimmatli.

O'rganish yo'llari - oddiy, murakkab, noto'g'ri, to'g'ri, ratsional, optimal, tajriba yo'li bilan, chuqur tahlil, uzoq muddatli, atroflicha kuzatuv.

Analiz - ilmiy, haqqoniyligini, aniqliyini, atroflicha o'tkazilgan, to'liq, to'laqonli, detallashtirilgan, qiyosiy, diqqat bilan, aniq, chuqur o'rganish.

Material - ilmiy, eksperimental, ma'lumotli, statistik, faktik, umumlashgan, tizimlashtirilgan, olingan, mavjud bo'lgan, mavjud, foydalanilgan, katta, boy, kengaytirilgan, turlicha, etarli, ishonchli, mos kelmaydigan.

Fakt - real, aniq, ma'lum bo'lgan, ishonchli, hech qanday isbot talab qilmaydigan, manbali.

Axborot - aniq, to'laqonli, atroflicha, to'plangan, asoslangan, qimmatli, zaruriy, tezkorlik bilan olingan, etarlicha, yangi, mavsumiy, kundalik.

Mavzu dolzarbligi - davrga nisbatan yoki shu kungacha zarur yoki muhimligi. Mavzuni shu kun ta'limi sifatini ko'tarish yoki o'quv jarayonini takomillashishi uchun muhimligi.

Ilmiy ish farazi - ilmiy taxmin etilgan, u yoki bu hodisani ilgari surayotgan.

Deduktsiya - umumiy aqliy xulosalardan xususiylikka, bir qancha xususiyoqealardan umumlashtirib ularni o'zaro ta'siri asosida xulosa chiqarish.

G'oya - turli qarashlar asosida ahvolni aniqlash. G'oya shu bilan farqlanadiki, unda nafaqat o'rganish ob`ektigina tushunilmay balki qarashdagi maqsadlar, uning istiqbollari, amaliyotda tatbiqiy o'zgarishlar ham ko'zda tutiladi.

Induktsiya - ilmiy izlanish mulohaza yuritishning uslub va metodlari. Ammo umumiy xulosalar chiqarishda shaxsiy yakka qarashlar asosida xulosalar chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni bo'lib, qiziqishning bir turidir. U o'zining ob`ektivligi, qayta ishlanish, isbotlanishi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot topshirigi - ilmiy tadqiqot olib borishning tashkil etish kontsepsiyasi. Uning ijro etish muddati aniq ko'rsatiladi. U mavzuning olib borilishi bilan belgilanadi.

Kontsepsiya - biror narsaga tizimli yondashuv, asosiy fikr ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalariga qaratilib, uni olib borish yo'llari ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodi - olingan, erishilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni olish yoki xosil qilish.

Tadqiqotning metodikasi - aniq uslublar tizimi, yoki biror tadqiqotni olib borish, uslub amalga oshirish yo'l-yo'riqlari.

Ilmiy bilimning metodologiyasi - ilmiy-tadqiqot faoliyatni olib borishning formasi, yo'llari va printsigshari.

Modellashtirish - ob`ektning (originalini) ayni nusxasini (model) o'rganish holati. Originalning o'rnini bosuvchi, aniqligini atroflicha o'rganish,

o'rganilayotgan ob'ektni xususiyatlarini saqlagan holda amalga oshiriladi. Lekin model ob'ektni o'rganishga qulayligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kuzatish - borliqni ob'ektiv maqsadli qabul qilish, ob'ektni tashqi qiyofasi, xususiyatlarini, ob'ektga munosabatlarni ta'minlaydi.

Ilmiy mavzu - ilmiy xarakterga ega bo'lgan vazifa bo'lib u ilmiy-tadqiqot olib borishni talab etadi. Ilmiy tadqiqotni reja asosida olib borish ko'rsatgichidir.

Umumlashtirish - fikrlash uslubi va uni natijasida o'rganilayotgan ob'ektni va uning xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti - ma'lum bir jarayon yoki hodisa bo'lib, o'rganish uchun tanlangan va muammoli vaziyatni echimiga qaratilgan tekshirish faoliyatidir.

Tushuncha - predmetlarni farqlashtiruvchi, o'zaro munosabatlarni bildiruvchi fikr, yaxlitlash.

Tadqiqotning predmeti - tadqiqot etilayotgan ob'ekt ichida bo'lib o'tadigan, tadqiqotning ilmiy echimiga qaratilgan metod, mazmun, shakllari, vositalari.

Bashorat qilish - biror-bir xodisaning istiqboldagi rivojini maxsus ilmiy tadqiqot etish.

Eksperiment - lotincha so'z bo'lib, sinab ko'rish «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarining tatbiq jarayonini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tajriba* sinovni olib borish materiali - tajriba-sinov materiali ilmiy izlanuvchi tomonidan tayyorlanadi. Ilmiy raxbar bilan kelishiladi. Tajriba ob'ektidagi rahbar va o'qituvchilar roziligi olinadi.

Tajriba-sinov sinfi - tajriba-sinov ishlari aniq bir sinfda sinf rahbari va dissertant hamkorligida olib boriladi. Tajriba-sinov sinfiga teng tayyorgarlikka ega parallel nazorat sinf tayyorlanadi. Tajriba sinov ishlari natijalari har ikki sinfda bir-biriga taqqoslanib natijalar chiqariladi.

Tajriba-sinov ishlarini natijalash - tajriba-sinov jarayonining boshlang'ich natijalari har chorakda yakunlab boriladi. Yo'l-yo'lakay ayrim zarur hollarda tuzatishlar o'rnatilgan tartibda kiritilib boriladi.

Ish yakunida o'quvchilarni o'zlashtirish, tarbiya topganlik dinamikasi ko'rsatiladi. Natijalari matematik-statistik hisoblar asosida yakunlanadi.

5. Dissertatsiyaning ilmiy farazi

Faraz, qarama-qarshi qarashlar muammolarning echimini va mavjud vaziyatdan chiqish qolatlari o'z ichiga oladi. Jarayonga ijodiy yondashish orqali uning ilmiy echimini topishga qaratiladi. Unda ko'pincha maqsadga etish va uni amalga oshirish uchun nimani qanday qilib amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning ilmiy farazi quyidagi mezon va talablarga javob berishi kerak:

- taklif etilayotgan farazni printsipl tekshirish, nazorat etish mumkinligi;
 - uning maksimal tushunarli, ketma-ketligi;
 - uni amalda ijro etish mumkinligi;
 - mantiqan o'zaro bog'liqlik bo'lishi kerak;
 - ilgari surilayotgan faraz-mavjud bo'lgan bilimlar bilan aloqadorligi.
- Har qanday ilmiy faraz tadqiqot natijasida o'z isbotini talab etadi.

Ilmiy izlanishda faqatgina muammolarni echibgina qolmay, ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunishi talab etiladi.

Ilmiy faraz qo'yilgan muammolar echimiga qaratilibgina qolmay, uning mantiqiyligini, ilmiy izlanishning maqsadini qo'yilgan muammoning echimini ko'zda tutadi. Ilmiy faraz muammolarni ilmiy maqsad va echimlarga erishish yo'llariga qaratiladi.

Masalan, ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish (boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida) mavzusida tadqiqotning ilmiy farazi quyidagicha shakllanishi mumkin:

- birinchidan, maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi, individual-psixologik xususiyatlari, uning motivlar sohasi o'rganib chiqilganda;

- ikkinchidan, maktab o'quvchilari uchun sinfdan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo'ljallangan didaktik tizimni ta'minlaydigan metodik majmualar ishlab chiqilganda;

- uchinchidan, turli tizimli musobaqalar, sog'lom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, kechalar uyushtirilib, o'quvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olingan qolda to'garaklarga qabul qilinganda;

- to'rtinchidan, o'quvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari uyg'unlikda o'stirilganda oila, sinf va maktabdagi pedagogika haqida psixologik muqit atroficha o'rganib ularning hamkorligi rivojlantirilganda.

YUqorida bayon qilinganlar asosida dissertantning maqsadi, keltirilgan ilmiy farazning isbotini topishdan iboratdir.

6. Ilmiy ishning vazifalari

Dissertatsiyaning vazifalari uning farazlaridan kelib chiqadi. Odatda dissertatsiyaning ilmiy farazi qam, vazifalari ham 3-4 banddan oshmaydi. Ana shunda, ilmiy ishning mazmuni, matni uch bo'limdan iborat bo'lishini ta'minlaydi.

Jumladan:

1. Mavzuni vazifalarini o'rganish va taqlil qilish asosida, ilmiy izlanish vazifalarini shakllantirish.

2. Qo'yilgan vazifalarni dissertant tomonidan taklif etilgan echimlari.

3. Qabul qilingan qaror va vazifalar echimini (mantiqiy isbotlanishi, tajriba-sinov ish natijalarini, qayta ishlash va uning natijalarining tatbiq etilishi haqida ma'lumotlar berish).

Dissertatsiya matnida keltirilgan farazlarning tasdig'ini toptirish uchun quyidagi ilmiy vazifalarni echimi ko'zda tutiladi.

1. Birinchi vazifani amalga oshirish.

2. Ikkinchi vazifani amalga oshirish.

3. Uchinchi vazifani bajarish shakllantiriladi. Vazifalarni bajarishni shakllantirishda ilmiy

ishning metodlari bilan adashtirib yubormaslik kerak.

6. Tadqiqotning metodologik asoslari va ilmiy izlanish metodlari.

Ilmiy tadqiqotning metodologik asosi fundamental ish bo'lib, u tadqiqot metodini tanlab olish, uning natijalarini taqdim etish va boshqa elementlarini yoritishi bilan ularning ish faoliyatlaridan farq qiladi. Ilmiy tadqiqotning metodologik xarakteristikasi ishni kirish qismida quyidagi shaklda keltiriladi:

nazariyaning nomi, kontsepsiyasi, ilmiy yo'nalishi va unga asos solgan shaxslarning alfavitli ro'yxati, ularni hal etishda hissa qo'shganlar va rivojlantirganlar familiyasi, ismi, nomlari keltiriladi.

Keltirilgan kontsepsiyada avval falsafiy, aniq fan yo'nalishi, shu sohada ilmiy tadqiqotlar maqsadi, ob'ekti va predmetiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi keltirilgan uchta komponentlar ilmiy tadqiqotning nazariy bazasini tashkil etadi.

Metodologik asoslar keltirilgach tadqiqot metodlari belgilanadi. Belgilangan metodlar qo'yilgan vazifalarga mos kelishi kerak.

Ilmiy tadqiqotni o'tkazishda ham nazariy, kuzatish, taxliliy metodlarni qo'llayvermasdan, ulardan ishda qo'yilgan vazifalarga mosini tanlab, ya'ni tanlangan metodlar, qo'yilgan vazifalarga moslanib, ketma-ketlikda olingani ma'qul.

Masalan, nazariy asoslari; faoliyatga, shaxsga, tizimli yondashuv, modellashtirish, qiyosiy, tarixiy, tahlil, sintezlash, qiyoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, solishtirish, tushunchalarni tahlil asosida olinishi mumkin. YUqoridagi metodlar nazariy holatni interpretatsiya, tahlil va umumlashtirish imkonini beradi.

Empirik metodlarda esa ma'lum ma'lumotlarni, ilmiy faktorlarni to'plash, pedagogik o'lchovlar (ro'yxatdan o'tkazish, oranjirovka qilish, shakllantirish, testlashtirish), kuzatuvlar olib borish, faoliyat mahsulotlarini o'rganish, hujjatlarni o'rganish, so'rovlar o'tkazish metodlari (anketa, suhbat va intervyu, sotsiometriya, xolis xarakteristikalar olish) pedagogik konsiliumlar o'tkazishlarni o'z ichiga oladi.

Tajriba-sinovda tadqiqot farazlari yangiliklari tekshirib ko'riladi. Ob'ektdagi miqdoriy o'zgarishlar matematik-statistika metodlari orqali ishlov berilib yakunlanadi.

Didaktik tadqiqotlarda ko'pincha o'quvchilarning bilim darajalari, tushuncha, ko'nikma, malaka ko'rsatgichlari bilan cheklanadilar. Albatta, bu ko'rsatgichlarni tahlili ham ta'lim darajalarini muhim mezonlari hisoblanadi.

Bunday baholashning qiyinchiligi shundaki, pirovard natijalarni olishda har bir tadqiqotchi o'zi tuzgan yozma nazariy ishi va testlar asosida xulosalar chiqaradi.

Ko'pincha tajriba-sinovda ishtirok etayotgan o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan baholarga suyanadilar va shu asosda xulosalar chiqaradilar. Albatta bunday xulosa natijalari sub'ektivlikka sabab bo'ladi. Bunday holatlarni tajriba-sinovlarning boshqa holatlariga qiyoslash va solishtirganda qiyinchiliklar tug'iladi.

Testlarning tuzilishi va murakkabligi turlicha bo'lishi natijasida o'quvchilarning bilim darajasini haqiqiy emasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Haqqoniy natijalarni standartlashtirilgan yozma ish va testlar yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Har qanday tadqiqotning yangiligi, odatiy h.odisa yoki qabul qilingan tushunchalardan, o'zgarish, o'sish, yangilanishga qadam qo'yishdan boshlanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda jumladan, pedagogik tadqiqotlarni olib borishda modellashtirish metodlari keng tarqalgan.

Model shunday narsaki u konstruksiyalashgan, ular ma`lum belgilar asosida tuzilgan bo`lib, asosan implitatsiya (moslashtirish) qoidalari asosida tuzilganligi uchun fikr yuritishga yordam beradi.

Modellashtirishda ob`ektning tuzilishi ichki qurilmalari, strukturalar asosida tuziladi. SHular asosida empirik (kuzatish, tahliliy) aniqlangan mazmunlar sintezlashib tushunishga imkon yaratib beradi.

Hodisa, jarayon, voqealarni tahlil qilish orqali tushunish, oson o`zlashtirish imkonini ochib beradi. YA`ni qilingan tadqiqotning natijalarini texnologiyalashtirishni osonlashtiradi.

7.Dissertatsiyani bosqichma-bosqich yozma matn holiga keltirish

Dissertatsiyaning bu qismida ilmiy-tadqiqot boshlanishi, manzili, bosqichlari ko`rsatib yozma bayon qilinadi.

Bosqichlar quyidagi shaklda xarakterlanadi; xronologik ramkasida, nomlanishi, faoliyatni qisqacha xarakteristikasi, olingan natijalar ilmiy talqin qilinadi. Tadqiqotni olib borish turli sxemalarda ko`rsatilishi mumkin.

Tadqiqot bosqichlari ko`pincha shunday qoida asosida tuziladiki, tadqiqot eksperimenti olib borilgan rejaga moslashtiriladi. Masalan,

1. Muammoni aniqlashtirishdagi diagnostika;
2. Bashoratlash xarakteridagi, ya`ni tadqiqotning maqsadi, farazlari, vazifalari, metodni tanlash kutilgan natijalarni bashorat etish;
3. Tashkiliy ishlar.

Bu o`rinda tajriba-sinov muvafaqqiyatli o`tishini ta`min etuvchi shart-sharoitlarga to`xtaniladi.

Tajriba sinovni moddiy bazasi, kadrlar ta`minoti, ilmiy-metodik ta`minoti, moliyaviy holati, unga motivatsion yondashuvni vujudga keltirish, tashkiliy tomonlari, tajriba-sinov nazorat ob`ektlari, baholash, mezonlari, kutilayotgan natijalar, vazifani to`la ijrosini ta`min etishda qo`llanilgan metodik tizim va ularni qaysi muddatlarda olib borilishi nazarda tutiladi.

Tajriba-sinovni boshlang`ich holatiga nisbatan, oraliq natijalar bo`yicha yozma nazorat ishlari olinib natijalab boriladi.

Umumlashtirish jarayonida olingan natijalar qayta ishlanib, maqsad, farazlarga qay darajada moslik belgilab chiqiladi.

8.Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

Tajriba-sinov nima?

Bu shunday tafakkur va fikrlash jarayoni bo`lib, uning yordamida tabiiy yoki maxsus yaratilgan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan pedagogik farazlar, g`oyalar, yangiliklar o`quv jarayoniga tatbiq qilinadi. Pedagogik ilmiy farazlar, muammolarni xal qilish-ning yangicha yo`llari va vositalari izlanadi.

Pedagogik tajriba-sinov bu, umummilliy tafakkur jarayoni bo`lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar o`rtasidagi sabab va oqibatlar bilan bog`liq o`rganiladigan bir yoki bir necha ob`ekt yoxud tizim-larni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkonini beruvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishlari asosan ta`lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki yangicha usullarning tatbiqiy

jarayonlarini sinash, tekshi-rish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pe-dagogik jarayonlarni takomillashtishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo'naltirilgan, mutlaqo yangi-cha muhitni olib kirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining takomillashib borishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda o'ziga xos talablar mavjud:

- ishning ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash;

- tajriba-sinov uchun aniq ob'ekt belgilash;

- tajriba-sinov o'tkazish vaqti va muddatini, sinflarni belgilash;

- tajriba-sinov uchun kerakli vositalar, asbobuskunalar, material va matnlar, anketalar va boshqa zaruriy narsalarni tayyorlash;

- tajriba-sinovni olib borishda tadqiqotchi va tajriba-sinovni olib boruvchi o'qituvchi tadqiqot materiallari, olib borish yo'llarini, kutilayotgan natijalarni aniq belgilab olish, hamkorlikda ish yuritishi;

- tajriba-sinovning borishi va natijalarini aniq yozib borish, tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish va tavsiya-lar berib borishlari talab etiladi. Tajriba-sinovlarni o'tkazishdan oldin shu sohaga doir eng maqbul ishni olib borish texnologiyasi, metodini belgilash ham ko'zda tutiladi. Qo'llaniladigan texnologiya va metodlar asoslangan bo'lib, u ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin.

Birinchidan, empirik (kuzatuv, taqliliy) metod hozirgacha tajriba-sinov mavzusiga oid qanday adabiyotlar, qo'shimcha manbalar, g'oyalar, tajribalar ma'lu-motini o'rganib chiqish, tajriba-sinovga oid barcha fa-razlar, modellar, bajarilishi kerak bo'lgan ishning loyihalash asosida belgilash metodidir.

Tadqiqotning empirik metodi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Sux, bat, kuzatish

- Tekshirish

- Tajriba sinovlari

- Eksperiment tadqiqot metodi, javob beruvchi bilan shaxsan aloqada bo'lishni ko'zda tutadi.

Axborotni olishda ko'proq yordam beruvchi tadqiqot metodidir. Kuzatilayotgan xrdisa yoki jarayonni tashqi kuzatuv asosida asoslangan holda xolis olishni ta'minlaydi.

- kuzatilayotgan ob'ektni chuqur va detallash-

- tirish asosida tadqiqot etiladi.

- Ma'lum maqsad yoki vazifalarga qaratiladi

- taxminiy o'zgarishlarni kiritish, o'zgartirish metodi bo'lib, bundan yuqori ko'rsatgich va innovatsion natijalar kutiladi.

- tadqiqotning umumiy empirik metodi bo'lib, o'rganilayotgan ob'ekt va uni qat'iy nazorati olib borilishi ko'zda tutiladi.

SHu bilan birga tajriba-sinov mavzusiga oid muammoga bog'liq barcha normativ va metodik hujjatlar, tavsiyalar, yo'riqnomalarni o'rganib chiqish ham

muhim-dir. Ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish, og'zaki va yozma so'rovlar o'tkazish, anketa va test savollariga javob olish, turli innovatsion ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlar-ni muvaffaqiyatli o'tishiga olib keladi. Ikkinchidan, nazariy metod tarkibiga modellashtirish, texnologiyalashtirish, tabaqalashtirish, qiyoslash, umumlashtirish, tasavvur qilish, loyihalashtirish, bir tizimga keltirish, integratsiyalashtirilgan tizim va tu-shunchalarni o'z ichiga oladi.

Tajriba-sinov ob'ekti, predmeti, maqsadlari, vazi-falari, vositalari, mezonlari, muddatlari bo'yicha kutilayotgan natijalari, tajriba-sinov natijalarini amaliyotda qo'llash mumkinligi tadqiqotchi va tajriba-sinov olib boruvchi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi talab etiladi.

SHu sababli tadqiqotchi magistrant va tajriba-sinov olib borgan o'qituvchilar:

- tajriba-sinov jarayoniga mas'uliyat bilan yondo-shishi;
- tajriba-sinov olib boruvchi tadqiqotchi magist-rant, tadqiqotchi-o'qituvchi ekanligini his etishi;
- sinov natijalari bo'yicha adolatli ishonchli xulo-sa chiqarishi mas'uliyati va burchi ekanligini his qili-shi kerak.

Tajriba-sinov ishiga jalb etilgan o'qituvchi quyida-gilarni yaxshi bilishi kerak:

- sinovga qo'yilgan materiallarning mazmun-mohiya-tini o'zlashtirib, ishni to'g'ri tashkil etish va tadqi-qotga ijodiy yondoshish;
- nazorat sinflarda tashkil etilayotgan dars jarayo-nida ilg'or pedagogik texnologiyalar, loyihalash metod-laridan hamda axborot texnologiyalaridan unumli, keng qamrovli foydalanish;
- eksperimental materiallarni o'zlashtirishda o'quv-chilarning o'zlashtirish imkoniyatlarini, jismoniy ri-vojlantirishlarini hisobga olib (ilmiy rahbar, tadqi-qotchi magistrant, tajriba-sinov o'qituvchisi bilan maslahatlashib) ayrim o'zgartirish va tuzatishlar kiritish-lari mumkin;
- tajriba-sinov natijalari bo'yicha kuzatuv dafta-rini izchil va to'g'ri yuritish ham muhim ahamiyatga ega;
- har chorak yakunida tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish;
- tajriba-sinov o'tkazilayotgan sinf bilan nazorat sinfi o'quchilarini o'zlashtirish, rivojlanish, fikrlash darajalarini qiyoslash va taqqoslab borish;
- tajriba-sinov natijalari bo'yicha xulosa, mulohazalarni ilmiy rahbar, tadqiqotchi va tajriba olib boruvchi o'qituvchi bilan muhokama o'tkazish.

Tajriba-sinov yakunida qanday maqsad va vazifalarni ko'zda tutmasin, tajriba-sinov diqqat markazida o'quv-chining rivojlanishi, xohish-istaklari, qiziqishlari, mustaqil fikr yurita olishi yotadi.

Sinov ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchiga shunday muhit-sharoit yaratilishi kerakki, u o'z xo-hishi bilan o'qisin, esda saqlab qolsin, o'zlashtirsin, olgan bilimni amaliyotda qo'llay olsin va nihoyat o'zi xulosa chiqarsin.

Vaholanki, barcha tajriba-sinovlar o'quvchi shaxsini rivojlantirish va erkin fikrlashi, faollikka qaratil-gan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda ta'lim standartla-rini to'la o'zlashtirish, uni sifat va samaradorligini oshirishga qaratiladi.

9. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi

Tadqiqotchi magistrant dissertatsiyasining maqsadi, ilmiy faraz, qo'llangan metodlari, olingan natijala-ri bilan universitet, respublika nazariy-amaliy kon-ferentsiyalarda, seminarlar, treninglarda ilmiy ma`ruzalar qilganligi haqida fikr yuritadi.

- Kafedrada magistrlar bilan o'tkazilgan ilmiy kon-ferentsiya, ochiq darslar va turli taqdimotlarda ishti-roki haqida to'xtaladi.

Tumandagi tajriba-sinov ishi olib borilgan, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining metod birlashma, tuman, shahar o'qituvchilari orasida o'tkazilgan amaliy seminarda qilgan ma`ruzalari to'g'risida axborotlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

«Boshlang'ich ta'lim», «Xalq ta'limi», «Pedagogik ta'lim», «Uzluksiz ta'lim» boshqa shu kabi jurnal va to'plamlarda ilmiy maqolalari chop ettiriladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi

Ilmiy tadqiqot ishning ishonchliligi metodologik asos, tadqiqotning fundamentalligi bilan belgilana-di. Belgilangan vazifaning ijrosini ta'minlashga me-todologik asosni tanlab olishiga bog'liq.

Olingan natijalarni tajriba-sinov qay darajada sifatli va maqsadli o'tkazganligida, o'z isbotini top-ganligida, amaliyotga qay darajada tatbiq etilganli-gi bilan belgilandi.

Muammoning echimiga psixologik, pedagogik, didaktik yondashuvga ahamiyat beriladi.

Olingan natijalar amaliyotda qo'llanilib, yaxshi natijalar bersa, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda il-miy farazi va ilmiy yangiligiga mos uslublardan foydala-nishning maqsadga muvofiqligi pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari bilan tasdig'ini topgan bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot ishiga ijobiy taqriz berilishi ham uning isboti sifatida qabul qilinadi.

Olingan matematik statistik ma'lumotlar natijalari o'tkazilgan tajriba-sinovlar metodikasiga naqa-dar mos ekanligini ko'rsatib beradi.

Pirovard olingan natijalar o'tkazilgan tadqiqot-ni oldiga qo'ygan maqsadlari va vazifalarini qay da-rajada echimini topganligini yaqqol isbotlab beradi. Ana shu olingan natijalar tadqiqotni yangiligini isbotlovchi dalil bo'lib, uning nazariy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu esa pedagogika fanining rivojlanishiga hissa qo'shganligi bilan belgilanadi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar

Magistrlk dissertatsiyasi himoyasiga olib chiqiladi-gan holat g'oyalarini shunday shakllantirish kerakki, tadqiqot natijasiga ko'ra uni himoya qilish mumkin.

Ko'pincha amaliyotdagi faoliyatdan sekin-asta ilmiy yondashuvlar, ilmiy g'oya va farazlar tomon qadamlar qo'yi-ladi. Ilmiy ishni amaliyotdan nazariy

asoslarga o'tishi yaxshi natijalar beradi, bu ayniqsa pedagogik amaliyot o'tayotgan magistrantlarga mos keladi.

SHuning uchun ham dissertatsiyalarning matni asoslangan keng qamrovli va ilmiy bayoniy o'ziga xos kichik ilmiy asardir.

Himoyaga olib chiqiluvchi holat dissertatsiyaning ob'ekt va predmetidan kelib chiqib uning maqsad, vazifalarini ro'yobga chiqaradi.

Ko'pincha himoyaga olib chiqiladigan holatlar bu ilmiy-tadqiqot ishining maqsadlarini amalga oshirishni bosqichma-bosqich ko'rsatib beradi.

SHu sababli magistrlik dissertatsiyalarida quyidagi maqsadlarni hal etish holatlari ko'rsatib o'tiladi.

1. Birinchi holat, tadqiqotning birinchi vazifasi hal etilgach qisqacha yozib ko'rsatiladi.

2. Ikkinchi holat, tadqiqotning ikkinchi vazifasi-ni hal etish yozib ko'rsatiladi.

3. Uchinchi holat, tadqiqotning uchinchi vazifasini hal etish yozib ko'rsatiladi.

Masalan, tadqiqot mavzusi «Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari deb olingan» bo'lsa himoyaga quyidagi holatlar olib chiqiladi.

1. 1-4 sinf o'quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirish bo'yicha tayyorlangan o'quv materiallari mazmuni.

2. 1-4 sinf o'quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirishga tizimli yondoshuv.

3. 1-4 sinf o'quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar, pedagogik tajriba-sinov natijalari.

YUqorida bayon etilgan holatlar dissertatsiyani yangi-ligini tashkil qiladi. Uning nazariy, ilmiy natijalari himoyaga olib chiqiladi.

Tadqiqotning yangiligi.

Ilmiy tadqiqot ishining pirovard natijalari bi-ror innovatsiyani, texnologiyani, loyihalarni yoki algo-ritmlarni, modellarni taklif etadi.

Tadqiqot natijasida olgan, pedagogika yoki xususiy metodikaga qo'yilgan xissalar bilan belgilanadi.

YAngiliklarni quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- yangi muammolarning qo'yilishi;
- yangicha darajalashtirish yoki davriylashtirishning taklif etilishi;
- tadqiqot olib borishda yangicha-tajriba sinov ish-larini olib borishda yangicha metodlarni taklif etish;
- yangi hodisalarni ochish, kuzatish orqali (sensatsi-on) favquloddagi yangiliklarning taklif etilishi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Ilmiy pedagogik tadqiqot ishining natijalari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, innovatsiya, ilg'or texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishga, amaliyotga joriy etishga xizmat qilishi zarur. Ayniqsa, uning metodologiya

qiymati pedagogika, didaktika metodologiya, metodika, xususiy metodika rivojiga, ta-raqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

Ta'lim-tarbiya sohasining sifati va samaradorligining o'sishi, iqtisodiy foyda keltirishi bilan belgilanadi.

Agar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi nazariy xarakterga ega bo'lsa, pedagogika, psixologiya, metodo-ligik, milliy g'oyasi fanlarini nazariy-amaliy rivo-jiga xissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari ishonchli asoslangan, tajriba-sinovda o'z isbotini topgan bo'li-shi kerak.

Olingan natijalarni amaliyotda keng joriy etish mexanizmlari keltirilishi kerak.

Tadqiqotning nazariy va metodologik ahamiyati quy-idagicha amalga oshirilishi mumkin:

- tadqiqotning asosiy natijalari ilmiy maqola, risola ko'rinishda;
- tadqiqotning amaliyotga tasdiq etilganligi xaqidagi hujjati yoki mualliflik guvohnomasi;
- tadqiqot natijalarini respublika yoki jahon il-miy-amaliy konferentsiya yoki simpoziumlarida aproba-tsiyadan o'tganligi;
- tadqiqot natijalarini maktab, kasb-hunar kollej, akademik litsey yoki oliy o'quv yurtlari o'quv jarayoni-da qo'llanilganligi;
- davlat ta'lim standartlari va dasturlar yaratili-shida ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanganligi;
- tadqiqot natijalaridan ta'limga oid normativ yoki me'yoriy hujjatlarda foydalanganligi;
- tadqiqot natijalaridan ta'lim diagnostikasi, mo-nitoringi, boshqaruvida foydalanganliklari kiradi.

XULOSA

Dissertatsiyaning xulosaviy qismi olib borilgan il-miy tadqiqot izlanishlarni umumlashtirish, har bob bo'yicha aloxvda-alohida yakunlar chiqarishga qaratiladi. Unda har bandi yoki bo'limlarida biror masalaning echi-mi haqida fikr yuritiladi.

Beriladigan har bir bo'limi mantiqan ketma-ketlik-da, o'zaro bog'liqlikda tuziladi va bayon qilinadi.

Xulosa qismida mazmuni, mohiyati, tuzilishi, bayon qilinishi magistrantning kasbiy mahorati, ilmiy' salohiyati bilan bog'liqligi ko'rinadi.

Ayniqsa, magistrlik dissertatsiyasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni to'la ro'yobga chiqishi, qo'yilgan farazlar o'z isbotini topgani, uning ilmiy-amaliy ahamiyati kelgusidagi amaliy ishlarni olib borishda dissertant tomonidan qanday yangiliklar kiritilganli-gi, hamda zamin yaratilgani haqida aniq, qisqa, ravon, yorqin fikrlar bayon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar berilgandan so'ng ayrim tavsiyalar ham keltirilishi mumkin. Ko'pincha, berilgan ilmiy xulo-salar va tavsiyalarga qarab ilmiy-tadqiqot ishiga baho beriladi.

Magistrant shuni yodida saqlashi kerakki, dissertatsiyada orfografik, punktatsional xato va g'aliz jumlarlar tuzilishiga, fikrlarga yo'l qo'yilmaydi.

Dissertatsiya sof ilmiy-badiiy va adabiy tilda bayon qilinishi kerak. Turli mahalliy shevalarda yozilishi mumkin emas.

Quyida magistrlik dissertatsiyasining tuzilish ilmiy tadqiqot ishning taxminiy kalendar rejasi keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilish sxemasi

Tadqiqot muammosini tanlash

Adabiyotlar tahlili

Farazni shakllantirish

Tadqiqot dasturii tuzish

Farazning tekshirish metodlarini aniqlash:

- Eksperimentlar;
- Jamoatchilik fikrini so'rash;
- Ta'lim jarayonini turli vaziyatlarda kuzatish;
- Mavjud natijalarni o'rganish, tarixiy guvoqlarni o'rganish v.q.

Tadqiqot loyihasining o'ziga xosligi asosida mavjud axborotlarni to'plash va hisobga olish

Natijalar tahlili. Tadqiqot jarayonida aniqlangan faktlarni mavjud ahvolga qiyoslash ularni o'zaro bog'liqliklarini aniqlash.

Xulosalar

10. Magistrlik dissertatsiyasi rejasining tuzilishi

Ilmiy tadqiqot ishning rejasi qilinayotgan ishning mazmuni va mohiyatining kontseptsiyasidan iborat.

Magistrant olib borayotgan tadqiqot ishining tizimli ifodasidir. Ilmiy ish rejasi tadqiqot jarayonida ob'ektini o'rganishni yangi aspektlari aniqlanib qolinsa va yangi vazifalarni bajarish zarurati chiqib qolsa, unga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Rejalar soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan holda bo'lishi mumkin. Murakkablashtirilgan xrla har bir boblar bo'limlarga ajratilishi mumkin.

Ayrim xollarda aralash xolda ya'ni bob bo'limlarga ajratilgan va ajratilmagan xrla xam bo'lishi mumkin.

Tadqiqotning dasturi aniq ish mazmuni, mohiyati, strukturasini aniqlab berishni ko'zda tutadi.

Quyida magistrlik dissertatsiyasining mazmuni va strukturasini, parametrlari keltiriladi:

Kirish qismida mavzuni asoslash.

Uning dolzarbligi, nima uchun mazkur mavzu olindi, uning o'ziga xos qiziqish uyg'otishini asoslash ko'zda tutiladi. SHu asosda mavzu bo'yicha adabiyotlarga tahlil beriladi.

Kirish qismida tadqiqotning maqsadi aniqlanishi, shakllantirilishi, o'z oldiga qo'yilgan vazifalari uning echimiga qaratilgan metodolik echimlari haqida fikrlar yuritiladi.

Asosiy qismi (3 bo'limdan iborat).

a) muammoni nazariy tomonlari taxlili.

b) birinchi qismda keltirilgan nazariy tomonlarini empirik va faktik materiallari asosida tasdiqlash. Pedagogik amaliyot tahlili asosida muammo

echimini pedagogik metodik, mazmun, shakl, vositalari va uni iqtisodiy asoslarini ochib berish.

s) tadqiqot muammolari echimi bo'yicha tavsiyalar.

Magistrlik dissertatsiyasi rejasiga qo'yilgan talablar

1. Qo'yilayotgan masalalar olingan mavzuga mos kelishi kerak va mavzudan tashqariga chiqmasligi kerak;

2. Mavzuni masalalari mantiqan ketma-ketlikda joylashtirilishi zarur;

3. Rejaga kiritilayotgan mavzuning masalalari tadqiqot natijalarini o'zida aks ettirishi kerak;

4. Mavzu atroflicha tadqiqotga tortilishi maqsadga muvofiq.

Magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishning taxminiy kalendar rejas.

	Ilshing bajarilish boskichlari	Natijalar	Muddat
	Tadqiqotning predmetini aniqlash	Mavzuni tanlash.	Sentyabr
	Kutubxona fondi, elektron fondi bilan tanishish	Bibliografik ro'yxat tuzildi	Sentyabr
	Ilmiy rahbar bilan kelishib mavzuni tasdiqlash	Mavzu tasdiqlandi, ilmiy rahbar tayinlandi	Oktyabr
	Manbalarni o'rganish, hujjatlarni to'plash.	Manbalar o'rganildi, o'qildi, hujjatlar o'rganildi, bibliografik ro'yxat tuzildi, yozma matn, referat, konspektlar tuzildi	Sentyabr-yanvar

	Ishning strukturasini aniqlash	Ilmiy ishning rejasi tuzildi	15 oktyabr
	Ishning ayrim qismlarini yozish	Manbalar tahlili yozildi, adabiyotlardan ishning ayrim qismlari qoralanib chiqildi.	tahlil 1 dan I bob-1yanvar II bob-fevral III bob-1 mart
	Umumiy xulosalarni shakl-	Har bir bob bo'yicha xulosalar va yakuniy	15 mart

0	lantirish Mavzu matni, tezisi yoziladi	xulosalar yozildi Mavzu matni va tezislari tuzilib, ilmiy rahbarga	15 mart
	Mavzu nomi, maqsadi,vazi- falar va uni xulosaga mos- ligini aniqlash	YOzilgan mavzuga, kirish qismiga, maqsad, vazifalar- ga ayrim tuzatishlar kiritildi	30 mart
	Ishning 1- varianti tuzi- lib, ilmiy raqbarga topshirish	Tahminiy matnni yozma variantini yakunlash	1 aprel
	O'zgartirishlar kiritish	Ilmiy rahbarning takliflarini hisobga olish	10 aprel
	Ishni hujjatlashtirish	Ishning oxirgi varianti qayta yozilib tugatildi	20 aprel
3	Konferentsiyada ma`ruza bilan CHIQISH	Konferentsiyada ma`ruza qilindi	20 may
4	Ishni topshirish	Ish topshirildi.	30 may

Magistrant ishni shunday tashkil etishi kerakki, grafik asosida, mantiqan ketma-ketlikda, maqsadga erishishning barcha choralarini o'z vaqtida hal etishi zarur.

11. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish tartibi

Magistrlik dissertatsiyasi tayyor bo'lgach, ilmiy rax-barga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar ilmiy ishni yana bir marotaba to'la ko'zdan kechirib, oxirgi taklif va mulohazalarini tayyorlab, yozma bayonda izoxlaydi. YOzma taq-riz o'z shaxsiy fikrlarini erkin bayon qilish orqali amalga oshiriladi. SHu bilan ilmiy ishning maqsadi, yo'nalishlari, mazmuni, nazariy-amaliy tomonlari bayon qilinadi.

Ilmiy rahbar xulosasida dissertatsiyaning mazmu-ni, magistrant ixtisoslashayotgan sohasi, fan yo'nali-shi dissertatsiyaga qo'yilgan talablarga to'la mosligi aytib o'tiladi.

Ilmiy rahbar xarakteristikasida ilmiy ishning dolzarbligi tadqiqotning nazariy va amaliy tomonlari, uning zarurati, to'laqonligi, mazmunining chuqurligi va ishda o'ziga xos echim topilganligini aytadi. Ilmiy ishga baho beriladi. Ilmiy rahbarning ilmiy ishga berilgan xulosasi o'qib eshittiriladi, u magistrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablarga javob berishi ta'kidlanadi.

Himoya qilinishidan avval magistrlik dissertatsiya taqrizdan o'tkazilishi kerak. Taqrizchi sifatida dissertatsiya bo'yicha ishlayotgan ilmiy darajali mutaxassislar jalb etiladi.

Taqrizchi magistrlik dissertatsiyasi mustaqil bajarilganligi, olingan mavzuning dolzarbligi, asosiy maqsad va vazifalarni to'g'ri hal qilinganligi yuqori saviyada tahlil etishi kerak.

Undan tashqari taqrizchi o'z shaxsiy fikr va mulohazalarini, dissertatsiyaning xulosa va tavsiyalarini asoslanganlik darajasini ko'rsatib o'tishi zarur.

Ayniqsa, olingan natija va yangiliklarning nazariy va amaliy ahamiyatini ta'kidlab o'tishi maqsadga muvofiq.

Albatta, dissertatsiyaning ijobiy tomonlarini aytish bilan birgalikda, uning kamchiliklari ham ko'rsatilishi muhim. Ayniqsa, ilmiy ish mazmuni mavzuga mosligi, mantiqiy, ilmiy, imlo xatolari haqida fikr bildirilsa, yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqriz matni 2-3 sahifa bo'lishi mumkin.

Taqrizda ko'rsatilgan ijobiy xato va kamchiliklar Davlat attestatsiya komissiyasiga o'qib eshittiriladi va ular dissertatsiya xulosalarini chiqarishda hisobga olinadi. Taqriz matni bilan magistrant tanishib chiqishi zarur. Chunki undan ko'rsatilgan xato, kamchiliklar va taklif, mulohazalarga asosli javoblar berishi talab qilinadi.

Tugallangan magistrlik dissertatsiya

Magistrantning kasbiy yo'nalishi individual rejalarni bajarganligi haqida ma'lumotnoma, magistrant ilmiy ishi rahbarining xulosasi, fan nomzodi yoki fan doktori mutaxassisning taqrizi, kafedrada ko'rib chiqilib, tavsiya berilib Davlat attestatsiyasi komissiyasiga xulosalash uchun taqdim etiladi.

Ikkinchi bosqichda Davlat komissiyasi majlisiga magistrantning chiqishi ilmiy rahbar bilan hamkorlikda tayyorlanadi.

Tayyorlangan ma'ruza matni Davlat attestatsiyasi yig'ilishida o'qib, tushuntirib beriladi (yoki og'zaki so'zlab beradi). Mana shu tayyorlangan hujjat va magistrni tayyorgarlik darajasi asosida Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari dissertatsiya yuzasidan xulosa chiqaradilar.

Dissertatsiya yuzasidan so'zga chiqish hujjati, bu dissertatsiyaning qisqartirilib, ko'chirilgan holati bo'lmay, uning asosiy mazmuni, tushuntirish matni, mohiyati ochib boriladigan holatda bo'lishi kerak. Dissertatsiyaning mantiqiy ketma-ketligi, tahlili, axborotlar sintezlanishi kerak.

U umumlashtirilgan holda, hajm jihatidan ixcham, mazmun jihatidan chuqur yoritilishi kerak.

YOzilgan 5 sahifalik ilmiy ma'ruza matnida dissertatsiya mohiyati qisqalo'nda, tushunarli ochib berilishi kerak. Tushuntirish matni (konspekt) maxsus bob

va ban-dlarga ajratilib, har bir bobda alohida mavzu yoritilishi, umumiy mazmunni qamrab olishga erishilishi kerak.

Tushuntirish matnini (konspekt) birinchi qismida dissertatsiyaning kirish qismi to'la yoritiladi. So'ngra mavzuning dolzarbligi, ilmiy muammo yoritiladi, uning mavzusi va maqsadi ko'rsatiladi.

SHundan so'ng dissertatsiyaning faktik materiallari-ni tanlashda foydalanilgan metodlar bayon qilinadi

Tushuntirish (konspekt) matnini ikkinchi qismi (3-3,5 bet) o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, har bir bob-lardan o'z echimini topgan masalalar kiritiladi.

Bu qismida so'ngi olingan natijalarga alohida e'tibor .qaratiladi. Bunda tahliliy xulosalar ayti-lib, ishga baho beriladi.

Tushuntirish matnining yakunida dissertatsiyaning xu-losalari, tavsiyalari keltiriladi. Olingan natijalar, xulosalar, tavsiyalar asosida ularni o'quv jarayoni sifat va samaradorligini oshirish va amaliyotda foydasini aytish bilan yakunlanadi. Tushuntirish matnida magist-rant o'z so'zining yakunida dissertatsiyada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, chop etgan ilmiy maqolalari va boshqa ilovalardan iborat ekanligini keltiradi.

12. Magistrlik dissertatsiyasini himoya etish jarayoni.

Magistrlik dissertatsiyalari Davlat attestatsiyasi komissiyasining kengashida ochiq qimoya qilinadi. Uni qimoya qilish tartib va jadvali Universitetning il-miy kengashi tomonidan belgilanadi.

Magistrlik dissertatsiyalarini qimoyasi munozara tariqasida, ilmiy etikaga amal qilingan qolda o'tkazi-ladi. Dissertatsiyaning xulosalari, mavzuni dolzarbli-gi, xulosa va tavsiyalarning ishonchliligi, ilmiy yangilik va amaliy aqamiyati chuqur taqlil qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi yig'ilishi, uning rai-si magistrantni tadqiqot mavzusi, muallifning fami-liyasi, ismini e'lon qilishdan boshlanadi. Kengash raisi taqdim etilgan zaruriy qujjatlar, magistrantga «o'quv-ilmiy-ishlari» haqida qisqa xarakteristika be-radi. Magistrant tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolalar, uning o'zlashtirish reyting baqolarini havola etadi. So'z ilmiy rahbarga beriladi. Ilmiy raqbar magistrantni ilmiy tadqiqot ishni olib borishdagi mu-nosabatiga va uni shaxsi haqida qisqacha ma'lumot beradi. So'ng kengash raisi dissertatsiya bo'yicha berilgan yozma xulosasini o'qib beradi.

Dissertatsiyadan olingan asosiy natijalari bo'yicha so'zni ma`ruza uchun magistrantga beriladi. U 10-15 daqiqa davomida ilgaritdan tayyorlangan ma`ruza tezisi asosida ilmiy ishning maqsadi, vazifalari, olib borilishi va natijalari qaqida so'zlab beradi.

Magistrant Davlat attestatsiya komissiya a`zolari va boshqa ishtirok etuvchilarni dissertatsiyadan olingan asosiy natijalarga qaratadi. Tadqiqot natijasida olingan nazariy va amaliy masalalarni birma-bir sanab o'tadi. Iloji boricha ilgaridan tayyorlangan slayd, chizma, diagrammalar, plakatlarni namoyish etadi. Namoyish etiladigan materiallar ketmaket mantiqiy va hamma uchun ko'rinarli joyda bo'lishi kerak.

Magistrant ma`ruzani tik turgan qolda, o'ziga va boshqalarga qulay joyda tushuntiradi. U zaruriy yozma, chizma ko'rgazmalarni ham ma`ruza davomida

namoyish etib boradi. Ma`ruza tugagach komissiya a`zolari va ishtirok etuvchilarga o`z minnatdorchiligini bildiradi. Ma`ruza tugagach kengash raisi dissertatsiyaga kelgan taqrizchi taqrizini o`qib eshittiradi. So`zni taqrizda keltirilgan kamchilik, takliflarga javob berish uchun magistrantga beradi. SHundan so`ng ilmiy munozara e`lon etilib, ishtirokchilardan xohlovchilar so`zga chiqishi mumkin. SHu bilan birgalikda komissiya a`zolari dissertatsiya mavzusi bilan bog`liq xohlagan savollarini berishlari va javob olishlari mumkin. Tadqiqot metodlari, olingan natijalari, tajriba-sinov ishlari bo`yicha savollar berishlari mumkin. Berilgan savollarga magistrant qisqa-lo`nda, aniq bevosita mavzuga taluqli javoblarni beradi. Albatta, magistrant savollarni diqqat bilan eshitishi, yozib olishi, minnatdorchilik bildirgan qolda og`ir, bosiqlik bilan kamtarona javob berishi kerak. Javoblar mantiqan o`ylangan, argumentlar, faktlar asosida bo`lishi ortiqcha savollarga o`rin qoldirmasligi kerak. Munozara va sa-vol javoblar tugallangandan keyin, yakuniy so`z magistrantga berilib dissertatsiya muhokamasi yakunlanadi. Kengash yakunida attestatsion komissiya olingan na-tijalarni baqolaydi. Natijada, ko`pchilik ovoz bilan o`tdi yoki o`tmadi degan baqo beriladi va qaror qabul qilinadi. Ishtirokchilar teng ovoz bersalar kengash raisining ovozi bilan hal etiladi. Attestatsiya komis-siya a`zolari ishtirokida kengash raisi barcha magistr-lar baqolarini e`lon qilib, ularni magistr akademik darajasi olganliklari ma`lum qilinib, ularni tabriklaydi va ilmiy kengashni yopiq deb e`lon qiladi.

IV-bob. Pedagog mutaxassisligi bo`yicha magistrning bilim, ko`nikma, va malakalarga ega bo`lish kasbiy talablari.

Magusturatira mutaxassisligi bo`yicha magistr-lar quyidagi bilan, ko`nikma va malakalarni egallagan bo`lamlari kerak.

- O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, maktab ta`limini takomillashtirishning Davlat umummiy dasturlari va ulardan kelib chiqadigan vaziaflar va ularni amaliyotga tadbiq etishni;

- I.Karimovning “YUksak ma`naviyat engilmas kuch” asari mazmuni, va undan kelib chiqadigan vazifalar, ularni amaliyotga tadbiqini;

- Kasbiy ta`limga tegishli ma`rifiy-uslubiy va boshlang`ich ta`limga ta`luqli boshqa hujjatlarni bilishi;

- Kasbiy ta`limning davlat standartlari va ular asosida tuzilgan moderinizatsiya qilingan dasturlarni, takomillashtirilgan standartlarni va dasturlarni avvalgi dastur va talablardan farqni bilishi;

- Kasbiy ta'limning davlat talabdlari bo'lishi va ularni hisobga olgan holda o'quv predmetlarini o'qitishda uzluksizlik va uzviylikni ta'minlatish malakasiga ega bo'lishi;

- Kasbiy ta'lim uchun jixozlangan sinf o'quv xonalarini, o'quv jihozlari, vositalari, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar bilan jihozlash tartibini, ro'yxatini, normativlarini bilishi hamda ulardan foydalangan va ularni ishlatgan holda o'quv darslari va mashg'ulotlarni innovatsiya, yangi texnologiyalar asosida o'tkazishni egallab olish va uni amaliyotda yuksak mahorat bilan o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi;

- Kasbiy ta'lim bo'yicha o'qitishning turli texnik-didaktik vositalari, mavjud yangi avlod darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini ajrata olishi;

- Kuchli kasbiy, metodik mahorat va tayyorgarlikka ega, o'quvchilarning qiziqish, ehtiyojlarini, qanday o'qib o'zlashtirayotganliklarini bilishi;

- Turli muhitda o'quv jarayonining qiziqish, xohish, istaklariga moslashtirib olib bora olishi;

- Nutqi ravon, sodda tilda tushintira olish qobiliyatiga eg bo'lish;

- O'quvchi-talabada o'z kuchiga ishonch hissini uyg'ota olishi kerak;

- O'quvchi-talabaga juda e'tibor bilan qarashi, o'quvchining har bir javobi, hatti harakatiga qiziqish bilan qarashi;

- O'quvchi-talabalar bilimini baholashning turli usullarini tahlil qila bilishi, baholashning reyoting tizimini mukammal bilishi va amalda qo'llash malakasini egallash;

- Kasbiy ta'limda olib boriladigan ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar turli milliy bayramlar tashkil etish, ularni mazmun va mohiyatini yuqori saviyada tashkil etish malakasiga ega bo'lishi;

- Kasbiy ta'limda shaxsiy gigiena, reproduktiv salomatlik mashg'ulotlarini tashkil etishni bilishi;

- Kasbiy ta'limda moderenizatsiya qilingan standartlar, dasturlar bo'yicha fanlarini DTS talablari darajasida o'qitish mahoratiga ega bo'lishi;

- Yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyatga, interfaol va didaktik o'yinlar, kommunikativ asosda mashg'ulotlarni olib borish malakasiga ega bo'lishi;

- Komp'uterni, internetdan axboratni olish, qayta ishlash, uzatishni bilish;

- O'zbek tilini yuqori darajada bir chetidan erkin fikr yuritishni bilish;

- Ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish, uni metodologiyasni, metodni bilish;

- Zamonaviy axborat texnologiyalarni qo'llash orqali bibliografik ishlarni olib borish;

- Innovatsion (yangiliklarni) bilishga intiluvchan, konstruktiv fikr yurtia oladigan, muloqat madaniyatini mukammal egalagan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, shaxsiy-kasbiy rivojlangan barkamol, intellektual barkamol insondir.

Adabiyotlar:

1. I.A. Karimov “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.; Sharq 1997 yil.
2. I.A. Karimov. “YUksak ma'naviyat engilmas- kuch” T.: Ma'naviyat 2008 yil.
3. J. Yo'ldoshev, S. Usmanov, Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi 2000 yil.
4. J.G'. Yo'ldoshev, Ta'lim yangilanish yo'lida. T.: O'qituvchi 2000.
5. J. Yo'ldoshev, S. Usmanov, Zamonaviy dars. T.: 2007.
6. J. Yo'ldoshev, S. Usmanov, Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. T.: Fan va texnologiya. 2008 yil.
7. J. Yo'ldoshev, F. Yo'ldosheva, G. Yo'ldosheva, Interfaol ta'lim sifat kafolati. T.: O'XMOMI, 2008 yil
8. Kuzin F.A. Magisterskaya dissertatsiya. Metodika napi-saniya, pravila oformleniya i poryadok zashiti. Izv. Osb-89 M.1998god.
9. M. Muxitdinov, A.I. Potopov Podgotovka i zashita dis-sertatsii (nauchno-metodicheskoe posobie) -T. VAK Uz. 2005 god)
10. B.YU. Xodiev, A.SH. Bekmuradov, M.R. Boltaboev i dr. Os-novi podgotovki k nauchno issledovatel'skoy deyatelnosti (uchebno-metodicheskoe posobie) T. Ekonomika 2007 god.